

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**G'.N.Uzoqov, B.X.Yunusov, Sh.Y.Samatova,
S.I.Hamrayev**

**«ISSIQLIK YURITGICHLARI VA BOSIM BILAN
HAYDASH MASHINALARI»**

fanidan



(masalalar yechish uchun)

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent-2019

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**G'.N.Uzoqov, B.X.Yunusov, Sh.Y.Samatova,
S.I.Hamrayev**

**«ISSIQLIK YURITGICHLARI VA BOSIM BILAN
HAYDASH MASHINALARI»**

fanidan

**5310100 – Energetika (Issiqlik energetikasi) yo'nalishida
ta'lim olayotgan talabalari uchun masalalar yechishda**



O'QUV QO'LLANMA

UDK 621.165 + 621.43 (075)

« Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari» fanidan o'quv qo'llanma. Uzoqov G'.N., Yunusov B.X, Samatova SH.Y., Hamrayev S.I., – Qarshi, QMII, 2019, 175 b.

Ushbu o'quv qo'llanma “Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari” fanidan amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha yozilgan bo'lib, shu fanning o'quv dasturiga mos keladi.

5310100 – Energetika (Issiqlik energetikasi) yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga “Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari” mutaxassislik fanidan amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada “Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari” amaliy mashg'ulotida yoqilg'i energetika majmualarida ishlab turgan energetik qurilmalar, bug' turbinasi, gaz turbinasi, ichki yonuv dvigatellari, ishchi kompressorlar, nasoslar va ventilyatorlarning tuzilishi, ishlash prinsiplari, ularning asosiy ishchi xarakteristikalar va ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada “Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari” fanini chuqur o'zlashtirish uchun izohli lug'at hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Taqrizchilar: QMII, Energetika fakulteti “Issiqlik energetikasi”
dots, f-m.f.n.: I.N. Qodirov

O.A.Omonov -“Talimarjon IES”i UMB xodimlarni
tayyorlash bo'yicha muxandisi

© **Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti**

ANNOTASIYA

“Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari” fani, talabalarni, bug’ turbinalari, ichki yonuv dvegatellari, kompressorlar tuzilishi, ishlash tartibi va yordamchi qurilmalari, ularning issiqlik energetika sanoatida qo’llanilishi, bu mashinalarning asosiy ko’rsatgichlari, ular ishinig asosiy qonun qoidalari, ularni to’g’ri tanlash uslublari va ularni qo’llanilishining asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi. Bu fanni o’rganish natijasida, talabalar issiqlik yuritgichlari bilan bog’liq masalalarni yecha olishi kerak.

АННОТАЦИЯ

Дисциплина «Тепловые двигатели и нагнетательные машины», дает представление о тепловые двигатели, двигатели внутреннего сгорания, компресорные установки их применение в теплоэнергетике, об основных показателях этих машин, методах их использования. В результате изучения данной дисциплины, полученные студентами знания позволят решать задачи связанные с тепловыми двигателями.

ANNOTATION

The subject gas and Gas and liquid pressure machines introduces students with pressure drives, their application in the thermal power industry, the main indicators of these machines, the basic rules of their work and their correct selection methods, the basic concepts. As a result of these studies students should be able to get involved in gas and pressure machines easily.

KIRISH

Oliy dargohdan yoshlarga ta'lim berayotgan o'qituvchilarga «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini to'liq bajarishlari va uni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlaridan foydalanishlarini talab etiladi. Zamonaviy o'qitish vositalari (kompyuter) o'qitish uslubi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari hayotimizga chuqur kirib keldi. Talabalarga hayotga va mutaxassisligi uchun talab etiladigan bilimlar tizimini yetkazish, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi.

Bilimga qiziqtirish mustaqil ta'lim olish ishtiyoqini shakllantirish va odatlantirish hozirgi kunning va kelajakning talabidir. Talaba bilim olish ko'nikmasiga ega bo'lsa, mustaqil o'qishga intilsa, o'qituvchidan ko'proq o'qitishni talab etsagina u rivojlanadi va maqsadga erishadi. Talabalar faoliyatida adabiyotlar bilan mustaqil ishlash qobiliyatini shakllanishi va mustaqil o'z ustida ishlash odati tusiga kirishi kerak.

Yangi pedagogik texnologiya shu talabni ro'yobga chiqarishiga qaratilgan ta'lim va tarbiya tizimidir. Ishchi o'quv dasturi fan o'qituvchisi uchun dastur amal bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi talab va qoidalar fan o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyatni yuklagan holda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanishni jahon ta'lim tizimiga moslashib o'qitishni amalga oshirishni qat'iy, haqqoniy talab qilmoqda.

Bakalavriatda o'qiydigan talabalari oldida taraqqiyotdan orqada qolmaslik, shiddatli o'zgarib borayotgan fan va texnika sirlarini tezroq egallab olishdek ma'suliyatlarni bajarish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Talabalarga bilim berishda o'qituvchidan ma'suliyatni chuqur his etish yangi maqul va samara beruvchi uslub va vositalarni tanlab olib o'qitishni talab etmoqda. Ishchi o'quv dasturi fan o'qituvchisining ma'naviy dunyosini va o'qituvchini o'ziga mujassamlashga ko'p yillik pedagogik tajribasini maxsuli bo'lishi kerak.

Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalari fanini o'qish natijasida talabalar sanoatda jumladan energetikada issiqlikning potentsial energiyasini mexanik ishga va undan so'ng elektr energiyasiga aylantirib berishda

qo'llaniladigan asosiy qurilmalar bilan tanishish va ular to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalarining turlarini, ularning texnologik imkoniyatlarini, uziga xos xususiyatlarini ularda yuz beradigan jarayonlarni bilgan xolda berilgan texnologik jarayonni optimal sharoitda olib borish, sarflanayotgan energetik resurslardan unumli foydalanish qurilmalarini hisoblash ishlarini amalga oshirishni bilishi kerak. Fanning asosiy masalasi issiqlik yuritgichlari va bosim bilan haydash mashinalarining turlari ishlash prinsiplari ularda kechadigan jarayonlarning fizik asoslarini talabalar tomonidan chuqur anglab yetishdir.

Fanni o'qitishda yangi ma'lumotlar turlicha texnogenik o'qitish usullari yangi informatsion tarmoqlaridan, texnik vositalardan keng qo'llaniladi hamda amaliy darslar o'tiladi.

I-BOB. BUG' TURBINALARI.

1.1. BUG' TURBINASI VA UNING KO'RSATKICHLARINI HISOBLASH.

Bug' turbinasi bu – bug'ning potensial energiyasini kinetik energiyaga, kinetik energiyani bosqichma-bosqich mexanik energiyaga aylantirib beruvchi qurilma.

O'ta qizigan bug'ning potensial energiyasi kinetik energiyaga va o'z navbatida val aylanishining mexanik energiyasiga aylanadigan dvigatel turiga bug' turbinasi deb ataladi.

Bug'ning ishchi kuraklarida harakatlanishiga qarab turbina pog'onalari aktiv va reaktiv turlarga bo'linadi.

Bug'ning kengayishi faqatgina pog'onani qo'zg'almas soplosida, ya'ni ishchi kuragiga yetmasdan sodir bo'ladigan pog'onalarga aktiv deb nomlanadi.

Bug'ning kengayishi nafaqat pog'onani qo'zg'almas soplosida, balki ishchi kurak kanallari oralig'ida ham davom etadigan pog'onalarga reaktiv deb nomlanadi.

Bug'ning soplo kanalidan oqib o'tishidagi haqiqiy tezligi (m/s) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$c_1 = 44,7\varphi\sqrt{(i_0 - i_1) \cdot (1 - \rho) + \frac{c_0^2}{2000}} \quad (1.1)$$

bu yerda $\varphi = 0,93 \div 0,98$ – soplarning tezlik koeffitsiyenti; $i_0 - i_1$ – bug'ning soploga kirish va chiqishdagi entalpiyalari, kJ/kg; ρ - pog'onaning reaktivlik darajasi; c_0 – soplo oldidagi bug'ning boshlang'ich tezligi, m/s.

Agar soplo oldidagi bug'ning boshlang'ich tezlik ko'rsatkichining qiymati kichik bo'lsa, uni hisobga olmasa ham bo'ladi, shunda bug'ning soplo kanalidan oqib o'tishidagi haqiqiy tezligi (m/s) quyidagiga teng bo'ladi:

$$c_1 = 44,7\varphi\sqrt{(i_0 - i_1) \cdot (1 - \rho)} \quad (1.2)$$

Pog'onaning reaktivlik darajasi deb ishchi kuraklaridagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishining h_2 , pog'onadagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishiga $h_0 = h_1 + h_2$ nisbatiga aytiladi (bu yerda h_1 – soploda ko'zda tutilgan issiqlik tushishi), ya'ni:

$$\rho = \frac{h_2}{(h_1+h_2)} \quad (1.3)$$

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlik ko'rsatkichi (m/s):

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60}, \quad (1.4)$$

bu yerda d – pog'onaning o'rtacha diametri, m; n – turbina valining aylanishlar chastotasi, ayl/min.

Kurak kanallariga kirishdagi bug'ning nisbiy tezligi (m/s) shunday aniqlanadi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1}, \quad (1.5)$$

bu yerda α_1 – disk yassiligiga nisbatan soplning qiyalik burchagi.

$\rho = 0$ bo'lgan aktiv pog'onada ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi bug'ning nisbiy tezligi (m/s) quyidagicha aniqlanadi:

$$w_2 = \psi \cdot w_1, \quad (1.6)$$

$\psi = 0,86 \div 0,95$ – ishchi kuragining tezlik koeffitsiyenti.

$\rho > 0$ bo'lgan aktiv va reaktiv pog'onalarda ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi bug'ning nisbiy tezligi (m/s) quyidagicha aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot h_0 + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot (i_0 - i_1) + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} \quad (1.7)$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligi (m/s):

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2}, \quad (1.8)$$

bu yerda β_2 – bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi, uning qiymati, odatda, $\beta_2 = \beta_1 - (2 \div 10^\circ)$ munosabatdan foydalanib tanlanadi.

Bug'ning ishchi kuragiga kirishidagi β_1 – burchak tezliklar uchburchagidan kelib chiquvchi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u}. \quad (1.9)$$

Bug‘ning ishchi kurak kanallari oralig‘idan absolyut tezlik bilan chiqishdagi qiyalik burchagi α_2 ham tezliklar uchburchagidan kelib chiquvchi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\cos \alpha_2 = \frac{w_2 \cdot \cos \beta_2 - u}{c_2}. \quad (1.10)$$

Pog‘ona kuraklarida 1 kg bug‘ning bajargan ishi (kJ/kg):


$$L = u \cdot (c_1 \cdot \cos \alpha_1 + c_2 \cdot \cos \alpha_2) = u \cdot (w_1 \cdot \cos \beta_1 + w_2 \cdot \cos \beta_2). \quad (1.11)$$

1.1 – masala. Aktiv turdagi pog‘onada bug‘ boshlang‘ich bosimi $p_0 = 3 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 450 \text{ }^\circ\text{C}$ bilan kengaymoqda. Agar soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$ ga va soplodan chiqayotgan bug‘ning entalpiyasi $i_1 = 3150 \text{ kJ/kg}$ ga teng bo‘lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug‘ning bosimi, harorati va haqiqiy tezliklarini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan bug‘ning boshlang‘ich holatini xarakterlovchi O nuqtani aniqlaymiz (1.1 – rasm). Bug‘ning belgilangan boshlang‘ich p_0 va t_0 parametrlaridagi entalpiyasi $i_0 = 3350 \text{ kJ/kg}$ ga teng. O nuqtasidan $i_1 = 3150 \text{ kJ/kg}$ entalpiya chizig‘i bilan kesishguncha izoentropik (adiabata) chiziq o‘tkazib, $p_1 = 1,6 \text{ MPa}$ bosim va $t_1 = 350 \text{ }^\circ\text{C}$ harorat qiymatlarini aniqlaymiz.

Soplodan chiqishdagi bug‘ning haqiqiy tezligini (1.2) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1)} = 44,7 \cdot 0,95 \cdot \sqrt{(3350 - 3150)} = 600 \text{ m/s}.$$



1.1 – rasm.

1.2 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,9$ MPa va harorati $t_0 = 380$ °C dan $p_2 = 1,3$ MPa gacha kengaymoqda. Agar ishchi kuraklaridagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_2 = 48$ kJ/kg ga teng bo'lsa, pog'onaning reaktivlik darajasini aniqlang.

Javob: $\rho = 0,48$.

1.3 – masala. Agar pog'onada ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 120$ kJ/kg, soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga va soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligi $c_1 = 335$ m/s ga teng bo'lsa, pog'onaning reaktivlik darajasini aniqlang.

Javob: $\rho = 0,49$.

1.4 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,8$ MPa va harorati $t_0 = 400$ °C dan $p_1 = 1,7$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,97$ ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligini aniqlang.

Javob: $c_1 = 522$ m/s.

1.5 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,2$ MPa va harorati $t_0 = 300$ °C dan $p_1 = 0,7$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga va soplo kanallari oldidagi bug'ning boshlang'ich tezligi $c_0 = 150$ m/s ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligini aniqlang.

Javob: $c_1 = 515$ m/s.

1.6 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,0$ MPa va harorati $t_0 = 350$ °C dan $p_1 = 1,5$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$ ga, soplo kanallari oldidagi bug'ning boshlang'ich tezligi $c_0 = 140$ m/s ga va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,15$ ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligini aniqlang.

Javob: $c_1 = 375$ m/s.

1.7 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,6$ MPa va harorati $t_0 = 450$ °C dan $p_2 = 1,0$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$ ga va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligini aniqlang.

Javob: $c_1 = 368$ m/s.

1.8 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,4$ MPa va harorati $t_0 = 400$ °C dan $p_1 = 1,7$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,965$ ga va kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,445$ ga teng bo'lsa, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni aniqlang.

Javob: $u = 192$ m/s.

1.9 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,8$ MPa va harorati $t_0 = 380$ °C dan $p_1 = 1,6$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 1$ m ga va turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 50$ ayl/s ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligini va kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni aniqlang.


Javob: $c_1 = 532$ m/s; $u = 157$ m/s.

1.10 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 3,0$ MPa va harorati $t_0 = 390$ °C dan $p_2 = 1,7$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,965$ ga, pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga va kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$ ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligini va kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni aniqlang.

Javob: $c_1 = 371 \text{ m/s}$; $u = 167 \text{ m/s}$.

1.11 – masala. Aktiv turdagi pog‘onada bug‘ boshlang‘ich bosimi $p_0 = 3,0 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 450 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $p_1 = 1,6 \text{ MPa}$ gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, pog‘onaning o‘rtacha diametri $d = 0,9 \text{ m}$, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3000 \text{ ayl/min}$, soplo kanallari oldidagi bug‘ning boshlang‘ich tezligi $c_0 = 150 \text{ m/s}$ ga va pog‘onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,12$ ga teng bo‘lsa, soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug‘ning haqiqiy tezligini, kuraklar o‘rtasidagi aylanma tezlikni va bug‘ning ishchi kuragiga kirishdagi nisbiy tezligini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan bug‘ning boshlang‘ich parametrlaridagi entalpiyasi i_0 va adiabatik kengayishdan keyingi i_1 entalpiyalarini topamiz (1.2 – rasm). Bug‘ning berilgan boshlang‘ich p_0 va t_0 parametrlaridagi entalpiyasi $i_0 = 3350 \text{ kJ/kg}$ ga, bug‘ning $p_1 = 1,6 \text{ MPa}$ gacha kengayishidan keyingi entalpiyasi i_1 esa $i_1 = 3150 \text{ kJ/kg}$ ga teng.



1.2 – rasm.

Soplodan chiqishdagi bug‘ning haqiqiy tezligini (1.1) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1) \cdot (1 - \rho) + \frac{c_0^2}{2000}} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{(3350 - 3150) \cdot (1 - 0,12) + \frac{150^2}{2000}} = 588 \text{ m/s}.$$

Kuraklar o‘rtasidagi aylanma tezlikni (1.4) formuladan topamiz:

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60} = \frac{3,14 \cdot 0,9 \cdot 3000}{60} = 141 \text{ m / s.}$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishdagi nisbiy tezligini (1.5) formuladan aniqlaymiz:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{588^2 + 141^2 - 2 \cdot 588 \cdot 141 \cdot 0,961} = 454 \text{ m / s.}$$

1.12 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,6$ MPa va harorati $t_0 = 300$ °C dan $p_2 = 1,0$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,94$ ga, disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 18^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,95$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3600$ ayl/min ga va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng bo'lsa, soplo kanalidan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligini, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni va bug'ning ishchi kuragiga kirishdagi nisbiy tezligini aniqlang.

Javob: $c_1 = 312$ m/s; $u = 179$ m/s; $w_1 = 152$ m/s.

1.13 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,8$ MPa va harorati $t_0 = 400$ °C dan $p_1 = 1,7$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,955$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$ ga, disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 18^\circ$ ga va kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligini aniqlang.

Javob: $w_2 = 265$ m/s.

1.14 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,0$ MPa va harorati $t_0 = 350$ °C dan $p_2 = 1,4$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlik $u = 170$ m/s ga, disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 17^\circ$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$ ga va pog'onaning reaktivlik darajasi

$\rho = 0,45$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligini aniqlang.

Javob: $w_2 = 294 \text{ m/s}$.

1.15 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,6 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 450 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $p_1 = 1,0 \text{ MPa}$ gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,945$ ga, disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 18^\circ$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$ ga, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 23^\circ$ va kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi absolyut tezligini aniqlang.

Javob: $c_2 = 104,5 \text{ m/s}$.

1.16 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 3,0 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 450 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $p_1 = 1,8 \text{ MPa}$ gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$ ga, disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 17^\circ$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$ ga, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,95 \text{ m}$, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 50 \text{ ayl/s}$ ga bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 3^\circ$ va soplo kanallari oldidagi bug'ning boshlang'ich tezligi $c_0 = 150 \text{ m/s}$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi absolyut tezligini aniqlang.

Javob: $c_2 = 235 \text{ m/s}$.

1.17 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,4 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 360 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $p_1 = 1,6 \text{ MPa}$ gacha kengaymoqda. Agar soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$ ga, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi $w_2 = 350 \text{ m/s}$

ga, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 21^\circ 30'$ va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,48$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi absolyut tezligini aniqlang.

Javob: $c_2 = 221 \text{ m/s}$.

1.18 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 3,0 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 400^\circ \text{C}$ dan $p_1 = 1,7 \text{ MPa}$ gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,94$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 1,0 \text{ m}$, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3000 \text{ ayl/min}$ ga, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi uning kirish burchagiga teng $\beta_2 = \beta_1$ va soplo kanallari oldidagi bug'ning boshlang'ich tezligi $c_0 = 155 \text{ m/s}$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy va absolyut tezliklarini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan bug'ning boshlang'ich parametrlaridagi entalpiyasi $i_0 = 3235 \text{ kJ/kg}$ va adiabatik kengayishdan keyingi entalpiyasini

$$i_1 = 3080 \text{ kJ/kg topamiz (1.3 – rasm)}.$$

Soplodan chiqishdagi bug'ning haqiqiy tezligini (1.1) formuladan topamiz:


$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1)(1 - \rho) + \frac{c_0^2}{2000}} = 44,7 \cdot 0,94 \cdot \sqrt{(3235 - 3080) \cdot (1 - 0) + \frac{155^2}{2000}} = 543 \text{ m/s}.$$

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni (1.4) formuladan topamiz:

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60} = \frac{3,14 \cdot 1 \cdot 3000}{60} = 157 \text{ m/s}.$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishdagi nisbiy tezligini (1.5) formuladan aniqlaymiz:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{543^2 + 157^2 - 2 \cdot 543 \cdot 157 \cdot 0,961} = 395 \text{ m/s}.$$



1.3 – rasm.

Bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi (1.6) formula yordamida aniqlanadi:

$$w_2 = \psi \cdot w_1 = 0,88 \cdot 395 = 348 \text{ m/s}.$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishidagi β_1 – burchagi (1.9) tenglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u} = \frac{543 \cdot 0,276}{543 \cdot 0,961 - 157} = 0,411, \quad \beta_1 = 22^\circ 20'$$

Bug'ning ishchi kuraklaridan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 = 22^\circ 20'$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligini (m/s) (1.8) formuladan aniqlaymiz:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{348^2 + 157^2 - 2 \cdot 348 \cdot 157 \cdot 0,925} = 212 \text{ m/s}.$$

1.19 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,0$ MPa va harorati $t_0 = 350$ °C dan $p_1 = 1,5$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,945$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,9$ ga, disk yassiligiga nisbatan soplning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$ ga, bug'ning ishchi kuragiga kirish burchagi $\beta_1 = 23^\circ$ ga va

ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 3^\circ$ ga teng bo'lsa, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy va absolyut tezliklarini aniqlang.

Javob: $w_2 = 188 \text{ m/s}$; $c_2 = 66,5 \text{ m/s}$.

1.20 – masala. Aktiv turdagi pog'onada bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$ va harorati $t_0 = 410^\circ \text{C}$ dan $p_1 = 2,2 \text{ MPa}$ gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 15^\circ$ ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,43$ ga va bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ 30'$ ga teng bo'lsa, tezliklar uchburchagini quring.

Yechish: iS – diagrammadan bug'ning boshlang'ich parametrlaridagi entalpiyasi $i_0 = 3250 \text{ kJ/kg}$ va adiabatik kengayishdan keyingi entalpiyasini $i_1 = 3115 \text{ kJ/kg}$ topamiz (1.4 – rasm).

Soplodan chiqishdagi bug'ning haqiqiy tezligini (1.2) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1)} = 44,7 \cdot 0,95 \cdot \sqrt{(3250 - 3115)} = 493 \text{ m/s}.$$

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni $u/c_1 = 0,43$ ga binoan topamiz:

$$u = 0,43 \cdot c_1 = 0,43 \cdot 493 = 212 \text{ m/s}.$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishdagi nisbiy tezligini (1.5) formuladan aniqlaymiz:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{493^2 + 212^2 - 2 \cdot 493 \cdot 212 \cdot 0,966} = 293 \text{ m/s}.$$

Bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi (1.6) formula yordamida aniqlanadi:

$$w_2 = \psi \cdot w_1 = 0,87 \cdot 293 = 255 \text{ m/s}.$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishidagi β_1 – burchagi (1.9) tenglamadan aniqlanadi:


$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u} = \frac{493 \cdot 0,259}{493 \cdot 0,966 - 212} = 0,481, \quad \beta_1 = 25^\circ 40'$$

Bug'ning ishchi kuraklaridan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ 20' = 25^\circ 40' - 2^\circ 30' = 23^\circ 10'.$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligini (m/s) (1.8) formuladan aniqlaymiz:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{255^2 + 212^2 - 2 \cdot 255 \cdot 212 \cdot 0,919} = 103 \text{ m/s}.$$




1.4 – rasm.

Bug'ning ishchi kurak kanallari oralig'idan absolyut tezlik bilan chiqishdagi qiyalik burchagi α_2 ni (1.10) formuladan topiladi:

$$\cos \alpha_2 = \frac{w_2 \cdot \cos \beta_2 - u}{c_2} = \frac{255 \cdot 0,919 - 212}{103} = 0,213; \quad \alpha_2 = 77^\circ 40'.$$

Ushbu hisob natijalariga asoslanib quriladigan tezliklar uchburchaklari 1.5 – rasmda tasvirlangan.



1.5 – rasm.

1.21 – masala. Aktiv turdagi pog‘onada bug‘ boshlang‘ich bosimi $p_0 = 2,4$ MPa va harorati $t_0 = 390$ °C dan $p_1 = 1,3$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, pog‘onaning o‘rtacha diametri $d = 1,0$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3600$ ayl/min ga, bug‘ning ishchi kuragiga kirish burchagi $\beta_1 = 22^\circ$ ga va ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ$ ga teng bo‘lsa, bug‘ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy va absolyut tezliklarini aniqlang va tezliklar uchburchagini quring.


Javob: $w_2 = 352$ m/s; $c_2 = 186$ m/s.

1.22 – masala. Reaktiv turdagi pog‘onada bug‘ boshlang‘ich bosimi $p_0 = 2,6$ MPa va harorati $t_0 = 470$ °C dan $p_2 = 1,9$ MPa gacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,965$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, kuraklar o‘rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug‘ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$ ga, bug‘ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ 30'$ ga va pog‘onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng bo‘lsa, tezliklar uchburchagini quring.

Yechish: iS – diagrammadan bug‘ning boshlang‘ich parametrlaridagi entalpiyasi $i_0 = 3400$ kJ/kg va adiabatik kengayishdan keyingi entalpiyasini $i_1 = 3290$ kJ/kg topamiz (1.6 – rasm).

Soplodan chiqishdagi bug‘ning haqiqiy tezligini (1.2) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1) \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,965 \cdot \sqrt{(3400 - 3290) \cdot (1 - 0,5)} = 320 \text{ m/s.}$$



1.6 – rasm.

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni $u/c_1 = 0,44$ ga binoan topamiz:

$$u = 0,44 \cdot c_1 = 0,44 \cdot 320 = 141 \text{ m/s.}$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishdagi nisbiy tezligini (1.5) formuladan aniqlaymiz:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{320^2 + 141^2 - 2 \cdot 320 \cdot 141 \cdot 0,961} = 188 \text{ m/s.}$$

Bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi (1.7) formula yordamida aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot (i_0 - i_1) + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} = 44,7 \cdot 0,88 \cdot \sqrt{0,5 \cdot (3400 - 3290) + \left(\frac{188}{44,7}\right)^2} = 335 \text{ m/s}$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishidagi β_1 – burchagi (1.9) tenglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u} = \frac{320 \cdot 0,276}{320 \cdot 0,961 - 141} = 0,530, \quad \beta_1 = 27^\circ 50'$$

Bug'ning ishchi kuraklaridan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ 30' = 27^\circ 50' - 2^\circ 30' = 25^\circ 20'.$$


Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligini (m/s) (1.8) formuladan aniqlaymiz:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{335^2 + 141^2 - 2 \cdot 335 \cdot 141 \cdot 0,904} = 216 \text{ m/s.}$$

Bug'ning ishchi kurak kanallari oralig'idan absolyut tezlik bilan chiqishdagi qiyalik burchagi α_2 ni (1.10) formuladan topiladi:

$$\cos \alpha_2 = \frac{w_2 \cdot \cos \beta_2 - u}{c_2} = \frac{335 \cdot 0,904 - 141}{213} = 0,749; \quad \alpha_2 = 41^\circ 30'.$$

Ushbu hisob natijalariga asoslanib quriladigan tezliklar uchburchaklari 1.7 – rasmda tasvirlangan.



1.7 – rasm.

1.23 – masala. Aktiv turdagi pog'onada 1 kg bug'ning bajargan ishini aniqlang. Bunda disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,9$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3600$ ayl/min ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$ ga, bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi $w_2 = 210$ m/s, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 21^\circ$ ga va bug'ning ishchi kurak kanallari oralig'idan absolyut tezlik bilan chiqishdagi qiyalik burchagi $\alpha_2 = 72^\circ$ deb hisoblansin.

Javob: L = 68 kJ/kg.

1.24 – masala. Aktiv turdagi pog'onada 1 kg bug'ning bajargan ishini aniqlang. Bunda pog'onadagi bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,6$ MPa va harorati $t_0 = 450$ °C dan $p_1 = 1,0$ MPa gacha kengayadi, hamda soplarning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,955$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,9$ ga, disk yassiligiga nisbatan soplarning qiyalik burchagi $\alpha_1 = 17^\circ$ ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,435$ ga, bug'ning ishchi kuragiga kirish burchagi $\beta_1 = 21^\circ$ ga va

bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ 30'$ ga teng deb hisoblansin.

Javob: $L = 122,3$ kJ/kg.

1.25 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada 1 kg bug'ning bajargan ishini aniqlang. Bunda pog'onadagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 256$ kJ/kg, soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, pog'onaning o'rtacha diametri $d=1,0$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3600$ ayl/min ga, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2=20^\circ$ ga va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng deb hisoblansin.

Javob: $L = 128,4$ kJ/kg.

1.26 – masala. Reaktiv turdagi pog'onada 1 kg bug'ning bajargan ishini aniqlang. Bunda pog'onadagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 240$ kJ/kg, soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$ ga, kurakning tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,9$ ga, disk yassiligiga nisbatan soploneg qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$ ga, kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikning soplo kanalidan oqib chiqayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$ ga, bug'ning ishchi kurak kanallariga kirishdagi nisbiy tezligi $w_1 = 260$ m/s, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ$ ga va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,48$ ga teng deb hisoblansin.

Yechish: Soplodan chiqishdagi bug'ning haqiqiy tezligini (1.2) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{h_0 \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{240 \cdot (1 - 0,48)} = 478 \text{ m/s.}$$

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni $u/c_1 = 0,44$ ga binoan topamiz:

$$u = 0,44 \cdot c_1 = 0,44 \cdot 478 = 210 \text{ m/s.}$$

Bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi (1.7) formula yordamida aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot h_0 + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} = 44,7 \cdot 0,9 \cdot \sqrt{0,48 \cdot 240 + \left(\frac{260}{44,7}\right)^2} = 491 \text{ m/s}$$

Bug'ning ishchi kuragiga kirishidagi β_1 – burchagi (1.9) tenglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u} = \frac{478 \cdot 0,276}{478 \cdot 0,961 - 210} = 0,529, \quad \beta_1 = 27^\circ 45'$$

Bug'ning ishchi kuraklaridan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ = 27^\circ 45' - 2^\circ = 25^\circ 45'$$

Pog'ona kuraklarida 1 kg bug'ning bajargan ishi (kJ/kg) (11) formuladan aniqlanadi:

$$L = u \cdot (w_1 \cdot \cos \beta_1 + w_2 \cdot \cos \beta_2) = 210 \cdot (260 \cdot 0,885 + 491 \cdot 0,901) = 141,2 \text{ kJ/kg.}$$

1.2. BUG' TURBINASIGA BUG' SARFINI ANIQLASH

Turbina pog'onasida yuz beradigan issiqlik energiyasi isroflari. Turbina pog'onasida hosil qilinadigan ish jarayoni davomida bug'ning issiqlik energiyasini isrof bo'lishi kuzatiladi. Bu issiqlik isroflariga quyidagilar misol bo'la oladi:

turbina pog'onasining soplosida bug'ni uyurmaviy harakati va ishqalanishi hisobiga issiqlik energiyasining isrofi (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1\right) \cdot \frac{c_1^2}{2000}; \quad (1.12)$$

aktiv turbina pog'onasining ishchi kuraklarida issiqlik energiyasining isrofi (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_k = (1 - \psi^2) \cdot \frac{w_1^2}{2000}; \quad (1.13)$$

reaktiv turbina pog'onasining ishchi kuraklarida issiqlik energiyasining isrofi (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_k = \left(\frac{1}{\psi^2} - 1\right) \cdot \frac{w_2^2}{2000}; \quad (1.14)$$

absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofi (kJ/kg):

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000}; \quad (1.15)$$

turbina diskining bugʻli muhitda aylanishida muhit va disk oʻrtasida ishqalanish va ventilyatsiya tufayli issiqlik isrofi A. Stodola formulasiga koʻra aniqlanadi:

$$h_{i,v} = \lambda \cdot [1,07 \cdot d^2 + 0,61 \cdot z \cdot (1 - \varepsilon) \cdot d \cdot l_2^{1,5}] \cdot \frac{1}{v} \cdot \frac{u^3}{10^6} \cdot \frac{1}{M}, \quad (1.16)$$

bu yerda λ – oʻta qizigan bugʻ uchun 1,1 ÷ 1,2 ga, toʻyingan bugʻ uchun 1,3 ga teng boʻlgan koeffitsiyent; d – pogʻonaning oʻrtacha diametri, m; z – ishchi gʻildiragidagi tezlik pogʻonalari soni; ε – bugʻning kirishdagi parsiallik darajasi; l_2 – ishchi kuragining chiqish balandligi, sm; v – pogʻona kamerasidagi bugʻning solishtirma hajmi, m³/kg; M – pogʻona orqali bugʻ sarfi, kg/s; zichlama tirqishlari, soplo va kuraklarni aylanib oʻtish joylari orqali bugʻ sarfi tufayli issiqlik energiyasi isrofi (kJ/kg):

$$h_{b,s} = \frac{M_{b,s} \cdot h_0}{M}; \quad (1.17)$$

bu yerda $M_{b,s}$ – bugʻ isrofi, kg/s.

Turbina pogʻonalarining foydali ish koeffitsiyenti. Turbina pogʻonasining soplosidagi, ishchi kuragidagi va absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isroflari pogʻona ishchi kuraklarining nisbiy foydali ish koeffitsiyentini $\eta_{n.k.}$ belgilaydi va 1 kg bugʻning turbina pogʻonasida bajargan L mexanik ishini pogʻonaning umumiy koʻzda tutilgan issiqlik tushishiga h_0 nisbatidan topiladi:

$$\eta_{n.k.} = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch})}{h_0} = \frac{L}{h_0}. \quad (1.18)$$

Shuningdek, ishchi kuraklaridagi nisbiy foydali ish koeffitsiyentining maqbul koʻrsatkichi kuraklar oraligʻidagi aylanma tezlikning soplodan oqib oʻtayotgan bugʻning haqiqiy tezligiga nisbatiga u/c_1 ham bogʻliq, demak aktiv pogʻona uchun ishchi kuraklarining nisbiy f.i.k.:

$$\eta_{n.k.} = 2\varphi^2 \cdot \left(\frac{u}{c_1}\right) \cdot \left(1 + \psi \frac{\cos \beta_2}{\cos \beta_1}\right) \cdot \left(\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right). \quad (1.19)$$

Reaktivlik darajasi $\rho=0,5$ bo'lgan reaktiv pog'onalarining ishchi kuraklarining nisbiy f.i.k.i:

$$\eta_{n.k.} = \left(\frac{u}{c_1}\right) \cdot \frac{\left(2 \cdot \cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right)}{\left[\left(\frac{1}{\varphi^2} - 1\right) + \left(\frac{u}{c_1}\right) \cdot \left(2 \cdot \cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right)\right]} \quad (1.20)$$

Pog'onadagi issiqlik isroflari pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini baholaydi va pog'onadagi foydali issiqlik tushishining ko'zda tutilgan issiqlik tushishiga nisbatidan aniqlanadi, ya'ni:

$$\eta_{n.i}^p = \frac{h_i}{h_0} = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch} - h_{i.v.} - h_{b.s.})}{h_0} \quad (1.21)$$

Aktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.i:

$$\eta_{ni}^p = \eta_{n.k.} - \zeta_{i.v.} - \zeta_{b.s.} = 2\varphi^2 \cdot \left(\frac{u}{c_1}\right) \cdot \left(1 + \psi \frac{\cos \beta_2}{\cos \beta_1}\right) \cdot \left(\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right) - \zeta_{i.v.} - \zeta_{b.s.} \quad (1.22)$$

bu yerda $\zeta_{i.v.} = h_{i.v.}/h_0$ – turбина diskini bug'li muhitda aylanishi tufayli ishqalanish va ventilyatsiyaga nisbiy issiqlik energiyasi isrofi; $\zeta_{b.s.} = h_{b.s.}/h_0$ – zichlama tirqishlari, soplo va kuraklarni aylanib o'tishda bug' sarfi tufayli nisbiy issiqlik energiyasi isrofi;

Reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ bo'lgan reaktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.i:

$$\eta_{ni}^p = \frac{\left(\frac{u}{c_1}\right) \cdot \left(2 \cdot \cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right)}{\left[\left(\frac{1}{\varphi^2} - 1\right) + \left(\frac{u}{c_1}\right) \cdot \left(2 \cdot \cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right)\right]} - \zeta_{i.v.} - \zeta_{b.s.} \quad (1.23)$$

Agar pog'onada oldingi pog'onadan chiqish tezligining energiyasidan foydalanilayotgan bo'lsa, unda pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.i quyidagi formuladan topiladi:

$$\eta_{ni}^p = \frac{[\mu \cdot h_{ch}^{old} + h_0 - (h_s + h_k + h_{ch} + h_{i.v.} + h_{b.s.})]}{\mu \cdot h_{ch}^{old} + h_0} \quad (1.24)$$

bu yerda $h_{ch}^{old} = \frac{c_{old}^2}{2000}$ – oldingi pog'onadan chiqish tezligining issiqlik energiyasi,

kJ/kg ; $\mu = 0,8 \div 1,0$ – ishchi kuragidan chiqish tezligi energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti.

1.27 – masala. Aktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5$ MPa bosim va $t_0 = 410$ °C haroratdan $p_1 = 2,2$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffisienti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,87$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 15^\circ$ va kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,43$ ga teng bo'lsa, soplo va kuraklardagi issiqlik energiyasi isrofi aniqlansin.

Javob: $h_s = 13,1$ kJ/kg; $h_k = 10,4$ kJ/kg.

1.28 – masala. Reaktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari $p_0 = 1,6$ MPa bosim va $t_0 = 300$ °C haroratdan $p_2 = 1,0$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffisienti $\varphi = 0,94$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,89$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$ va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng bo'lsa, soplo va kuraklardagi issiqlik energiyasi isrofi aniqlansin.

Javob: $h_s = 6,4$ kJ/kg; $h_k = 4,4$ kJ/kg.

1.29 – masala. Agar turbina pog'onasidagi soplodan bug'ning oqib o'tishdagi haqiqiy tezligi $c_1 = 375$ m/s, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,87$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 13^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$ va bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 23^\circ 15'$ ga teng bo'lsa aktiv pog'onadan absolyut chiqish tezligi tufayli issiqlik energiyasi isrofini aniqlang.

Javob: $h_{ch} = 2,6$ kJ/kg.

1.30 – masala. Agar turbina pog'onasidagi soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,97$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,86$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 14^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,8$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3600$ ayl/min, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$ va bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 22^\circ$ ga teng bo'lsa aktiv pog'onaning soplosidagi, ishchi kuraklaridagi va pog'onadan absolyut chiqish tezligi tufayli issiqlik energiyasi isroflarini aniqlang.

Yechish: Ishchi kuraklari oralig'idagi aylanma tezlikni (1.4) formuladan aniqlaymiz:

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60} = \frac{3,14 \cdot 0,8 \cdot 3600}{60} = 151 \text{ m/s.}$$

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligi – $u/c_1 = 0,44$ munosabatga ko'ra:

$$c_1 = u/0,44 = 151/0,44 = 343 \text{ m/s.}$$

Soplodagi issiqlik energiyasi isrofi (1.12) – formuladan:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1 \right) \cdot \frac{c_1^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,97^2} - 1 \right) \cdot \frac{343^2}{2000} = 3,7 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi kuraklariga kirishdagi bug'ning nisbiy tezligi (1.5) – formuladan topiladi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{343^2 + 151^2 - 2 \cdot 343 \cdot 151 \cdot 0,97} = 200 \text{ m/s.}$$

Ishchi kuraklaridagi issiqlik energiyasi isrofi – (1.13) formulaga ko'ra:

$$h_k = (1 - \psi^2) \cdot \frac{w_1^2}{2000} = (1 - 0,86^2) \cdot \frac{200^2}{2000} = 5,2 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning nisbiy tezligi – (1.6) formuladan:

$$w_2 = \psi \cdot w_1 = 0,86 \cdot 200 = 172 \text{ m/s.}$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligi – (1.8) formuladan:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{172^2 + 151^2 - 2 \cdot 172 \cdot 151 \cdot 0,927} = 65 \text{ m/s.}$$

Absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofini (kJ/kg) (1.15) formuladan aniqlaymiz:

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000} = \frac{65^2}{2000} = 2,1 \text{ kJ / kg.}$$

1.31 – masala. Agar turbina pog'onasi soplosiga kirayotgan bug'ning entalpiyasi $i_0 = 3400 \text{ kJ/kg}$, soplo kanalidan chiqayotgan bug'ning entalpiyasi $i_1 = 3250 \text{ kJ/kg}$, soploning tezlik koeffisienti $\varphi = 0,96$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,9$, soploning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 15^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,49$, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 24^\circ$ va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,48$ ga teng bo'lsa reaktiv pog'onaning soplosidagi, ishchi kuraklaridagi va pog'onadan absolyut chiqish tezligi tufayli issiqlik energiyasi isroflarini aniqlang.

Javob: $h_s = 6,1 \text{ kJ/kg}$; $h_k = 4,2 \text{ kJ/kg}$; $h_{ch} = 27,6 \text{ kJ/kg}$.

1.32 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 160 \text{ kJ/kg}$, soploning tezlik koeffisienti $\varphi = 0,96$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,88$, soploning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlik $u = 188 \text{ m/s}$ va bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 1^\circ 20'$ ga teng bo'lsa aktiv pog'ona ishchi kuraklaridagi nisbiy foydali ish koeffisientini aniqlang.

Javob: $\eta_{n.k.} = 0,746$.

1.33 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 130 \text{ kJ/kg}$, soploning tezlik koeffisienti $\varphi = 0,96$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,91$, soploning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,5$, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 20^\circ$ va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,42$ ga teng bo'lsa – reaktiv pog'ona ishchi kuraklaridagi nisbiy foydali ish koeffisientini aniqlang.

Yechish: Soplodan chiqishdagi bug'ning haqiqiy tezligini (1.2) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{h_0 \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{130 \cdot (1 - 0,42)} = 373 \text{ m/s.}$$

Soplodagi issiqlik energiyasi isrofi (1.12) – formuladan:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1 \right) \cdot \frac{c_1^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,96^2} - 1 \right) \cdot \frac{373^2}{2000} = 6,0 \text{ kJ/kg.}$$

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni $u/c_1 = 0,5$ munosabatga binoan topamiz:

$$u = 0,5 \cdot c_1 = 0,5 \cdot 373 = 186,5 \text{ m/s.}$$

Ishchi kuraklariga kirishdagi bug'ning nisbiy tezligi (1.5) formuladan topiladi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{373^2 + 186,5^2 - 2 \cdot 373 \cdot 186,5 \cdot 0,974} = 196 \text{ m/s.}$$

Bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi (1.7) formula yordamida aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot h_0 + \left(\frac{w_1}{44,7} \right)^2} = 44,7 \cdot 0,91 \cdot \sqrt{0,42 \cdot 130 + \left(\frac{196}{44,7} \right)^2} = 349 \text{ m/s.}$$

Ishchi kuraklaridagi issiqlik energiyasi isrofi (1.14) – formuladan:

$$h_k = \left(\frac{1}{\psi^2} - 1 \right) \cdot \frac{w_2^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,91^2} - 1 \right) \cdot \frac{349^2}{2000} = 12,6 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligini (m/s) (1.8) formuladan aniqlaymiz:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{349^2 + 186,5^2 - 2 \cdot 349 \cdot 186,5 \cdot 0,94} = 185 \text{ m/s.}$$

Absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofini (kJ/kg) (1.15) formuladan aniqlaymiz:

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000} = \frac{185^2}{2000} = 17,1 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi kuraklaridagi nisbiy foydali ish koeffitsiyentini – (1.18) formuladan

$$\eta_{n.k.} = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch})}{h_0} = \frac{(130 - 6,0 - 12,6 - 17,1)}{130} = 0,725.$$

1.34 – masala. Aktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5$ MPa bosim va $t_0 = 450$ °C haroratdan $p_1 = 2,0$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina soplosining tezlik koeffisiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,9$, soploning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 14^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,5$ va bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ$ ga teng bo'lsa aktiv pog'ona ishchi kuraklaridagi nisbiy foydali ish koeffisiyentini aniqlang.

Javob: $\eta_{n.k.} = 0,803$.

1.35 – masala. Agar turbina pog'onasida soploning tezlik koeffisiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,87$, soploning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 13^\circ$ va bug'ning ishchi kuragidan kirish burchagi $\beta_1 = \beta_2 + 1^\circ$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$ dan $0,4$ gacha pasayganda aktiv pog'ona ishchi kuraklaridagi nisbiy foydali ish koeffisiyenti qanchaga kamayishini aniqlang.

Yechish: $u/c_1 = 0,45$ ga teng bo'lganda bug'ning ishchi kuragiga kirish burchagini (1.9) formuladan aniqlaymiz:

$$tg\beta_1 = \frac{\sin \alpha_1}{\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}} = \frac{0,225}{0,974 - 0,45} = 0,429, \quad \beta_1 = 23^\circ 12'$$

Demak $u/c_1 = 0,45$ ga teng bo'lganda bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 - 1^\circ = 23^\circ 12' - 1^\circ = 22^\circ 12'.$$

$u/c_1 = 0,4$ ga teng bo'lganda bug'ning ishchi kuragiga kirish burchagini (1.9) formuladan aniqlasak:

$$tg\beta_1 = \frac{\sin \alpha_1}{\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}} = \frac{0,225}{0,974 - 0,4} = 0,392, \quad \beta_1 = 21^\circ 24'$$

Demak $u/c_1 = 0,4$ ga teng bo'lganda bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 - 1^\circ = 21^\circ 24' - 1^\circ = 20^\circ 24'.$$

Ishchi kuraklarining nisbiy f.i.k.larini (1.19) formuladan aniqlaymiz:

$u/c_1 = 0,45$ ga teng bo'lganda:

$$\eta_{n.k.1} = 2\varphi^2 \left(\frac{u}{c_1} \right) \left(1 + \psi \frac{\cos \beta_2}{\cos \beta_1} \right) \left(\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1} \right) = 2 \cdot 0,95^2 \cdot 0,45 \cdot \left(1 + 0,87 \frac{0,9259}{0,9191} \right) (0,974 - 0,45) = 0,798$$

$u/c_1 = 0,4$ ga teng bo'lganda:

$$\eta_{n.k.2} = 2\varphi^2 \left(\frac{u}{c_1} \right) \left(1 + \psi \frac{\cos \beta_2}{\cos \beta_1} \right) \left(\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1} \right) = 2 \cdot 0,95^2 \cdot 0,4 \left(1 + 0,87 \cdot \frac{0,9373}{0,9311} \right) (0,974 - 0,4) = 0,777$$

Ishchi kuraklaridagi nisbiy f.i.k. kamayishini aniqlaymiz:

$$\left(\frac{\eta_{n.k.1} - \eta_{n.k.2}}{\eta_{n.k.1}} \right) \cdot 100 = \left(\frac{0,798 - 0,777}{0,798} \right) \cdot 100 = 2,6 \quad \%$$

1.36 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 100 \text{ kJ/kg}$, disk aylanayotgan kameradagi bosim $p = 1,0 \text{ MPa}$ va harorat $t = 300 \text{ }^\circ\text{C}$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 1,1 \text{ m}$, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 50 \text{ ayl/s}$, ishchi kuragining chiqish balandligi $l_2 = 0,03 \text{ m}$, bug'ning kirishdagi partiiallik darajasi $\varepsilon = 0,4$, koeffitsiyent $\lambda = 1,1$, bug' sarfi $M = 25 \text{ kg/s}$ va isrof bo'layotgan bug'sarfi $M_{b,s} = 0,8 \text{ kg/s}$ ga teng bo'lsa – aktiv pog'onada ishqalanish, ventilyatsiya va bug' isrofi tufayli issiqlik energiyalari isroflarini aniqlang.

Javob: $h_{i,v.} = 2,8 \text{ kJ/kg}$; $h_{b,s} = 3,2 \text{ kJ/kg}$.

1.37 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 100 \text{ kJ/kg}$, soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,94$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 18^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,95 \text{ m}$, turbina valining aylanishlar chastotasi

$n=3600$ ayl/min, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 20^\circ 20'$, pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,45$, bug' sarfi $M = 22$ kg/s va isrof bo'layotgan bug'sarfi $M_{b,s} = 0,4$ kg/s ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, hamda ishqalanish va ventilyatsiyaga bug' isrofi e'tiborga olinmasa reaktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini aniqlang.

Javob: $\eta_{oi}^p = 0,7$.

1.38 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 80$ kJ/kg, soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,88$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 14^\circ$, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 23^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 1,1$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3000$ ayl/min, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,455$, ishchi kuragining chiqish balandligi $l_2 = 0,03$ m, bug'ning kirishdagi partsiiallik darajasi $\varepsilon = 0,4$, koeffitsiyent $\lambda = 1,2$, bug' sarfi $M = 30$ kg/s va isrof bo'layotgan bug'sarfi $M_{b,s} = 1,0$ kg/s ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, hamda ishchi kurak aylanayotgan kameradagi bug' parametrlari: $p = 1,1$ MPa, $t = 320$ °C bo'lsa aktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini aniqlang.

Yechish: Ishchi kuraklari oralig'idagi aylanma tezlikni (1.4) formuladan aniqlaymiz:

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60} = \frac{3,14 \cdot 1,1 \cdot 3000}{60} = 173 \text{ m/s}.$$

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligi – $u/c_1 = 0,455$ munosabatga binoan quyidagicha aniqlanadi:

$$c_1 = \frac{u}{0,455} = \frac{173}{0,455} = 380 \text{ m/s}.$$

Soplodagi issiqlik energiyasi isrofi (1.12) formulaga ko'ra:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1 \right) \cdot \frac{c_1^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,95^2} - 1 \right) \cdot \frac{380^2}{2000} = 7,8 \text{ kJ/kg}.$$

Ishchi kuraklariga kirishdagi bug'ning nisbiy tezligi (1.5) – formuladan topiladi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{380^2 + 173^2 - 2 \cdot 380 \cdot 173 \cdot 0,97} = 216 \text{ m/s.}$$

Ishchi kuraklaridagi issiqlik energiyasi isrofi (1.13) formulaga ko'ra:

$$h_k = (1 - \psi^2) \cdot \frac{w_1^2}{2000} = (1 - 0,88^2) \cdot \frac{216^2}{2000} = 5,3 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning nisbiy tezligi (1.6) formuladan:

$$w_2 = \psi \cdot w_1 = 0,88 \cdot 216 = 190 \text{ m/s.}$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligi – (1.8) formuladan:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{190^2 + 173^2 - 2 \cdot 190 \cdot 173 \cdot 0,92} = 74 \text{ m/s.}$$

Absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofini (kJ/kg) (1.15) formuladan aniqlaymiz:

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000} = \frac{74^2}{2000} = 2,7 \text{ kJ/kg.}$$

$p = 1,1 \text{ MPa}$ va $t = 320 \text{ }^\circ\text{C}$ bo'lgan hol uchun pog'ona kamerasidagi bug'ning solishtirma hajmini iS – diagrammasidan topamiz:

$$v = 0,25 \text{ m}^3/\text{kg.}$$

Turbina diskining bug'li muhitda aylanishida muhit va disk o'rtasida ishqalanish va ventilyatsiya tufayli issiqlik isrofi (1.16) – formulaga ko'ra:

$$h_{i,v} = \lambda \cdot [1,07 \cdot d^2 + 0,61 \cdot z \cdot (1 - \varepsilon) \cdot d \cdot l_2^{1,5}] \cdot \frac{1}{v} \cdot \frac{u^3}{10^6} \cdot \frac{1}{M} =$$

$$1,2 \cdot [1,07 \cdot 1,1^2 + 0,61 \cdot 1 \cdot (1 - 0,4) \cdot 1,1 \cdot 3^{1,5}] \cdot \frac{1}{0,25} \cdot \frac{173^3}{10^6} \cdot \frac{1}{30} = 2,7 \text{ kJ/kg.}$$

Zichlama tirqishlari, soplo va kuraklarni aylanib o'tish joylari orqali bug' sarfi tufayli issiqlik energiyasi isrofi (kJ/kg) (1.17) formuladan topiladi:

$$h_{b,s} = \frac{M_{b,s} \cdot h_0}{M} = \frac{1 \cdot 80}{30} = 2,7 \text{ kJ/kg.}$$

Pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini (1.21) formuladan quyidagicha topamiz:

$$\eta_{o.i}^p = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch} - h_{i.v.} - h_{b.s.})}{h_0} = \frac{(80 - 7,3 - 5,3 - 2,7 - 2,7 - 2,7)}{80} = 0,735.$$

1.39 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 100 \text{ kJ/kg}$, soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 13^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,5$, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 1^\circ$, ishqalanish va ventilyatsiya tufayli issiqlik energiyasi isrofi $h_{i.v.} = 1,3 \text{ kJ/kg}$, bug' sarfi $M = 30 \text{ kg/s}$ va isrof bo'layotgan bug' sarfi $M_{b.s.} = 0,36 \text{ kg/s}$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa – aktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini aniqlang.

Yechish: Ishchi kuraklari oralig'iga bug'ning kirish burchagini (1.9) formuladan aniqlaymiz:

$$\operatorname{tg}\beta_1 = \frac{\sin \alpha_1}{\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}} = \frac{0,225}{0,974 - 0,5} = 0,475, \quad \beta_1 = 25^\circ 24'.$$

Bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi:

$$\beta_2 = \beta_1 - 1^\circ = 25^\circ 24' - 1^\circ = 24^\circ 24'.$$

Turbina diskini bug'li muhitda aylanishi tufayli ishqalanish va ventilyatsiyaga nisbiy issiqlik energiyasi isrofi:

$$\zeta_{i.v.} = h_{i.v.}/h_0 = 1,3/100 = 0,013.$$

Zichlama tirqishlari, soplo va kuraklarni aylanib o'tish joylari orqali bug' sarfi tufayli issiqlik energiyasi isrofi (kJ/kg) (1.17) formuladan topiladi:

$$h_{b.s.} = \frac{M_{b.s.} \cdot h_0}{M} = \frac{0,36 \cdot 100}{30} = 1,2 \text{ kJ/kg}.$$

Zichlama tirqishlari, soplo va kuraklarni aylanib o'tishda bug' sarfi tufayli nisbiy issiqlik energiyasi isrofi:

$$\zeta_{b.s.} = h_{b.s.}/h_0 = 1,2/100 = 0,012.$$

Ko'rilayotgan pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini (1.22) formuladan aniqlaymiz:

$$\eta_{oi}^p = 2\varphi^2 \cdot \left(\frac{u}{c_1}\right) \left(1 + \psi \frac{\cos \beta_2}{\cos \beta_1}\right) \left(\cos \alpha_1 - \frac{u}{c_1}\right) - \zeta_{i.v.} - \zeta_{b.s.} =$$

$$2 \cdot 0,95^2 \cdot 0,5 \cdot \left(1 + 0,87 \cdot \frac{0,9107}{0,9033}\right) (0,974 - 0,5) - 0,013 - 0,012 = 0,7$$

1.40 – masala. Agar turbina pog'onasidagi soplning tezlik koeffisiyenti $\varphi = 0,94$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 14^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,43$, turbina diskini ishqalanish va ventilyatsiyaga nisbiy issiqlik energiyasi isrofi $\zeta_{i.v.} = 0,03$ va bug' sarfi tufayli nisbiy issiqlik energiyasi isrofi $\zeta_{b.s.} = 0,025$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ bo'lgan reaktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini aniqlang.


Javob: $\eta_{oi}^p = 0,776$.

1.41 – masala. Aktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari $p_0 = 2,4$ MPa bosim va $t_0 = 360$ °C haroratdan $p_1 = 1,4$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasi soplosining tezlik koeffisiyenti $\varphi = 0,96$, ishchi kuraklarining tezlik koeffisienti $\psi = 0,9$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlik $u = 245$ m/s, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 18^\circ 48'$, oldingi pog'onadan chiqish tezligi bilan hosil bo'layotgan issiqlik energiyasi $h_{ch}^{old} = 8$ kJ/kg, chiqish tezligi energiyasidan foydalanish koeffisiyenti $\mu = 1$, ishqalanish va ventilyatsiya tufayli issiqlik energiyasi isrofi $h_{i.v.} = 2,6$ kJ/kg va bug' sarfi tufayli issiqlik energiyasi isrofi $h_{b.s.} = 2,4$ kJ/kg ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan bug'ning boshlang'ich parametrlaridagi entalpiyasi $i_0 = 3162$ kJ/kg va adiabatik kengayishdan keyingi entalpiyasini $i_1 = 3010$ kJ/kg topamiz (1.8 – rasm).

Soplodan chiqishdagi bug'ning haqiqiy tezligini (1.2) formuladan topamiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1) + h_{ch}^{old}} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{(3162 - 3010) + 8} = 543 \text{ m/s.}$$



1.8 – rasm.

Soplodagi issiqlik energiyasi isrofi (1.12) formulaga ko'ra:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1 \right) \cdot \frac{c_1^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,96^2} - 1 \right) \cdot \frac{543^2}{2000} = 12,5 \text{ kJ/kg}.$$

Ishchi kuraklariga kirishdagi bug'ning nisbiy tezligi (1.5) – formuladan topiladi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{543^2 + 245^2 - 2 \cdot 543 \cdot 245 \cdot 0,961} = 315 \text{ m/s}.$$

Ishchi kuraklaridagi issiqlik energiyasi isrofi – (1.13) formulaga ko'ra:

$$h_k = (1 - \psi^2) \cdot \frac{w_1^2}{2000} = (1 - 0,9^2) \cdot \frac{315^2}{2000} = 9,4 \text{ kJ/kg}.$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning nisbiy tezligi – (1.6) formuladan:

$$w_2 = \psi \cdot w_1 = 0,9 \cdot 315 = 283,5 \text{ m/s}.$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan bug'ning absolyut tezligi – (1.8) formuladan:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{283,5^2 + 245^2 - 2 \cdot 283,5 \cdot 245 \cdot 0,95} = 93 \text{ m/s}.$$

Absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofini (kJ/kg) (1.15) formuladan aniqlaymiz:

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000} = \frac{93^2}{2000} = 4,3 \text{ kJ/kg.}$$

Pogʻonaning ichki nisbiy f.i.k.i (1.24) formuladan topiladi:

$$\eta_{oi}^p = \frac{[\mu \cdot h_{ch}^{old} + h_0 - (h_s + h_k + h_{ch} + h_{i.v} + h_{b.s})]}{\mu \cdot h_{ch}^{old} + h_0} = \frac{[1 \cdot 8 + 152 - (12,5 + 9,4 + 4,3 + 2,6 + 2,4)]}{1 \cdot 8 + 152} = 0,805$$

1.3. ROSTLANMAYDIGAN POGʻONANING ISSIQLIK HISOBI.

Soplo oʻlchamlari. Kengayuvchi soplning chiqish kesimi yuzasini (m^2) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$f_1 = \frac{M \cdot v_1}{\mu_1 \cdot c_1}, \quad (1.25)$$

bu yerda M – soplo orqali bugʻ sarfi, kg/s; v_1 – hisoblanayotgan kesimdagi bugʻning solishtirma hajmi, m^3/kg ; $\mu_1 = 0,92 \div 0,97$ – soplning sarf koeffitsiyenti.

Kengayuvchi soplning minimal kesim yuzasini (m^2) esa quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$f_{min} = \frac{M \cdot v_{kr}}{\mu_1 \cdot c_{kr}}, \quad (1.26)$$

bu yerda v_{kr} – kritik bosim p_{kr} sharoitida soplning minimal kesimidagi bugʻning solishtirma hajmi, m^3/kg ; c_{kr} – soplodan oqib oʻtayotgan bugʻning kritik tezligi boʻlib (1.1) va (1.2) formulalardan i_1 kattalik oʻrniga i_{kr} kattalik qiymatini qoʻyib hisoblash orqali aniqlanadi, m/s.

Soplodan oqib oʻtayotgan bugʻning kritik bosimi (Pa):

$$p_{kr} = \beta_{kr} \cdot p_0, \quad (1.27)$$

bu yerda β_{kr} – kritik bosimlar nisbati; oʻta qizigan bugʻ uchun $\beta_{kr} = 0,546$, quruq toʻyingan bugʻ uchun esa $\beta_{kr} = 0,577$ ga teng.

Torayuvchi soplning kritik oqim rejimigacha boʻlgan chiqish kesimi yuzasi (1.25) formuladan, kritik oqim rejimi uchun esa (1.26) formuladan aniqlanadi.

Ishchi kuraklarining oʻlchamlari: Ishchi kuraklarining chiqish kesimi yuzasini (m^2) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$f_2 = \frac{M \cdot v_2}{\mu_2 \cdot w_2}, \quad (1.28)$$

bu yerda v_2 – ishchi kuragidan chiqishdagi bug'ning solishtirma hajmi, m^3/kg ; $\mu_2 = 0,92 \div 0,97$ – ishchi kuragi uchun sarf koeffitsiyenti.

Ishchi kuraklarining chiqish balandligi (m) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$l_2 = \frac{f_2}{\pi \cdot d \cdot \varepsilon \cdot \sin \beta_2}, \quad (1.29)$$

1.42 – masala. Aktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,2$ MPa va harorati $t_0 = 300$ °C dan $p_1 = 0,7$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasi soplosining tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$, soplo orqali bug' sarfi $M = 2$ kg/s va soplone sarf koeffitsiyenti $\mu_1 = 0,95$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa torayuvchi soplone chiqish kesimi yuzasini aniqlang.

Javob: $f_1 = 1,38 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$.

1.43 – masala. Reaktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,0$ MPa va harorati $t_0 = 350$ °C dan $p_2 = 1,4$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasi soplosining tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, soplo orqali bug' sarfi $M = 1,2$ kg/s, soplone sarf koeffitsiyenti $\mu_1 = 0,95$ va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa – torayuvchi soplone chiqish kesimi yuzasini aniqlang.

Javob: $f_1 = 0,73 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$.

1.44 – masala. Aktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 3,5$ MPa va harorati $t_0 = 435$ °C dan $p_1 = 1,2$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasi soplosining tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, soplo orqali bug' sarfi $M = 2,1$ kg/s va soplone sarf koeffitsiyenti $\mu_1 = 0,96$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa – torayuvchi soplone chiqish kesimi yuzasini aniqlang.

Yechish: Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning kritik bosimini (Pa) (1.27) formuladan aniqlaymiz:

$$p_{kr} = \beta_{kr} \cdot p_0 = 0,546 \cdot 3,5 = 1,92 \text{ MPa}.$$

Demak p_1 bosim p_{kr} bosim qiymatidan kichik ekan. Ushbu holatda soplning chiqish kesimida kritik bosimga erishiladi va bug'ning soploda p_0 bosimdan p_{kr} bosimgacha kengayishi yuz beradi.

iS – diagrammadan bug'ning boshlang'ich entalpiyasi $i_0 = 3304$ kJ/kg va bug'ning adiabatik kengayishdan keyingi entalpiyasi $i_{kr} = 3128$ kJ/kg ekanligini topamiz (1.9 – rasm).

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning kritik tezligini (1.2) formulaga asosan hisoblaymiz:

$$c_{kr} = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_{kr})} = 44,7 \cdot 0,95 \cdot \sqrt{(3304 - 3128)} = 564 \text{ m/s}.$$

iS – diagrammadan bug'ning soplodan kritik bosim bilan chiqishdagi solishtirma hajmini aniqlaymiz (1.9 – rasm):

$$v_{kr} = 0,14 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Torayuvchi soplning minimal kesim yuzasini (m^2) (1.26) formuladan aniqlaymiz:

$$f_1 = \frac{M \cdot v_{kr}}{\mu_1 \cdot c_{kr}} = \frac{2,1 \cdot 0,14}{0,96 \cdot 564} = 0,54 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2.$$

1.45 – masala. Aktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,0$ MPa va harorati $t_0 = 320$ °C dan $p_1 = 0,3$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasi soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,97$, soplo orqali bug' sarfi $M = 1,2$ kg/s va soplning sarf koeffitsiyenti $\mu_1 = 0,97$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa – kengayuvchi soplning chiqish kesimi yuzasini va minimal kesimi yuzasini aniqlang.

Javob: $f_1 = 1,18 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$; $f_{\min} = 0,98 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$.

1.46 – masala. Reaktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,4$ MPa va harorati $t_0 = 350$ °C dan $p_2 = 0,35$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasi soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$, soplo orqali bug' sarfi $M = 1,8$ kg/s, soplning sarf koeffitsiyenti $\mu_1 = 0,96$ va pog'onaning reaktivlik

darajasi $\rho = 0,5$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa – kengayuvchi soplarning chiqish kesimi yuzasini va minimal kesimi yuzasini aniqlang.

Yechish: Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning kritik bosimini (Pa) (1.27) formuladan aniqlaymiz:

$$p_{kr} = \beta_{kr} \cdot p_0 = 0,546 \cdot 1,4 = 0,76 \text{ MPa.}$$

Demak p_1 bosim p_{kr} bosim qiymatidan kichik ekan. Ushbu holatda soplarning chiqish kesimida kritik bosimga erishiladi va bug'ning soplarda p_0 bosimdan p_{kr} bosimgacha kengayishi yuz beradi.

iS – diagrammadan bug'ning boshlang'ich entalpiya ko'rsatkichlari $i_0 = 3150$ kJ/kg, $i_{kr} = 2985$ kJ/kg, $i_1 = 2810$ kJ/kg va solishtirma hajm ko'rsatkichlari $v_{kr} = 0,324$ m³/kg, $v_1 = 0,593$ m³/kg ga teng ekanligini topamiz (1.10 – rasm).

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligini (1.2) formulaga asosan hisoblaymiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1) \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{(3150 - 2810) \cdot (1 - 0,5)} = 560 \text{ m/s.}$$

Kengayuvchi soplarning chiqish kesim yuzasini (m²) (1.25) formulaga ko'ra:

$$f_1 = \frac{M \cdot v_1}{\mu_1 \cdot c_1} = \frac{1,8 \cdot 0,593}{0,96 \cdot 560} = 1,99 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2.$$

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning kritik tezligini (1.2) formulaga asosan hisoblaymiz:

$$c_{kr} = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_{kr}) \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{(3150 - 2985) \cdot (1 - 0,5)} = 389 \text{ m/s.}$$


Kengayuvchi soplarning minimal kesim yuzasini (m²) (1.26) formuladan aniqlaymiz:

$$f_{\min} = \frac{M \cdot v_{kr}}{\mu_1 \cdot c_{kr}} = \frac{1,8 \cdot 0,324}{0,96 \cdot 389} = 1,56 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2.$$


1.47 – masala. Agar aktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari $p_0 = 2,0$ MPa bosim va $t_0 = 350$ °C haroratdan $p_1 = 1,5$ MPa bosimgacha kengaysa, pog'ona

soplosining tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 13^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,45$, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 22^\circ$, bug'ning ishchi kuragidan chiqishdagi solishtirma hajmi $v_2 = 0,143 \text{ m}^3/\text{kg}$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 1,0 \text{ m}$, bug' sarfi $M = 30 \text{ kg/s}$, ishchi kuraklarining sarf koeffitsiyenti $\mu_2 = 0,95$ va bug'ning kirishdagi partiiallik darajasi $\varepsilon = 0,4$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa ishchi kuraklarining chiqish kesim yuzasini va chiqish balandliklarini aniqlang.

Javob: $f_2 = 2,428 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$; $l_2 = 5,11 \cdot 10^{-2} \text{ m}$.



1.9 – rasm.



1.10 – rasm.

1.48 – masala. Agar reaktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari $p_0 = 2,0 \text{ MPa}$ bosim va $t_0 = 390 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratdan $p_2 = 1,5 \text{ MPa}$ bosimgacha kengaysa, pog'ona soplosining tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 13^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,5$, bug'ning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 20^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,85 \text{ m}$, pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$, bug' sarfi $M = 24 \text{ kg/s}$, ishchi kuraklarining sarf koeffitsiyenti $\mu_2 = 0,96$ va

bug'ning kirishdagi partiiallik darajasi $\varepsilon = 0,4$ ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa ishchi kuraklarining chiqish kesim yuzasini va chiqish balandliklarini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan bug'ning boshlang'ich entalpiyasi $i_0 = 3230$ kJ/kg va bug'ning adiabatik kengayishdan keyingi entalpiyasi $i_2 = 3150$ kJ/kg ekanligini topamiz (1.11 – rasm).

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligini (1.2) formulaga asosan hisoblaymiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{(i_0 - i_1) \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,95 \cdot \sqrt{(3230 - 3150) \cdot (1 - 0,5)} = 268 \text{ m/s.}$$

Soplodagi issiqlik energiyasi isrofi (1.12) – formuladan:


$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1 \right) \cdot \frac{c_1^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,95^2} - 1 \right) \cdot \frac{268^2}{2000} = 3,9 \text{ kJ/kg.}$$

Kuraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni $u/c_1 = 0,5$ munosabatga binoan topamiz:

$$u = 0,5 \cdot c_1 = 0,5 \cdot 268 = 134 \text{ m/s.}$$

Ishchi kuraklariga kirishdagi bug'ning nisbiy tezligi (1.5) – formuladan topiladi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{268^2 + 134^2 - 2 \cdot 268 \cdot 134 \cdot 0,974} = 99 \text{ m/s.}$$



1.11 – rasm.

Bug'ning ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi nisbiy tezligi (1.7) formula yordamida aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot h_0 + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} = 44,7 \cdot 0,87 \cdot \sqrt{0,5 \cdot 80 + \left(\frac{99}{44,7}\right)^2} = 259 \text{ m/s.}$$

Jarayonni iS – diagrammasida qurib (1.11 – rasm) ishchi kuragidan chiqishdagi bug'ning solishtirma hajmini topib olamiz:

$$v_{kr} = 0,192 \text{ m}^3/\text{kg.}$$

Ishchi kuraklarining chiqish kesimi yuzasini (m^2) (1.28) formuladan aniqlaymiz:

$$f_2 = \frac{M \cdot v_2}{\mu_2 \cdot w_2} = \frac{24 \cdot 0,192}{0,96 \cdot 259} = 1,853 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2.$$

Ishchi kuraklarining chiqish balandligi (m) (1.29) formulaga ko'ra:

$$l_2 = \frac{f_2}{\pi \cdot d \cdot \varepsilon \cdot \sin \beta_2} = \frac{1,853 \cdot 10^{-2}}{3,14 \cdot 0,85 \cdot 0,4 \cdot 0,342} = 5 \cdot 10^{-2} \text{ m}$$

1.4. TURBINALARNING FOYDALI ISH KOEFFISIYENTI, QUVVATI VA BUG' SARFINI HISOBLASH

Turbinalarning f.i.k.i. Bug' turbinasining ichki qismida issiqlik energiyasining isrofi turbinaning ichki foydali ish ko'effitsiyenti bilan baholanadi va turbinada foydali ishlatilgan issiqlik tushishining H_i umumiy ko'zda tutilgan issiqlik tushishiga H_0 nisbati ko'rinishida ifodalanadi, ya'ni:

$$\eta_{ni} = \frac{H_i}{H_0} = \frac{i_0 - i_k}{i_0 - i_{k.a}}, \quad (1.30)$$

bu yerda i_0 – bug'ning boshlang'ich parametrlaridagi entalpiyasi, kJ/kg; $i_{k.a}$ – bug'ning boshlang'ich parametrlaridan to oxirgi holatigacha adiabatik kengayishdagi entalpiyasi, kJ/kg; i_k – bug'ning oxirgi parametrlaridagi entalpiyasi, kJ/kg.

Bug' turbinalarining ichki nisbiy f.i.k. ko'rsatkichi $0,7 \div 0,88$ oraliqda bo'ladi.

Podshipniklardagi va yordamchi mexanizmlar uzatmalaridagi ishqalanish tufayli issiqlik isroflari (mexanik isroflar) qurilmaning mexanik f.i.k.ini η_m belgilaydi va effektiv quvvatning ichki quvvatga nisbatidan aniqlanadi:

$$\eta_m = \frac{N_e}{N_i}, \quad (1.31)$$

Bug' turbinalarining mexanik f.i.k. ko'rsatkichi $0,97 \div 0,99$ oraliqda bo'ladi.

Turbinaning ichki issiqlik isroflari va mexanik isroflar turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.ini $\eta_{n.e}$ aniqlashga yordam beradi va turbinaning ichki nisbiy f.i.k.ini mexanik f.i.k.iga ko'paytmasidan hosil bo'ladi:

$$\eta_{n.e} = \eta_{ni} \cdot \eta_m, \quad (1.32)$$

Turbinalar uchun $\eta_{n.e}$ ning qiymati $0,68 \div 0,87$ oralig'ida bo'ladi.

Agar bug' turbinasi bevosita elektr generatorining valiga ulangan bo'lsa, unda generatorda vujudga keladigan isroflar tufayli turbinaning elektr quvvati effektiv quvvatdan kichik bo'ladi. Bu ko'rsatkich generator f.i.k.i η_g bilan belgilanadi.

Elektr generator f.i.k.i elektr quvvatining N_{el} effektiv quvvatga N_e nisbatidan aniqlanadi:

$$\eta_g = \frac{N_{el}}{N_e}, \quad (1.33)$$

Generator f.i.k. η_g ning qiymati $0,96 \div 0,99$ oralig'ida bo'ladi.

Turbogeneratorning hisbiy elektrik f.i.k.i:

$$\eta_{n.el} = \eta_{ne} \cdot \eta_g = \eta_{ni} \cdot \eta_m \cdot \eta_g, \quad (1.34)$$

Turbinada issiqlikning qaytish koeffitsiyenti. Issiqlikning qaytish koeffitsiyenti α issiqlik isroflarini qisman qaytishi hisobiga ko'zda tutilgan issiqlik tushishini qisman kattalashishini xarakterlaydi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{\sum h_0}{H_0} - 1, \quad (1.35)$$

bu yerda $\sum h_0$ - turbinaning barcha pog'onalaridagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishlari yig'indisi, kJ/kg.

Turbinada issiqlikni qaytish koeffitsiyenti α alohida pog'onalar ichki nisbiy f.i.k.iga ko'ra quyidagicha topiladi:

$$\alpha = \frac{\eta_{ni}}{\eta_{ni}^p} - 1, \quad (1.36)$$

Pog'onalar sonidan kelib chiqib turbinada issiqlikni qaytish koeffitsiyentining qiymati 0,04 ÷ 0,06 oralig'ida bo'ladi.

Turbinalarning xarakteristika koeffitsiyenti. Turbinalarning xarakteristika koeffitsiyenti Y [kg·m²/(kJ·s²)], pog'ona uchun yoki butun turbinaning tejamkorligini xarakterlaydi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Y = \frac{\sum u^2}{(1 + \alpha) \cdot H_0} = \frac{z \cdot u_{o'r}^2}{(1 + \alpha) \cdot H_0}, \quad (1.37)$$

bu yerda z – turbina pog'onalar soni; $u_{o'r}$ – kuraklar oralig'idagi o'rtacha aylanma tezlik, m/s.

Turbina quvvati. Turbinaning validan yoki birlashtiruvchi muftasidan olinayotgan quvvat effektiv quvvat N_e (kVt) deb ataladi:

$$N_e = D \cdot H_0 \cdot \eta_{ne}. \quad (1.38)$$

Effektiv quvvat N_e ichki quvvatga N_i nisbatan mexanik quvvat N_m kattaligi barobarida kichik bo'ladi, ya'ni:

$$N_e = N_i - N_m \quad (1.39)$$

Ichki quvvat N_i (kVt) (1.31) formuladan aniqlanadi.

Elektrik quvvat N_{el} (kVt) (1.33) formuladan aniqlanadi.

Turbina orqali bug' sarfi. Bug' turbinalarining tejamkorligi ham f.i.k., ham bug'ning solishtirma sarfiga bog'liq.

Effektiv solishtirma bug' sarfi [kg/(kVt·soat)] sekundli bug' sarfini effektiv bug' sarfiga nisbatidan topiladi, ya'ni:

$$d_e = \frac{D}{N_e} = \frac{3600}{\eta_{n.e} \cdot H_0}. \quad (1.40)$$

Katta quvvatli kondensatsion turbinalar to'liq yuklama bilan ishlayotganda effektiv solishtirma bug' sarfi $3 \div 4 \text{ kg/(kVt}\cdot\text{soat)}$.

Bug' otbori olinmasiga ega turbinalar uchun bug' sarfi (kg/s) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$D = \frac{N_{el}}{(i_0 - i_k) \cdot \eta_m \cdot \eta_g} + \frac{D_b \cdot (i_b - i_k)}{(i_0 - i_k)}, \quad (1.41)$$

bu yerda D_b – bug' otbor olinmasi, kg/s; i_0 – bug'ning boshlang'ich parametrlardagi entalpiyasi, kJ/kg; i_b – otbor bug'ining entalpiyasi, kJ/kg; i_k – kondensatordagi bug'ning entalpiyasi, kJ/kg.

Otborga berilayotgan bug' entalpiyasi:

$$i_b = i_0 - (i_0 - i_{a.k}) \cdot \eta'_{oi}, \quad (1.42)$$

bu yerda $i_{a.k}$ – otbor olinmasidagi bosimgacha adiabatik kengayib kelgan bug'ning entalpiyasi, kJ/kg; η'_{oi} – otbor olinish joyigacha, ya'ni yuqori bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i.

Kondensatordagi bug' entalpiyasi:

$$i_k = i_b - (i_b - i_{k.a}) \cdot \eta''_{oi}, \quad (1.43)$$

bu yerda $i_{k.a}$ – otbor olinmasi bosimidan kondensatordagi bosimgacha adiabatik kengayib kelgan bug'ning entalpiyasi, kJ/kg; η''_{oi} – otbor olinish joyidan keyin, ya'ni past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i.

O'zgaruvchan rejimlarda turbina pog'onasidagi bosim va bug' sarfi.

Turbina orqali bug' sarfini o'zgarishi uning pog'onalari bo'ylab bosim va issiqlik tushishlarini qayta taqsimlanishini talab qiladi. Soplodagi bug' tezligi uchun turbina pog'onasidagi bug' bosimi va sarflari orasidagi bog'lanish quyidagi tenglama ko'rinishini oladi:

$$\frac{D}{D_0} = \sqrt{\frac{(p_{01}^2 - p_{02}^2)}{(p_0^2 - p_2^2)}}, \quad (1.44)$$

bu yerda D_0 va D – turbina orqali hisobiy va ko'rilayotgan rejimlarga mos keluvchi bug' sarflari, kg/s; p_0 va p_{01} – birinchi yoki har qanday pog'ona soplosi oldidagi hisobiy va ko'rilayotgan rejimlarga mos keluvchi bosim, Pa; p_2 va p_{02} – oxirgi yoki

har qanday pog'ona ishchi kuragidan keyingi hisobiy va ko'rilayotgan rejimlarga mos keluvchi bosim, Pa.

Kondensation turbina pog'onasida bosimning bug' sarfiga bog'liq holda o'zgarishi:

$$p_{01} = \frac{p_0 \cdot D}{D_0}, \quad (1.45)$$

Qarshi bosimli turbina pog'onasida bosimning bug' sarfiga bog'liq holda o'zgarishi:

$$p_{01} = \sqrt{\left(\frac{D}{D_0}\right)^2 \cdot (p_0^2 - p_2^2) + p_{02}^2}. \quad (1.46)$$

1.49 – masala. Agar turbina oldidagi bug' parametrlari $p_0 = 3,4$ MPa, $t_0 = 440$ °C , turbinadan keyin esa $p_2 = 0,4$ MPa, $t_2 = 220$ °C va turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,98$ ga teng bo'lsa turbinaning ichki nisbiy va effektiv f.i.k.larini aniqlang.

Javob: $\eta_{ni} = 0,77$; $\eta_{ne} = 0,755$.

1.50 – masala. Agar turbina oldidagi bug' parametrlari $p_0 = 4,0$ MPa, $t_0 = 390$ °C , turbinadan keyin esa $p_2 = 1,0$ MPa, $t_2 = 240$ °C , turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,97$ ga va elektrogenerator f.i.k. $\eta_g = 0,95$ ga teng bo'lsa turbogeneratorning nisbiy elektrik f.i.k.ini aniqlang.

Javob: $\eta_{n.el} = 0,71$.

1.51 – masala. Turbinani sinovi paytida uning oldidagi bug' parametrlari $p_0 = 3,5$ MPa, $t_0 = 500$ °C , turbinadan keyin esa $p_2 = 1,2$ MPa, $t_2 = 290$ °C ga tengligi o'lchandi. Agar turbina bir xil ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{ni}^p = 0,73$ ga ega yettita pog'onadan iborat bo'lsa issiqlikning qaytish koeffitsiyentini aniqlang.

Javob: $\alpha = 0,057$.

1.52 – masala. Boshlang'ich bug' parametrlari $p_0 = 9,0$ MPa, $t_0 = 500$ °C va qarshi bosimi $p_2 = 1,5$ MPa bo'lgan turbina uchun issiqlikning qaytish koeffitsiyentini aniqlang. Bunda rostlovchi pog'onadagi foydali issiqlik tushishi $h_i^p = 102$ kJ/kg, shu pog'onaning nisbiy ichki f.i.k.i $\eta_{ni}^p = 0,68$ ga va turbina oltita bir xil issiqlik tushishiga $h_0 = 62$ kJ/kg ega rostlanmaydigan pog'onalardan iborat deb qaralsin.

Javob: $\alpha = 0,053$.

1.53 – masala. Ishlatilayotgan kondensatsion turbinada boshlang'ich bug' parametrlari $p_0 = 9,0$ MPa, $t_0 = 500$ °C va kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4 \cdot 10^3$ Pa. Agar issiqlikning qaytish koeffitsiyenti $\alpha = 0,05$ va kuraklar o'rtasidagi o'rtacha aylanma tezlik $u_{o,r} = 220$ m/s bo'lsa turbinaning xarakteristika koeffitsiyenti aniqlansin. Turbina o'nta pog'onadan iborat deb qaralsin.

Javob: $Y = 334$ kg·m²/(kJ·s²).

1.54 – masala. Ishlatilayotgan turbinada boshlang'ich bug' bosimi $p_0 = 4,0$ MPa, $t_0 = 440$ °C va kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4 \cdot 10^3$ Pa. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 5,2$ kg/s va turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,71$ ga teng bo'lsa turbinaning effektiv quvvatini aniqlang.

Javob: $N_e = 4560$ kVt.

1.55 – masala. Ishlatilayotgan turbinada boshlang'ich bug' bosimi $p_0 = 8,0$ MPa, $t_0 = 480$ °C va kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 5,4$ kg/s va turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,73$ va turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,97$ ga teng bo'lsa turbinaning effektiv quvvatini va mexanik isroflarga sarflanadigan quvvatini aniqlang.

Javob: $N_e = 4560$ kVt; $N_m = 166$ kVt.


1.56 – masala. Ishlatilayotgan turbinada boshlang'ich bug' bosimi $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 435 \text{ }^\circ\text{C}$ va kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 5,0 \text{ kg/s}$ va turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,72$ ga teng bo'lsa turbinaning effektiv quvvatini va bug'ning solishtirma effektiv sarfini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan foydalanib ko'zda tutilgan $H_0 = i_0 - i_{k.a.}$ issiqlik tushishini quramiz (1.12 – rasm). Boshlang'ich parametrlarga ko'ra bug' entalpiyasi $i_0 = 3315 \text{ kJ/kg}$, kondensatsion $p_k = 4,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ bosimgacha adiabatik kengayishdan keyingi bug' entalpiyasi esa $i_{k.a.} = 2095 \text{ kJ/kg}$ ga teng. Demak,

$$H_0 = i_0 - i_{k.a.} = 3315 - 2095 = 1220 \text{ kJ/kg.}$$

Turbinaning effektiv quvvatini (1.38) formuladan aniqlaymiz:

$$N_e = D \cdot H_0 \cdot \eta_{n.e} = 5 \cdot 1220 \cdot 0,72 = 4392 \text{ kVt.}$$



1.12 – rasm.

Effektiv solishtirma bug' sarfi $[kg/(kVt \cdot soat)]$ (1.40) formuladan topiladi, ya'ni:

$$d_e = \frac{D}{N_e} = \frac{3600}{\eta_{n.e} \cdot H_0} = \frac{3600}{0,72 \cdot 1220} = 4,1 \frac{kg}{kVt \cdot soat}.$$

1.57 – masala. Turbinada bug'ning boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,6$ MPa, harorati $t_0 = 350$ °C va kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 5,0 \cdot 10^3$ Pa. Agar turbina orqali bug' sarfini $D = 5,5$ kg/s dan o'zgarasdan turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.ining qiymati $\eta_{n.e} = 0,66$ dan $\eta'_{n.e} = 0,61$ gacha pasayadi va bunda turbina kondensatoridagi bosim $p'_k = 9 \cdot 10^3$ Pa ga o'zgaradi deb qaralsa turbinaning effektiv quvvati qiymati qanchaga o'zgarishini aniqlang.

Javob: $\Delta N_e = 489$ kVt.

1.58 – masala. Turbinada bug'ning boshlang'ich bosimi $p_0 = 2,6$ MPa, harorati $t_0 = 360$ °C va kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,5 \cdot 10^3$ Pa, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.ining qiymati $\eta_{n.e} = 0,68$ ni tashkil qiladi. Agar turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p'_k = 8,0 \cdot 10^3$ Pa gacha ko'tarilsa va turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.ining qiymati $\eta'_{n.e} = 0,63$ gacha pasaysa bug'ning solishtirma effektiv sarfi qiymati qanchaga ortishini hisoblang.

Javob: $\Delta d_e = 0,74$ kg/(kVt·soat).

1.59 – masala. Effektiv quvvati $N_e = 12000$ kVt bo'lgan kondensatsion turbinada boshlang'ich parametrlari $p_0 = 2,8$ MPa, $t_0 = 400$ °C o'ta qizigan bug'da ishlaydi, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,5 \cdot 10^3$ Pa. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 15,0$ kg/s bo'lsa bug'ning solishtirma effektiv sarfi va turbinaning nisbiy effektiv f.i.k. ini aniqlang.

Javob: $d_e = 4,5$ kg/(kVt·soat); $\eta_{n.e} = 0,708$.

1.60 – masala. Kondensatsion turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5$ MPa, $t_0 = 435$ °C, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3$ Pa. Agar turbina generatorining elektr quvvati $N_e = 24000$ kVt, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,76$ va elektr generatorining f.i.k.i $\eta_g = 0,96$ ga teng bo'lsa bug'ning turbina orqali sekundlik va solishtirma sarfi aniqlansin.

Javob: $D = 27,1$ kg/s; $d_e = 3,9$ kg/(kVt·soat).

1.61 – masala. Ishlab chiqarish uchun rostlanuvchi bug' otboriga ega turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 435 \text{ }^\circ\text{C}$, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, rostlanuvchi bug' otboridagi bug' sarfi $D_b = 5 \text{ kg/s}$, bosimi $p_b = 0,2 \text{ MPa}$. Agar turbogeneratorning elektr quvvati $N_{el} = 4000 \text{ kVt}$, yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{n.i} = 0,74$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordandan keyin) $\eta''_{n.i} = 0,76$, turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,98$ va elektr generatorining f.i.k.i $\eta_g = 0,96$ ga teng bo'lsa turbina orqali bug' sarfi aniqlansin.

Yechish: iS – diagrammadan foydalanib bug'ning p_0 va t_0 boshlang'ich parametrlariga ko'ra i_0 entalpiyani topamiz (1.13 – rasm): $i_0 = 3315 \text{ kJ/kg}$. Bug'ning p_0 va t_0 parametrlardan p_b bosimgacha, p_b va t_b parametrlardan p_k bosimgacha adiabatik kengayish jarayoniga asosan qurilgan iS – diagrammadan (1.13 – rasm) $i_{a.k.} = 2640 \text{ kJ/kg}$ va $i_{k.a.} = 2240 \text{ kJ/kg}$ entalpiyalarni aniqlaymiz.

Otborga kirayotgan bug'ning entalpiyasini (1.42) formuladan aniqlaymiz:

$$i_b = i_0 - (i_0 - i_{a.k.}) \cdot \eta'_{oi} = 3315 - (3315 - 2640) \cdot 0,74 = 2815 \text{ kJ/kg}.$$

Kondensatoridagi bug' entalpiyasini (1.43) formuladan aniqlaymiz:

$$i_k = i_b - (i_b - i_{k.a.}) \cdot \eta''_{oi} = 2815 - (2815 - 2240) \cdot 0,76 = 2378 \text{ kJ/kg}.$$

Turbina orqali bug' sarfi (1.41) formulaga ko'ra:


$$D = \frac{N_{el}}{(i_0 - i_k) \cdot \eta_m \cdot \eta_g} + \frac{D_b \cdot (i_b - i_k)}{(i_0 - i_k)} = \frac{4000}{(3315 - 2378) \cdot 0,98 \cdot 0,96} + \frac{5 \cdot (2815 - 2378)}{(3315 - 2378)} = 6,87 \text{ kg/s}.$$

1.62 – masala. Ishlab chiqarish uchun rostlanuvchi bug' otboriga ega turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 435 \text{ }^\circ\text{C}$, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 5,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, rostlanuvchi bug' otboridagi bug' sarfi $D_b = 11,1 \text{ kg/s}$, bosimi $p_b = 0,5 \text{ MPa}$. Agar turbogeneratorning elektr quvvati $N_{el} = 6000 \text{ kVt}$, yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{n.i} = 0,78$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordandan keyin) $\eta''_{n.i} = 0,65$, turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,98$ va elektr generatorining f.i.k.i $\eta_g = 0,95$ ga teng bo'lsa turbina orqali solishtirma effektiv bug' sarfi aniqlansin.


Javob: $d_e = 7,12 \text{ kg/(kVt}\cdot\text{soat)}$.

1.63 – masala. Ishlab chiqarish uchun rostlanuvchi bug' otboriga ega turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 350 \text{ }^\circ\text{C}$, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, rostlanuvchi bug' otboridagi bug' sarfi $D_b = 4,0 \text{ kg/s}$, bosimi $p_b = 0,4 \text{ MPa}$. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 8,0 \text{ kg/s}$, yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{ni} = 0,75$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordan keyin) $\eta''_{ni} = 0,77$, turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,97$ va elektr generatorining f.i.k.i $\eta_g = 0,97$ ga teng bo'lsa turbogeneratorning elektrik quvvati aniqlansin.

Yechish: iS – diagrammadan foydalanib bug'ning p_0 va t_0 boshlang'ich parametrlariga ko'ra i_0 entalpiyani topamiz (1.14 – rasm): $i_0 = 3110 \text{ kJ/kg}$. Bug'ning adiabatik kengayish jarayoniga asosan $i_{a.k.} = 2645 \text{ kJ/kg}$ va $i_{k.a.} = 2095 \text{ kJ/kg}$ entalpiyalarni aniqlaymiz.



1.13 – rasm.



1.14 – rasm.

Otborga kirayotgan bug'ning entalpiyasini (1.42) formuladan aniqlaymiz:

$$i_b = i_0 - (i_0 - i_{a.k.}) \cdot \eta'_{oi} = 3110 - (3110 - 2645) \cdot 0,75 = 2761 \text{ kJ/kg}.$$

Kondensatoridagi bug' entalpiyasini (1.43) formuladan aniqlaymiz:

$$i_k = i_b - (i_b - i_{k.a.}) \cdot \eta''_{oi} = 2761 - (2761 - 2095) \cdot 0,77 = 2248 \text{ kJ/kg}.$$

Turbinaning elektrik quvvatini (1.41) formuladan keltirib chiqariladi:

$$N_{el} = [D \cdot (i_0 - i_k) - D_b \cdot (i_b - i_k)] \cdot \eta_m \cdot \eta_g = [8 \cdot (3110 - 2248) - 4 \cdot (2761 - 2248)] \cdot 0,97 \cdot 0,97 = 4553 \text{ kg/s.}$$

1.64 – masala. Ishlab chiqarish uchun rostlanuvchi bug' otboriga ega turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 350 \text{ }^\circ\text{C}$, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 5,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, rostlanuvchi bug' otboridagi bug' sarfi $D_b = 5,0 \text{ kg/s}$, bosimi $p_b = 0,4 \text{ MPa}$. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 10,0 \text{ kg/s}$, yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{n,i} = 0,75$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordan keyin) $\eta''_{n,i} = 0,78$ va turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,98$ ga teng bo'lsa turbinaning effektiv quvvati aniqlansin.

Javob: $N_e = 5792 \text{ kVt}$.

1.65 – masala. Kondensatsion turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,0 \text{ MPa}$, $t_0 = 380 \text{ }^\circ\text{C}$, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, bitta oraliq bug' otboriga ega bo'lib uning bosimi $p_b = 0,4 \text{ MPa}$. Agar turbogeneratorning elektr quvvati $N_{el} = 2500 \text{ kVt}$, yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{n,i} = 0,74$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordan keyin) $\eta''_{n,i} = 0,76$, turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,97$, elektr generatorining f.i.k.i $\eta_g = 0,97$ va ishlab chiqarishga oraliq otbor olinishi hisobiga bug' sarfi ulushi $\alpha_b = D_b/D = 0,5$ ga teng bo'lsa turbina orqali bug'ning sekundlik va solishtirma effektiv sarfini aniqlang.

Yechish: iS – diagrammadan foydalanib bug'ning p_0 va t_0 boshlang'ich parametrlariga ko'ra i_0 entalpiyani topamiz (1.15 – rasm): $i_0 = 3190 \text{ kJ/kg}$. Bug'ning p_0 va t_0 parametrlardan p_b bosimgacha, p_b va t_b parametrlardan p_k bosimgacha adiabatik kengayish jarayoniga asosan $i_{a,k} = 2720 \text{ kJ/kg}$ va $i_{k,a} = 2145 \text{ kJ/kg}$ entalpiyalarni aniqlaymiz.

Otborga kirayotgan bug'ning entalpiyasini (1.42) formuladan aniqlaymiz:


$$i_b = i_0 - (i_0 - i_{a,k}) \cdot \eta'_{oi} = 3190 - (3190 - 2720) \cdot 0,74 = 2842 \text{ kJ/kg}.$$

Kondensatoridagi bug' entalpiyasini (1.43) formuladan aniqlaymiz:

$$i_k = i_b - (i_b - i_{k.a.}) \cdot \eta_{oi}'' = 2842 - (2842 - 2145) \cdot 0,76 = 2312 \text{ kJ/kg.}$$

Turbinaning effektiv quvvatini (1.33) formuladan keltirib chiqariladi:

$$N_e = \frac{N_{el}}{\eta_g} = \frac{2500}{0,97} = 2577 \text{ kVt}$$



1.15 – rasm.

Turbina orqali bug' sarfi (1.41) formulaga ko'ra:

$$D = \frac{N_{el}}{[(i_0 - i_k) - \alpha_b \cdot (i_b - i_k)] \cdot \eta_m \cdot \eta_g} = \frac{2500}{[(3190 - 2312) - 0,5 \cdot (2842 - 2312)] \cdot 0,97 \cdot 0,97} = 4,34 \text{ kg/s.}$$

Effektiv solishtirma bug' sarfi [kg/(kVt·soat)] (1.40) formuladan topiladi, ya'ni:

$$d_e = \frac{D}{N_e} = \frac{4,34 \cdot 3600}{2577} = 6,06 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}.$$

1.66 – masala. Kondensatsion turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,0 \text{ MPa}$, $t_0 = 380 \text{ °C}$, turbina kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 3,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, bitta oraliq bug' o'tboriga ega bo'lib uning bosimi $p_b = 0,5 \text{ MPa}$. Agar turbina orqali bug' sarfi $D = 4,65 \text{ kg/s}$, yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{n.i} = 0,73$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordan

keyin) $\eta''_{n.i} = 0,75$, turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,96$, elektr generatorining f.i.k.i $\eta_g = 0,97$ va ishlab chiqarishga oraliq otbor olinishi hisobiga bug' sarfi ulushi $\alpha_b = D_b/D = 0,5$ ga teng bo'lsa turbinaning effektiv quvvatini aniqlang.

Javob: $N_e = 2700$ kVt.

1.67 – masala. Issiqlik ta'minoti uchun mo'ljallangan $p_b = 0,14$ MPa bosimli bug' otboriga ega turbinada bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 8,0$ MPa, $t_0 = 500$ °C, turbina ish rejimlaridan birida yuqori bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i $\eta'_{n.i} = 0,8$ ga teng. Otbor bug'i bosimini o'zgartirmasdan turbina orqali bug' o'tishi miqdori o'zgarganda yuqori bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i $\eta'_{n.i} = 0,74$ gacha pasayadi. Agar kondensatoridagi bug' bosimi $p_k = 6,0 \cdot 10^3$ Pa ga teng va o'zgarmas deb qaralsa past bosimli qismdagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi qanday o'zgaradi.

Javob: $\Delta H = 10$ kJ/kg.

1.68 – masala. Agar kichik quvvatli qarshi bosimli turbina birinchi pog'onasi soplosi oldidagi to'liq bug' o'tishida bug'ning boshlang'ich bosimi $p_0 = 1,5$ MPa, qarshi bosimda esa $p_2 = 0,3$ MPa va turbina drosselli bug' taqsimotiga ega bo'lsa, yarim bug' o'tishida turbina birinchi pog'ona soplosi oldidagi bug'ning bosimini aniqlang.

Javob: $p_{01} = 0,794$ MPa.

1.69 – masala. Agar qarshi bosimli turbina orqali bug' sarfi $D_0 = 102$ kg/g, rostlovchi pog'ona soplosi oldidagi bug'ning bosimi $p_0 = 7,0$ MPa, qarshi bosimda esa $p_2 = 3,0$ MPa va turbinaning keyingi bosimi o'zgarmas bo'lsa, turbina orqali bug' sarfi $D_0 = 82$ kg/g ga tenglashganda rostlovchi pog'ona soplosi oldidagi bug'ning bosimini aniqlang.

Javob: $p_{01} = 6,45$ MPa.

1.70 – masala. Boshlang'ich bug' bosimi $p_0 = 2,9$ MPa va bug'ning hisobiy sarfi $D_0 = 28$ kg/s bo'lgan kondensatsion turbina drosselli bug' taqsimotiga ega. Agar qo'shimcha yuklash klapani ochilgandan keyin bug'ning umumiy sarfi $D_1 = 32,2$ kg/s ga ko'paysa qo'shimcha yuklash klapani orqali bug' sarfini aniqlang. Qo'shimcha yuklash klapani ochilgan paytda uning ortidagi bosim $p_1 = 2$ MPa ga teng. Turbinani qo'shimcha yuklash aylanma klapanlari orqali amalga oshiriladi.

Yechish: Turbinaning qo'shimcha yuklash kamerasidagi bug'ning bosimini (1.45) formuladan aniqlaymiz:

$$p_{11} = \frac{p_1 \cdot D_1}{D_0} = \frac{2 \cdot 32,2}{28} = 2,3 \text{ MPa.}$$

Shuningdek, aylanma pog'onalar guruhining o'tish maydonlari almashmaydi, ushbu holatda aylanma pog'onalar guruhi orqali bug' sarfini (1.44) formuladan topiladi:

$$D = D_0 \cdot \sqrt{\frac{(p_0^2 - p_{11}^2)}{(p_0^2 - p_1^2)}} = 28 \cdot \sqrt{\frac{(2,9^2 - 2,3^2)}{(2,9^2 - 2,0^2)}} = 20 \text{ kg/s.}$$

Qo'shimcha yuklash klapani orqali bug' sarfi:

$$D_b = D_1 - D = 32,2 - 20 = 12,2 \text{ kg/s.}$$

1.5. KONDENSATOR VA UNING KO'RSATKICHLARINI HISOBLASH.

Kondensator uchun sovituvchi suv sarfi (kg/s) ushbu qurilmaning issiqlik balansidan aniqlanadi:

$$W = \frac{D_k \cdot (i_k - i'_k)}{(t_s'' - t_s') \cdot c_s}, \quad (1.47)$$

bu yerda D_k – kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi, kg/s; i_k – kondensatoridagi bug' entalpiyasi, kJ/kg; c_s – sovituvchi suvning issiqlik sig'imi, kJ/(kg·K); t_s'' va t_s' – kondensatordan chiqish va kirishdagi sovituvchi suv haroratlari, °C .

Kondensator uchun sovitish karraliligi (kg/kg):

$$m = \frac{W}{D_k} = \frac{(i_k - i'_k)}{(t''_s - t'_s) \cdot c_s}, \quad (1.48)$$

Bir sekund mobaynida kondensatorda kondensatsiyalanuvchi bug'dan berilayotgan issiqlik miqdori:

$$Q = D_k \cdot (i_k - i'_k) \quad (1.49)$$

Bir sekund mobaynida kondensatorda sovituvchi suvga qabul qilinayotgan issiqlik miqdori:

$$Q = W \cdot (t''_s - t'_s) \cdot c_s. \quad (1.50)$$

Kondensatorning sovitish yuzasi (m^2) issiqlik uzatish tenglamasidan aniqlanadi:

$$F = \frac{Q}{k \cdot \Delta t_{o'r}}, \quad (1.51)$$

bu yerda k – issiqlik uzatish koeffitsiyenti, $kVt/(m^2 \cdot K)$; $\Delta t_{o'r}$ – kondensatordagi o'rtacha harorat napori, $^{\circ}C$, bo'lib quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Delta t_{o'r} = t_{t.b.} - \frac{(t'_s + t''_s)}{2}. \quad (1.52)$$

bu yerda $t_{t.b.}$ – to'yingan bug' bosimi, $^{\circ}C$.

1.71 – masala. Agar kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 16,8$ kg/s, kondensatordagi bug' entalpiyasi $i_k = 2300$ kJ/kg, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 3 \cdot 10^3$ Pa, kondensatorga kirishdagi sovituvchi suv harorati $t'_s = 10$ $^{\circ}C$, kondensatordan chiqishdagi suv harorati esa kondensatordagi to'yingan bug' haroratidan 5 $^{\circ}C$ past bo'lsa, bug' turbinasi kondensatori uchun sovituvchi suv sarfi aniqlansin.

Javob: $W = 1010$ kg/s.

1.72 – masala. Agar kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 10,0$ kg/s, kondensatordagi bug' entalpiyasi $i_k = 2360$ kJ/kg, kondensatordagi bug' bosimi

$p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa, kondensatorga kirishdagi sovityuvchi suv harorati $t_s' = 13$ °C , kondensatordan chiqishdagi suv harorati esa kondensatordagi to'yingan bug' haroratidan 4 °C past bo'lsa, bug' turbinasi kondensatori uchun sovityuvchi suv sarfi va sovitytish karraliligi aniqlansin.

Yechish: 1 – jadvaldan $p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa bosimda to'yingan bug' haroratini $t_{t.b.} = 26,7$ °C ekanligini aniqlaymiz.

Kondensatordan chiqishdagi sovityuvchi suv harorati:

$$t_s'' = t_{t.b.} - 4 = 26,7 - 4 = 22,7 \text{ } ^\circ\text{C}.$$

$p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa bosimdagi kondensat entalpiyasini ham 1 – jadvalga ko'ra $i_k' = 111,8$ kJ/kg ekanligini topamiz.

Kondensatordagi sovityuvchi suv sarfini (1.47) formulaga ko'ra aniqlaymiz:

$$W = \frac{D_k \cdot (i_k - i_k')}{(t_s'' - t_s') \cdot c_s} = \frac{10 \cdot (2360 - 111,8)}{(22,7 - 13) \cdot 4,19} = 553 \text{ kg/s}$$

Kondensator uchun sovitytish karraliligi (kg/kg) (1.48) formulaga ko'ra:

$$m = \frac{W}{D_k} = \frac{553}{10} = 55,3 \text{ kg/kg}.$$

1.73 – masala. Agar kondensatorga kirayotgan bug' bosimi $p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa, uning quruqlik darajasi $x = 0,91$ ga, kondensatorga kirishdagi sovityuvchi suv harorati $t_s' = 11$ °C , kondensatordan chiqishdagi suv harorati esa kondensatordagi to'yingan bug' haroratidan 5 °C past bo'lsa bug' turbinasi kondensatori uchun sovitytish karraliligi aniqlansin.

Javob: m = 49,6 kg/kg.

1.74 – masala. Bitta $p_b = 0,4$ MPa bosimli oraliq bug' otboriga ega kondensatsion turbinaning ish sharoitida bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 4,0$ MPa, $t_0 = 425$ °C va kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa. Agar kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 6,5$ kg/s, kondensatorga kirishdagi sovityuvchi suv harorati $t_s' = 10$ °C , kondensatordan chiqishdagi suv harorati esa kondensatordagi to'yingan bug' haroratidan 4 °C past va bug' turbinasining

yuqori va past bosimli qismlarida ichki nisbiy f.i.k.i $\eta'_{n.i} = \eta''_{n.i} = 0,8$ ga teng bo'lsa bug' turbinasi kondensatori uchun sovituvchi suv sarfi va sovitish karraliligi aniqlansin.


Yechish: iS – diagrammadan foydalanib bug'ning p_0 va t_0 boshlang'ich parametrlariga ko'ra i_0 entalpiyani topamiz (1.16 – rasm): $i_0 = 3280$ kJ/kg. Bug'ning p_0 va t_0 parametrlardan p_b bosimgacha, p_b va t_b parametrlardan p_k bosimgacha adiabatik kengayish jarayoniga asosan $i_{a.k.} = 2725$ kJ/kg va $i_{k.a.} = 2130$ kJ/kg entalpiyalarni aniqlaymiz.

Otborga kirayotgan bug'ning entalpiyasini (1.42) formuladan aniqlaymiz:

$$i_b = i_0 - (i_0 - i_{a.k.}) \cdot \eta'_{oi} = 3280 - (3280 - 2725) \cdot 0,8 = 2836 \text{ kJ/kg}.$$

Kondensatordagi bug' entalpiyasini (1.43) formuladan aniqlaymiz:

$$i_k = i_b - (i_b - i_{k.a.}) \cdot \eta''_{oi} = 2836 - (2836 - 2130) \cdot 0,8 = 2271 \text{ kJ/kg}.$$



1.16 – rasm.

$p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa bosimda kondensat entalpiyasi va to'yingan bug' haroratini 1 – jadvaldan topamiz:

$$i'_k = 111,8 \text{ kJ/kg}, \quad t_{t.b.} = 26,7 \text{ °S}.$$

Kondensatordan chiqishdagi sovituvchi suv harorati:

$$t''_s = t_{t.b.} - 5 = 26,7 - 5 = 21,7 \text{ °S}.$$

Kondensatordagi sovituvchi suv sarfini (1.47) formulaga ko'ra aniqlaymiz:

$$W = \frac{D_k \cdot (i_k - i_k')}{(t_s'' - t_s') \cdot c_s} = \frac{6,5 \cdot (2271 - 111,8)}{(21,7 - 10) \cdot 4,19} = 286,4 \text{ kg/s}$$

Kondensator uchun sovitish karraliligi (kg/kg) (1.48) formulaga ko'ra:

$$m = \frac{W}{D_k} = \frac{286,4}{6,5} = 44 \text{ kg/kg.}$$

1.75 – masala. Bitta $p_b = 0,4$ MPa bosimli oraliq bug' otboriga ega kondensatsion turbinaning ish sharoitida bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,0$ MPa, $t_0 = 380$ °C va kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3$ Pa. Agar kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 8,5$ kg/s, kondensatorga kirishdagi sovituvchi suv harorati $t_s' = 11$ °C, kondensatordan chiqishdagi suv harorati $t_s'' = 21$ °C, bug' turbinasining yuqori bosimli qismdagi turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i (otborgacha) $\eta'_{n.i} = 0,74$, past bosimli qismdagi ichki nisbiy f.i.k.i (otbordan keyin) $\eta''_{n.i} = 0,76$ ga teng bo'lsa bug' turbinasi kondensatori uchun sovituvchi suv sarfi va sovitish karraliligi aniqlansin.

Javob: $W = 444,5$ kg/s; $m = 52,3$ kg/kg.

1.76 – masala. Kondensatsion turbinaning ish sharoitida bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5$ MPa, $t_0 = 435$ °C va kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3$ Pa. Agar kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 12,0$ kg/s, bug' turbinasining ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,76$ ga teng bo'lsa bug' turbinasi kondensatorida kondensatsiyalanuvchi bug'dan olinayotgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Javob: $Q = 27348$ kJ/s.

1.77 – masala. Agar kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 8,5$ kg/s, sovitish karraliligi $m = 54$ kg/kg, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 3,0 \cdot 10^3$ Pa, kondensatorga kirishdagi sovituvchi suv harorati $t_s' = 12$ °C va kondensatordan chiqishdagi suv harorati esa kondensatordagi to'yingan bug' haroratidan 4 °C past

bo'lsa bug' turbinasi kondensatorida sovituvchi suv qabul qilayotgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Javob: $Q = 15386 \text{ kJ/s}$.

1.78 – masala. Agar sovitish karraliligi $m = 55 \text{ kg/kg}$, kondensatorga kirishdagi sovituvchi suv harorati $t_s' = 10,5 \text{ }^\circ\text{C}$ va kondensatordan chiqishdagi suv harorati $t_s'' = 21,0 \text{ }^\circ\text{C}$ bo'lsa, effektiv quvvati $N_e = 2600 \text{ kVt}$ va solishtirma bug' sarfi $d_e = 6,5 \text{ kg/(kVt}\cdot\text{soat)}$ bo'lgan bug' turbinasi kondensatorida sovituvchi suv qabul qilayotgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Javob: $Q = 11374 \text{ kJ/s}$.

1.79 – masala. Agar kondensatordagi bug' entalpiyasi $i_k = 2350 \text{ kJ/kg}$, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 5 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, issiqlik uzatish koeffitsiyenti $k = 3,9 \text{ kVt/(m}^2\cdot\text{K)}$ va kondensatordagi o'rtacha harorat nabori $\Delta t_{o,r} = 10 \text{ }^\circ\text{C}$ bo'lsa, effektiv quvvati $N_e = 2000 \text{ kVt}$ va solishtirma bug' sarfi $d_e = 5,5 \text{ kg/(kVt}\cdot\text{soat)}$ bo'lgan bug' turbinasi kondensatorning sovitish yuzasini aniqlang.


Javob: $F_k = 173,3 \text{ m}^2$.

1.80 – masala. Effektiv quvvati $N_e = 5000 \text{ kVt}$ va solishtirma bug' sarfi $d_e = 5,8 \text{ kg/(kVt}\cdot\text{soat)}$ bo'lgan kondensatsion bug' turbinasi ish sharoitida bug'ning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 435 \text{ }^\circ\text{C}$ va kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3 \text{ Pa}$. Agar kondensatorga kirishdagi sovituvchi suv harorati $t_s' = 14 \text{ }^\circ\text{C}$, kondensatordan chiqishdagi suv harorati $t_s'' = 24 \text{ }^\circ\text{C}$, issiqlik uzatish koeffitsiyenti $k = 4 \text{ kVt/(m}^2\cdot\text{K)}$ va bug' turbinasining ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n,i} = 0,75$ ga teng bo'lsa, turbina kondensatorning sovitish yuzasini aniqlang.

Yechish: Kondensatsiyalanuvchi bug' sarfini (1.40) formuladan topamiz:

$$D = \frac{d_e \cdot N_e}{3600} = \frac{5,8 \cdot 5000}{3600} = 8,06 \text{ kg/s.}$$

iS – diagrammadan foydalanib bug'ning p_0 va t_0 boshlang'ich parametrlariga ko'ra i_0 entalpiyani topamiz (1.17 – rasm): $i_0 = 3320 \text{ kJ/kg}$.



1.17 – rasm.

Bug'ning adiabatik kengayish jarayoniga asosan iS – diagrammadan $i_{k.a.} = 2120$ kJ/kg entalpiyalarni aniqlaymiz.

Kondensatordagi bug' entalpiyasini (1.43) formuladan aniqlaymiz:

$$i_k = i_0 - (i_0 - i_{k.a.}) \cdot \eta_{oi}'' = 3320 - (3320 - 2120) \cdot 0,75 = 2420 \text{ kJ/kg.}$$

$p_k = 4,0 \cdot 10^3$ Pa bosimda kondensat entalpiyasi va to'yingan bug' haroratini 1 – jadvaldan topamiz:

$$i_k' = 121,0 \text{ kJ/kg}, \quad t_{t.b.} = 29,0 \text{ °S.}$$

Bir sekund mobaynida kondensatorda kondensatsiyalanuvchi bug'dan olinayotgan issiqlik miqdori (1.49) formulaga asosan:

$$Q = D_k \cdot (i_k - i_k') = 8,06 \cdot (2420 - 121) = 18530 \text{ kJ/s.}$$

Kondensatordagi o'rtacha harorat nabori (1.52) formuladan quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta t_{o'r} = t_{t.b.} - \frac{(t_s' + t_s'')}{2} = 29 - \frac{(14 + 24)}{2} = 10 \text{ °S.}$$

Kondensatorning sovitish yuzasini (1.51) formuladan aniqlaymiz:

$$F = \frac{Q}{k \cdot \Delta t_{o'r}} = \frac{18530}{4 \cdot 10} = 463,2 \text{ m}^2.$$

1.81 – masala. Agar kondensatordagi sovituvchi suv sarfi $W = 450$ kg/s, sovitish karraliligi $m = 55$ kg/kg, kiruvchi bug' entalpiyasi $i_k = 2400$ kJ/kg, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 4 \cdot 10^3$ Pa, kondensatorga kirayotgan sovituvchi suvning harorati $t_s' = 12$ °C, kondensatordan chiqishdagi suv harorati $t_s'' = 22$ °C va issiqlik uzatish koeffitsiyenti $k = 3,7$ kVt/(m²·K) ga teng bo'lsa, bug' turbinasi kondensatorning sovitish yuzasini aniqlang.

Javob: $F_k = 420,9$ m².

1.82 – masala. Agar kondensatordagi kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 7,6$ kg/s, kiruvchi bug' entalpiyasi $i_k = 2330$ kJ/kg, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 3,5 \cdot 10^3$ Pa, kondensatorning sovitish yuzasi $F_k = 410$ m² va issiqlik uzatish koeffitsiyenti $k = 3,65$ kVt/(m²·K) ga teng bo'lsa, bug' turbinasi kondensatoridagi o'rtacha harorat naporini aniqlang.

Javob: $\Delta t_{o'r} = 11,3$ °C .

1.83 – masala. Agar kondensatordagi kondensatsiyalanuvchi bug' sarfi $D_k = 7,8$ kg/s, sovitish karraliligi $m = 55$ kg/kg, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 4,0 \cdot 10^3$ Pa, kondensatorga kirayotgan sovituvchi suvning harorati $t_s' = 12$ °C, kondensatordan chiqishdagi suv harorati kondensatordagi to'yingan bug' haroratidan 6 °C past, kondensatorning sovitish yuzasi $F_k = 430$ m² va issiqlik uzatish koeffitsiyenti $k = 4,0$ kVt/(m²·K) ga teng bo'lsa, bug' turbinasi kondensatoridagi o'rtacha harorat naporini aniqlang.

Javob: $\Delta t_{o'r} = 11,5$ °C .

**1 – jadval. To'yinish egri chizig'ida quruq to'yingan bug' va suvning
parametrlari (bosim bo'yicha)**

<i>p</i> , Mpa	<i>t_b</i> , °C	<i>v'</i> , m ³ /kg	<i>v''</i> , m ³ /kg	<i>i'</i> , kJ/kg	<i>i''</i> , kJ/kg	<i>S'</i> , kJ/(kg·K)	<i>S''</i> , kJ/(kg·K)
0,0010	6,936	0,0010001	130,04	29,18	2513,4	0,1053	8,9749
0,0015	13,001	0,0010007	88,38	54,61	2524,7	0,1952	8,8268
0,0020	17,486	0,0010014	67,24	73,40	2533,1	0,2603	8,7227
0,0025	21,071	0,0010021	54,42	88,36	2539,5	0,3119	8,6424
0,0030	24,078	0,0010028	45,77	100,93	2545,3	0,3547	8,5784
0,0035	26,674	0,0010035	39,56	111,81	2549,9	0,3912	8,5222
0,0040	28,95	0,0010042	34,93	121,33	2553,7	0,4225	8,4737
0,005	32,89	0,0010054	28,24	137,79	2560,9	0,4764	8,3943
0,010	45,82	0,0010102	14,70	191,84	2583,9	0,6496	8,1494
0,020	60,08	0,0010171	7,652	251,48	2609,2	0,8324	7,9075
0,025	64,99	0,0010198	6,201	272,03	2617,6	0,8934	7,8300
0,030	69,12	0,0010223	5,232	289,30	2624,6	0,9441	7,7673
0,04	75,87	0,0010264	3,999	317,62	2636,3	1,0261	7,6710
0,05	81,33	0,0010299	3,243	340,53	2645,2	1,0912	7,5923
0,10	99,62	0,0010432	1,696	417,47	2674,9	1,3026	7,3579
0,20	120,23	0,0010606	0,8860	504,74	2706,8	1,5306	7,1279
0,30	133,54	0,0010733	0,6055	561,7	2725,5	1,6716	6,9922
0,5	151,84	0,0010927	0,3749	640,1	2748,8	1,8605	6,8221
0,6	158,84	0,0011009	0,3156	670,6	2756,9	1,9311	6,7609
0,7	164,96	0,0011081	0,2728	697,2	2763,7	1,9923	6,7090
0,8	170,41	0,0011149	0,2403	720,9	2769,0	2,0461	6,6630
0,9	175,36	0,0011213	0,2149	742,7	2773,7	2,0945	6,6223
1,0	179,88	0,0011273	0,1945	762,4	2777,8	2,1383	6,5867
1,5	198,28	0,0011538	0,1317	844,5	2791,8	2,3148	6,4458
2,0	212,37	0,0011768	0,09961	908,6	2799,2	2,4471	6,3411

3,0	233,83	0,0012164	0,06663	1008,4	2803,1	2,6455	6,1859
4,0	250,33	0,0012520	0,04977	1087,5	2800,6	2,7965	6,0689
5,0	263,91	0,0012858	0,03943	1154,2	2793,9	2,9210	5,9739
6,0	275,56	0,0013185	0,03243	1213,9	2784,4	3,0276	5,8894
7,0	285,80	0,0013510	0,02738	1267,6	2772,3	3,1221	5,8143
8,0	294,98	0,0013838	0,02352	1317,3	2758,6	3,2079	5,7448
9,0	303,31	0,0014174	0,02049	1363,9	2742,6	3,2866	5,6783
10,0	310,96	0,0014522	0,01803	1407,9	2724,8	3,3601	5,6147
12,0	324,64	0,001527	0,01426	1491,1	2684,6	3,4966	5,4930
14,0	336,63	0,001611	0,01149	1570,8	2637,9	3,6233	5,3731
16,0	347,32	0,001710	0,009319	1649,6	2581,7	3,7456	5,2478
18,0	356,96	0,001839	0,007505	1732,2	2510,6	3,8708	5,1054
20,0	365,72	0,00203	0,00586	1826,8	2410,3	4,0147	4,9280
22,0	373,71	0,00269	0,00269	2009,7	2195,6	4,2943	5,5815

II-BOB. GAZ TURBINASI.

2.1. GAZ TURBINASINING KO'RSATKICHLARINI HISOBLASH

Gaz turbinasi deb - ishchi jismi yonuvchi gaz va havo aralashmasidan iborat bo'lgan issiqlik yuritgichiga aytiladi.

Gaz turbinasi pog'onasida amalga oshadigan ish jarayonining xarakteristikalarini. Turbina pog'onasida ko'zda tutilgan issiqlik tushishi (kJ/kg) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$h_0 = \left(\frac{k}{k-1} \right) \cdot R \cdot T_0 \cdot \left(1 - \left(\frac{p_2}{p_0} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right), \quad (2.1)$$

bu yerda: k – adiabat ko'rsatkichi; R – 1 kg gaz uchun gaz doimiysi, J/(kg·K); p_0 va T_0 – boshlang'ich tezligi hisobga olingan gazning turbina pog'onalarini oldidagi boshlang'ich parametrlari [bosim (Pa) va absolyut harorat (K)]; p_2 – turbina pog'onasidan keyingi gaz bosimi, Pa.

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligi (m/s):

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{h_0 \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{\left[\left(\frac{k}{k-1} \right) \cdot R \cdot T_0 \cdot \left(1 - \left(\frac{p_2}{p_0} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right) \right] \cdot (1 - \rho)}, \quad (2.2)$$

bu yerda: $\varphi = 0,93 \div 0,98$ – soplodaning tezlik koeffitsiyenti; $p_2 = p_1$ – turbina pog'onasidan keyingi gaz bosimi, Pa; ρ – turbina pog'onasining reaktivlik darajasi.

Turbina pog'onasining reaktivlik darajasi deb ishchi kuraklaridagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishining h_2 , pog'onadagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishiga $h_0 = h_1 + h_2$ nisbatiga aytiladi (bu yerda h_1 – soploda ko'zda tutilgan issiqlik tushishi), ya'ni:

$$\rho = \frac{h_2}{(h_1 + h_2)}. \quad (2.3)$$

Kuraklar oralig'idagi aylanma tezlik ko'rsatkichi (m/s):

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60}, \quad (2.4)$$

bu yerda d – pog‘onaning o‘rtacha diametri, m; n – turbina valining aylanishlar chastotasi, ayl/min.

Ishchi kurak kanallariga kirishdagi gazning nisbiy tezligi (m/s) quyidagicha aniqlanadi:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1}, \quad (2.5)$$

bu yerda α_1 – disk yassiligiga nisbatan soplning qiyalik burchagi.

$\rho = 0$ bo‘lgan aktiv pog‘onada ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi gazning nisbiy tezligi (m/s) quyidagicha aniqlanadi:

$$w_2 = \psi \cdot w_1, \quad (2.6)$$

$\psi = 0,86 \div 0,95$ – ishchi kuragining tezlik koeffitsiyenti.

$\rho > 0$ bo‘lgan aktiv va reaktiv pog‘onalarda ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi gazning nisbiy tezligi (m/s) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot h_0 + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot (i_0 - i_1) + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2}, \quad (2.7)$$

Ishchi kurak kanallari oralig‘idan chiqayotgan gazning absolyut tezligi (m/s):

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2}, \quad (2.8)$$

bu yerda β_2 – gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi, uning qiymati, odatda, $\beta_2 = \beta_1 - (2 \div 10^\circ)$ munosabatdan foydalanib tanlanadi.

Gazning ishchi kuragiga kirishidagi β_1 – burchak tezliklar uchburchagidan kelib chiquvchi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u}. \quad (2.9)$$

Gazning ishchi kurak kanallari oralig‘idan absolyut tezlik bilan chiqishdagi qiyalik burchagi α_2 ham tezliklar uchburchagidan kelib chiquvchi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\cos \alpha_2 = \frac{w_2 \cdot \cos \beta_2 - u}{c_2}. \quad (2.10)$$

Pog'ona kuraklarida 1 kg gazning bajargan ishi (kJ/kg):

$$L = u \cdot (c_1 \cdot \cos \alpha_1 + c_2 \cdot \cos \alpha_2) = u \cdot (w_1 \cdot \cos \beta_1 + w_2 \cdot \cos \beta_2). \quad (2.11)$$

Turbina pog'onalarida issiqlik isroflari va ularning foydali ish koeffitsiyentlari. Bug' turbinalariniki kabi gaz turbina pog'onalaridagi ish jarayoni ham bir qator issiqlik energiyasi isroflari hisobiga amalga oshadi. Turbina pog'onalaridagi asosiy issiqlik energiyasi isroflariga soploda, ishchi kuraklarida, absolyut chiqish tezligi bilan, ishqalanish va ventilyatsiyaga, zichlama tirqishlaridan silqib oqish tufayli sodir bo'ladigan isroflar kiradi.

Bu issiqlik isroflariga quyidagilar misol bo'la oladi:

turbina pog'onasining soplosida gazni uyurmaviy harakati va ishqalanishi hisobiga issiqlik energiyasining isrofi (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1 \right) \cdot \frac{c_1^2}{2000}; \quad (2.12)$$

aktiv turbina pog'onasining ishchi kuraklarida issiqlik energiyasining isrofi (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_k = (1 - \psi^2) \cdot \frac{w_1^2}{2000}; \quad (2.13)$$

reaktiv turbina pog'onasining ishchi kuraklarida issiqlik energiyasining isrofi (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_k = \left(\frac{1}{\psi^2} - 1 \right) \cdot \frac{w_2^2}{2000}; \quad (2.14)$$

absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofi (kJ/kg):

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000}; \quad (2.15)$$

Turbina pog'onasining soplosidagi, ishchi kuragidagi va absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isroflari pog'ona ishchi kuraklarining nisbiy foydali ish koeffitsiyentini $\eta_{n.k.}$ belgilaydi va 1 kg gazning turbina pog'onasida bajargan L

mexanik ishini pogʻonaning umumiy koʻzda tutilgan issiqlik tushishiga h_0 nisbatidan topiladi:

$$\eta_{n.k.} = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch})}{h_0} = \frac{L}{h_0}. \quad (2.16)$$

Turbina diski aylanganda ishqalanish va ventilyatsiya tufayli issiqlik energiyasi isrofi $h_{i.v.}$ (kJ/kg) quyidagicha aniqlanadi:

$$h_{i.v.} = \left[1,46 \cdot d^2 + 0,83 \cdot (1 - \varepsilon) \cdot d \cdot l_2^{1,5} \right] \cdot \frac{1}{v} \cdot \frac{u^3}{10^6} \cdot \frac{1}{M_g}, \quad (2.17)$$

bu yerda: d – pogʻonaning oʻrtacha diametri, m; ε – pogʻonaning partiiallik darajasi; l_1 – kurak balandligi, sm; v – disk atrofini oʻrab turgan gazning solishtirma hajmi, m³/kg; M_g – pogʻona orqali gaz sarfi, kg/s.

Zichlama tirqishlari orqali gaz sarfi tufayli issiqlik energiyasi isrofi (kJ/kg):

$$h_{g.s.} = \frac{M_{g.s.} \cdot h_0}{M_g}; \quad (2.18)$$

bu yerda $M_{g.s.}$ – gaz isrofi, kg/s.

Pogʻonadagi issiqlik isroflari pogʻonaning ichki nisbiy f.i.k.ini $\eta_{n.i}^p$ belgilaydi va pogʻonadagi foydali issiqlik tushishining koʻzda tutilgan issiqlik tushishiga nisbatidan aniqlanadi, yaʼni:

$$\eta_{n.i}^p = \frac{h_i}{h_0} = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch} - h_{i.v.} - h_{g.s.})}{h_0}. \quad (2.19)$$

Turbinalarning f.i.k.i. Turbinaning ichki qismida sodir boʻlayotgan issiqlik isroflari foydali ishlatilgan issiqlik tushishini H_i aniqlashga yordam beradi va shu asosda turbinaning ichki nisbiy f.i.k.ini η_{oi} topiladi:

$$\eta_{ni} = \frac{H_i}{H_0}. \quad (2.20)$$

Turbinaning ichki nisbiy f.i.k.ini η_{oi} qiymati gaz turbinalari uchun 0,85 ÷ 0,9 oraliqda farqlanadi.

Turbinada sodir bo'layotgan mexanik issiqlik isroflari asosida va effektiv quvvatini ichki quvvatga nisbatidan turbinaning mexanik f.i.k.ini aniqlash mumkin:

$$\eta_{ni} = \frac{N_e}{N_i}. \quad (2.21)$$

Turbinaning mexanik f.i.k.ini η_m qiymati gaz turbinalari uchun $0,96 \div 0,99$ oraliqda farqlanadi.

Turbinaning ichki qismidagi issiqlik isroflari va mexanik isroflar ko'paytmasidan gaz turbinasining nisbiy effektiv f.i.k.ini aniqlaymiz:

$$\eta_{n.e} = \eta_{oi} \cdot \eta_m. \quad (2.22)$$

Turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.ini $\eta_{n.e}$ qiymati gaz turbinalari uchun $0,8 \div 0,9$ oraliqda farqlanadi.

Turbinalar quvvati. Turbina validan olinayotgan quvvat effektiv quvvat (kVt) deb ataladi va quyidagi formuladan topiladi:

$$N_e = G_g \cdot H_0 \cdot \eta_{n.e}. \quad (2.23)$$

Turbinaning ichki quvvatini (kVt) (21) formuladan topiladi.

Turbina pog'onasi orqali gaz sarfi. Turbina orqali sekunlik gaz sarfi (kg/s) quyidagicha aniqlanadi:

$$G_g = \frac{N_e}{H_0 \cdot \eta_{n.e}}. \quad (2.24)$$

Turbina orqali sekunlik gaz sarfini G_g , effektiv quvvatga N_e nisbatidan gazning turbinaga effektiv solishtirma sarfini aniqlanadi, ya'ni:

$$g_e = \frac{G_g}{N_e} = \frac{3600}{H_0 \cdot \eta_{n.e}}. \quad (2.25)$$

2.1 – masala. Aktiv pog'onada gaz boshlang'ich parametrlari $p_0 = 18,0$ MPa bosim va $t_0 = 650$ °C haroratdan $p_1 = 0,1$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,97$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,9$ m, turbina

valining aylanishlar chastotasi $n = 60$ ayl/s, adiabat ko'rsatkichi $k = 1,35$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K) ga teng bo'lsa, soplodan oqib o'tayotgan gazning haqiqiy tezligi va kuraklar oralig'idagi aylanma tezlik aniqlansin.

Javob: $c_1 = 523$ m/s; $u = 169,5$ m/s.

2.2 – masala. Agar turbina pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 200$ kJ/kg, soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,9$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3000$ ayl/min va ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,89$ ga teng bo'lsa, gazning aktiv pog'ona ishchi kuraklariga kirish va chiqishdagi nisbiy tezliklari aniqlansin.

Javob: $w_1 = 473,5$ m/s; $w_2 = 412$ m/s.

2.3 – masala. Aktiv pog'onada gaz boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,29$ MPa bosim va $t_0 = 800$ °C haroratdan $p_1 = 0,15$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 15^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan gazning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$, gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = \beta_1 - 5^\circ$, adiabat ko'rsatkichi $k = 1,34$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K) ga teng bo'lsa, gazning ishchi kurak kanallari orasidan absolyut tezlik bilan chiqishida sodir bo'lgan issiqlik energiyasi isrofi aniqlansin va pog'ona uchun tezliklar uchburchagi qurilsin.

Javob: $c_2 = 108$ m/s.

2.4 – masala. Reaktiv pog'onada gaz boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,29$ MPa bosim va $t_0 = 820$ °C haroratdan $p_2 = 0,15$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,965$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,875$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 17^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan gazning haqiqiy tezligiga

nisbati $u/c_1 = 0,5$, gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 20^\circ$, pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,48$, adiabat ko'rsatkichi $k = 1,34$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K) ga teng bo'lsa, pog'ona uchun tezliklar uchburchagi qurilsin.

Yechish: Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligini (m/s) (2.2) formuladan aniqlaymiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{\left[\left(\frac{k}{k-1} \right) \cdot R \cdot T_0 \cdot \left(1 - \left(\frac{p_2}{p_0} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right) \right]} \cdot (1 - \rho) =$$

$$= 44,7 \cdot 0,965 \cdot \sqrt{\left[\left(\frac{1,34}{1,34-1} \right) \cdot 0,288 \cdot 1093 \cdot \left(1 - \left(\frac{0,15}{0,29} \right)^{\frac{1,34-1}{1,34}} \right) \right]} \cdot (1 - 0,48) = 431 \text{ m/s.}$$

Kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikni $u/c_1 = 0,5$ nisbatdan topamiz:

$$u = 0,5 \cdot c_1 = 0,5 \cdot 431 = 215,5 \text{ m/s.}$$

Ishchi kurak kanallariga kirishdagi gazning nisbiy tezligini (2.5) formuladan aniqlaymiz:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{431^2 + 215,5^2 - 2 \cdot 431 \cdot 215,5 \cdot 0,956} = 234 \text{ m/s.}$$

Pog'ona ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi gazning nisbiy tezligi (2.7) formuladan quyidagicha aniqlaymiz:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot \left[\left(\frac{k}{k-1} \right) \cdot R \cdot T_0 \cdot \left(1 - \left(\frac{p_2}{p_0} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right) \right]} + \left(\frac{w_1}{44,7} \right)^2 =$$

$$= 44,7 \cdot 0,875 \cdot \sqrt{0,48 \cdot \left[\left(\frac{1,34}{1,34-1} \right) \cdot 0,288 \cdot 1093 \cdot \left(1 - \left(\frac{0,15}{0,29} \right)^{\frac{1,34-1}{1,34}} \right) \right]} + \left(\frac{234}{44,7} \right)^2 = 428 \text{ m/s.}$$

Ishchi kurak kanallari oralig'idan chiqayotgan gazning absolyut tezligi (2.8) formuladan:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{428^2 + 215,5^2 - 2 \cdot 428 \cdot 215,5 \cdot 0,94} = 237 \text{ m/s.}$$

Gazning ishchi kuragiga kirish burchagi quyidagi (2.9) tenglamadan aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \beta_1 = \frac{c_1 \cdot \sin \alpha_1}{c_1 \cdot \cos \alpha_1 - u} = \frac{431 \cdot 0,292}{431 \cdot 0,956 - 215,5} = 0,64;$$


$$\beta_1 = 32^\circ 36'.$$

Gazning ishchi kurak kanallari oralig'idan absolyut tezlik bilan chiqishdagi qiyalik burchagi esa (2.10) tenglamadan topiladi:

$$\cos \alpha_2 = \frac{w_2 \cdot \cos \beta_2 - u}{c_2} = \frac{428 \cdot 0,94 - 215,5}{237} = 0,8;$$

$$\alpha_2 = 36^\circ 48'.$$

Ushbu hisob asosida qurilgan tezliklar uchburchagi 2.1 – rasmda tasvirlangan.



2.1 – rasm.

2.5 – masala. Reaktiv pog'onada gaz boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,48$ MPa bosim va $t_0 = 800$ °C haroratdan $p_2 = 0,26$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina pog'onasining ishchi kuraklarida ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_2 = 86,5$ kJ/kg, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K) ga teng bo'lsa, pog'onaning reaktivlik darajasini aniqlang.

Javob: $\rho = 0,5$.

2.6 – masala. Agar turbinaning reaktiv pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 110$ kJ/kg, soplning tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,965$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,86$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 16^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib

o'tayotgan gazning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,44$, gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi ishchi kuragiga kirish burchagiga teng, ya'ni $\beta_2 = \beta_1 = 22^\circ$ va pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,5$ ga teng bo'lsa, ushbu reaktiv pog'onada 1 kg gazning bajargan ishini aniqlang.

Javob: $l = 67,4$ kJ/kg.

2.7 – masala. Aktiv pog'onada gaz boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,18$ MPa bosim va $t_0 = 650$ °C haroratdan $p_1 = 0,1$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,97$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,9$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 14^\circ$, kuraklar oralig'idagi aylanma tezlikning soplodan oqib o'tayotgan gazning haqiqiy tezligiga nisbati $u/c_1 = 0,5$, gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 21^\circ$, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,35$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K) ga teng bo'lsa, ishchi kuragining nisbiy f.i.k.i aniqlansin.

Javob: $\eta_{n.k.} = 0,86$.

2.8 – masala. Agar turbinaning aktiv pog'onasidagi ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $h_0 = 185$ kJ/kg, soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,95$, ishchi kuraklarining tezlik koeffitsiyenti $\psi = 0,87$, soploneg disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 15^\circ$, gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 23^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 1,35$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 3600$ ayl/min, pog'onaning parsiallik darajasi $\varepsilon = 1$, kuraklar balandligi $l_l = 0,07$ m, gazning solishtirma hajmi $v = 1,51$ m³/kg, pog'ona orqali gaz sarfi $M_g = 25$ kg/s va silqib oqishda gaz sarfi $M_{g.s.} = 0,4$ kg/s ga teng bo'lsa, pog'ona ishchi kuragining ichki nisbiy f.i.k.i aniqlansin.

Javob: $\eta_{n.i}^p = 0,773$.

2.9 – masala. Reaktiv pog'onada gaz boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,48$ MPa bosim va $t_0 = 800$ °C haroratdan $p_2 = 0,26$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina soploneg tezlik koeffitsiyenti $\varphi = 0,96$, ishchi kuraklarining tezlik

koefitsiyenti $\psi = 0,95$, soplning disk yassiligiga nisbatan qiyalik burchagi $\alpha_1 = 22^\circ$, gazning ishchi kuragidan chiqish burchagi $\beta_2 = 24^\circ$, pog'onaning o'rtacha diametri $d = 0,71$ m, turbina valining aylanishlar chastotasi $n = 6000$ ayl/min, pog'onaning parsiallik darajasi $\varepsilon = 1$, kuraklar balandligi $l_l = 0,06$ m, gazning solishtirma hajmi $v = 1,51$ m³/kg, pog'onaning reaktivlik darajasi $\rho = 0,35$, pog'ona orqali gaz sarfi $M_g = 20$ kg/s va silqib oqishda gaz sarfi $M_{g.s.} = 0,2$ kg/s, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ va gaz doimiysi $R = 287$ J/(kg·K)ga teng bo'lsa, ushbu reaktiv pog'onaning ichki nisbiy f.i.k.ini aniqlang.

Yechish: Turbina pog'onasida ko'zda tutilgan issiqlik tushishini (2.1) – formuladan aniqlaymiz:

$$h_0 = \left(\frac{k}{k-1}\right) \cdot R \cdot T_0 \cdot \left(1 - \left(\frac{p_2}{p_0}\right)^{\frac{k-1}{k}}\right) = \left(\frac{1,4}{1,4-1}\right) \cdot 0,287 \cdot 1073 \cdot \left(1 - \left(\frac{0,26}{0,48}\right)^{\frac{1,4-1}{1,4}}\right) = 172,4 \text{ kJ/kg.}$$

Soplodan oqib o'tayotgan bug'ning haqiqiy tezligini (2.2) formuladan aniqlaymiz:

$$c_1 = 44,7 \cdot \varphi \cdot \sqrt{h_0 \cdot (1 - \rho)} = 44,7 \cdot 0,96 \cdot \sqrt{172,4 \cdot (1 - 0,35)} = 455 \text{ m/s.}$$

Turbina soplosida gazning issiqlik energiyasi isrofini (2.12) formuladan aniqlaymiz:

$$h_s = \left(\frac{1}{\varphi^2} - 1\right) \cdot \frac{c_1^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,96^2} - 1\right) \cdot \frac{455^2}{2000} = 8,9 \text{ kJ/kg.}$$

Kuraklar oralig'idagi aylanma tezlik ko'rsatkichi (2.4) formulaga ko'ra:

$$u = \frac{\pi \cdot d \cdot n}{60} = \frac{3,14 \cdot 0,71 \cdot 6000}{60} = 223 \text{ m/s.}$$

Ishchi kurak kanallariga kirishdagi gazning nisbiy tezligi (2.5) formulaga ko'ra aniqlaymiz:

$$w_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2 \cdot c_1 \cdot u \cdot \cos \alpha_1} = \sqrt{455^2 + 223^2 - 2 \cdot 455 \cdot 223 \cdot 0,927} = 262 \text{ m/s.}$$

Reaktiv pog'ona ishchi kurak kanallari orasidan chiqishdagi gazning nisbiy tezligi (2.7) formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$w_2 = 44,7 \cdot \psi \cdot \sqrt{\rho \cdot h_0 + \left(\frac{w_1}{44,7}\right)^2} = 44,7 \cdot 0,95 \cdot \sqrt{0,35 \cdot 172,4 + \left(\frac{262}{44,7}\right)^2} = 414 \text{ m/s.}$$

Pogʻona ishchi kuraklarida issiqlik energiyasining isrofi (2.14) formulaga koʻra aniqlanadi:

$$h_k = \left(\frac{1}{\psi^2} - 1\right) \cdot \frac{w_2^2}{2000} = \left(\frac{1}{0,95^2} - 1\right) \cdot \frac{414^2}{2000} = 9,4 \text{ kJ / kg.}$$

Ishchi kurak kanallari oraligʻidan chiqayotgan gazning absolyut tezligi (2.8) formuladan:

$$c_2 = \sqrt{w_2^2 + u^2 - 2 \cdot w_2 \cdot u \cdot \cos \beta_2} = \sqrt{414^2 + 223^2 - 2 \cdot 414 \cdot 223 \cdot 0,914} = 229 \text{ m/s.}$$

Absolyut chiqish tezligi bilan issiqlik energiyasi isrofini (2.15) formuladan aniqlaymiz:

$$h_{ch} = \frac{c_2^2}{2000} = \frac{229^2}{2000} = 26,2 \text{ kJ / kg.}$$

Turbina diski aylanganda ishqalanish va ventilyatsiya tufayli issiqlik energiyasi isrofi (2.17) formuladan aniqlanadi:

$$\begin{aligned} h_{i.v} &= \left[1,46 \cdot d^2 + 0,83 \cdot (1 - \varepsilon) \cdot d \cdot l_2^{1,5}\right] \cdot \frac{1}{v} \cdot \frac{u^3}{10^6} \cdot \frac{1}{M_g} = \\ &= \left[1,46 \cdot 0,71^2 + 0,83 \cdot (1 - 1) \cdot 0,71 \cdot 6_2^{1,5}\right] \cdot \frac{1}{1,51} \cdot \frac{223^3}{10^6} \cdot \frac{1}{20} = 0,27 \text{ kJ / kg.} \end{aligned}$$

Zichlama tirqishlari orqali gaz sarfi tufayli issiqlik energiyasi isrofi esa (2.18) formulaga asosan:

$$h_{g.s} = \frac{M_{g.s} \cdot h_0}{M_g} = \frac{0,2 \cdot 172,4}{20} = 1,72 \text{ kJ / kg.}$$

Pogʻonaning ichki nisbiy f.i.k.ini (2.19) formuladan aniqlaymiz:

$$\eta_{n.i}^p = \frac{(h_0 - h_s - h_k - h_{ch} - h_{i.v.} - h_{g.s.})}{h_0} = \frac{(172,4 - 8,9 - 9,4 - 26,2 - 0,27 - 1,72)}{172,4} = 0,74.$$

2.10 – masala. Turbinaning ish sharoitida gazning boshlangʻich parametrlari $p_0 = 0,32$ MPa bosim va $t_0 = 827$ °C haroratdan $p_2 = 0,15$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina orqali gaz sarfi $G_g = 28$ kg/s, turbinaning nisbiy

effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,74$, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,34$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K)ga teng bo'lsa, ushbu turbinaning effektiv quvvatini va solishtirma effektiv gaz sarfini aniqlang.

Yechish: Turbinada ko'zda tutilgan issiqlik tushishini (2.1) formuladan aniqlaymiz:

$$H_0 = \left(\frac{k}{k-1} \right) \cdot R \cdot T_0 \cdot \left(1 - \left(\frac{p_2}{p_0} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right) = \left(\frac{1,34}{1,34-1} \right) \cdot 0,288 \cdot 1100 \cdot \left(1 - \left(\frac{0,15}{0,32} \right)^{\frac{1,34-1}{1,34}} \right) = 216,7 \text{ kJ/kg}.$$

Turbinaning effektiv quvvatini (2.23) formuladan topamiz:

$$N_e = G_g \cdot H_0 \cdot \eta_{n.e} = 28 \cdot 216,7 \cdot 0,74 = 4488 \text{ kVt}.$$

Gazning turbinaga effektiv solishtirma sarfini (2.25) formuladan aniqlaymiz:

$$g_e = \frac{3600}{H_0 \cdot \eta_{n.e}} = \frac{3600}{216,7 \cdot 0,74} = 22,4 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}.$$

2.11 – masala. Turbinaning ish sharoitida gazning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,48$ MPa bosim va $t_0 = 727$ °C haroratdan $p_2 = 0,26$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina orqali gaz sarfi $G_g = 26$ kg/s, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,75$, turbinaning mexanik f.i.k.i $\eta_m = 0,98$, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ va gaz doimiysi $R = 287$ J/(kg·K)ga teng bo'lsa, ushbu turbinaning ichki quvvatini aniqlang.

Javob: $N_i = 3197$ kVt

2.12 – masala. Turbinaning ish sharoitida gazning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,292$ MPa bosim va $t_0 = 800$ °C haroratdan $p_2 = 0,152$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina orqali gaz sarfi $G_g = 28$ kg/s, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,79$, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,34$ va gaz doimiysi $R = 288$ J/(kg·K)ga teng bo'lsa, ushbu turbinaning effektiv quvvatini va solishtirma effektiv gaz sarfini aniqlang.

Javob: $N_e = 4092$ kVt; $g_e = 24,6$ kg/(kVt·soat).

2.13 – masala. Turbinaning ish sharoitida gazning boshlang'ich parametrlari $p_0 = 0,48$ MPa bosim va $t_0 = 800$ °C haroratdan $p_2 = 0,26$ MPa bosimgacha kengaymoqda. Agar turbina orqali gaz sarfi $G_g = 20$ kg/s, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,75$ dan $\eta'_{n.e} = 0,73$ gacha kamaysa turbinaning effektiv quvvati qanchaga kamayadi. Ishchi gaz havoning xususiyatlariga ega.

Javob: $\Delta N_e = 70$ kVt.

2.14 – masala. Agar turbinaning effektiv quvvati $N_e = 7000$ kVt, u orqali gaz sarfi $G_g = 28,5$ kg/s, turbinada ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $H_0 = 295$ kJ/kg va foydali ishlatilgan issiqlik $H_i = 253$ kJ/kg ga teng bo'lsa turbinaning nisbiy effektiv va ichki f.i.k.larini aniqlang.

Javob: $\eta_{n.e} = 0,832$; $\eta_{n.i} = 0,858$.

2.15 – masala. Agar turbinaning effektiv quvvati $N_e = 6400$ kVt, turbinada ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $H_0 = 276$ kJ/kg, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,79$ va turbinaning nisbiy ichki f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,81$ ga teng bo'lsa turbina orqali gazning sekundlik sarfini va turbinaning mexanik f.i.k.ini aniqlang.

Javob: $G_g = 29,4$ kg/s; $\eta_m = 0,975$.

2.2. GTQLARINING QUVVATI VA FOYDALI ISH KOEFFISIYENTINI HISOBLASHGA DOIR MASALALAR YECHISH

GTQLarda sodir bo'ladigan issiqlik isroflari ikki guruhga ish jismining holatini o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni ichki va tashqi isroflar guruhiga bo'linadi. Asosiy ichki isroflarga gaz turbinasi, uning kompressori va yonish kamerasida sodir bo'ladigan issiqlik isroflari kiradi.

GTQLarning ichki isroflari qurilmaning ichki f.i.k.ini baholashga yordam beradi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\eta_i^{GTQ} = \frac{\eta_{oi} \cdot \tau \cdot \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) - (\lambda^m - 1) \cdot \left(\frac{1}{\eta_k}\right)}{\tau - 1 - (\lambda^m - 1) \cdot \left(\frac{1}{\eta_k}\right)} \cdot \eta_{yo.k}, \quad (2.26)$$

bu yerda: η_{oi} – gaz turbinasining ichki nisbiy f.i.k.; $\eta_{yo.k.}$ – yonish kamerasining f.i.k.i; η_k – kompressorning ichki (adiabatik) f.i.k.i; $\tau = T_1/T_3$ – yonish kamerasidan chiqayotgan gazlarning absolyut haroratini (T_1) kompressorga soʻrilayotgan havoning absolyut haroratiga (T_3) nisbati; $\lambda = p_2/p_1$ – kompressorda havo bosimining koʻtarilish darajasi; $m = (k-1)/k$, k – adiabata koʻrsatkichi.

Tashqi (mexanik) isroflar qurilmaning mezanik f.i.k.ini ifodalaydi η_m^{GTQ} .

Ichki va tashqi isroflar qurilmaning effektiv f.i.k.ini aniqlash imkonini beradi:

$$\eta_e^{GTQ} = \eta_i^{GTQ} \cdot \eta_m^{GTQ}. \quad (2.27)$$

Qurilmaning effektiv quvvati (kVt) quyidagi formuladan topiladi:

$$N_e^{GTQ} = N_{e.t} \cdot N_{e.k}. \quad (2.28)$$

bu yerda: $N_{e.t}$ – gaz turbinasining effektiv quvvati, kVt; $N_{e.k.}$ – kompressor uzatmasining effektiv quvvati, kVt.

Ichki quvvat (kVt):

$$N_i^{GTQ} = \frac{N_e^{GTQ}}{\eta_m^{GTQ}}. \quad (2.29)$$

Havoning solishtirma sarfi [kg/(kVt·soat)]

$$d_i^{GTQ} = \frac{3600 \cdot G_h}{N_i^{GTQ}}. \quad (2.30)$$

Issiqlikning solishtirma sarfi [kJ/(kVt·soat)]

$$q_i^{GTQ} = \frac{3600}{\eta_i^{GTQ}}. \quad (2.31)$$

Yoqilgʻining solishtirma effektiv sarfi [kg/(kVt·soat)]

$$b_e^{GTQ} = \frac{3600 \cdot B}{N_e^{GTQ}} = \frac{3600}{\eta_e^{GTQ} \cdot Q_q^i} \quad (2.32)$$

bu yerda: B – GTQga yoqilg'I sarfi, kg/s.

GTQning samaradorligini oshirish usullari. GTQning samaradorligini oshirish, turbinada ishlatib bo'lingan gaz issiqligidan regeneratsiyalash tizimida foydalanish, hamda havoni oraliq sovutgichlardan o'tkazish orqali pog'onali siqish yordamida amalgam oshirilishi mumkin.

Issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQlarning ichki f.i.k.ini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\eta_i^{GTQ} = \frac{\eta_{oi} \cdot \tau \cdot \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) - \left(\frac{\lambda^m - 1}{\eta_k}\right)}{\tau - \left\{ (1 - \sigma) \cdot \left[1 + \left(\frac{\lambda^m - 1}{\eta_k}\right)\right] + \sigma \cdot \tau \cdot \left[1 - \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) \cdot \eta_{oi}\right] \right\}} \cdot \eta_{yo.k} \quad (2.33)$$

bu yerda: σ – regeneratsiya darajasi bo'lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma = \frac{(t_h' - t_h'')}{(t_g' - t_h'')} \quad (2.34)$$

bu yerda: t_h' va t_h'' – regenerator oldidagi va undan keyingi havoning harorati, °C ;

t_g' – regenerator oldidagi gaz harorati, °C .

Issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQlarning effektiv f.i.k.i:

$$\eta_e^{GTQ} = \eta_i^{GTQ} \cdot \eta_m^{GTQ} \quad (2.35)$$

Havoni ikki pog'onali siqish va regeneratsiyalash tizimiga ega GTQlarning ichki f.i.k.ini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\eta_i^{GTQ} = \frac{\left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) \cdot \eta_{oi} - \left(\frac{\lambda_1^m - 1}{\tau_1 \cdot \eta_{k1}}\right) - \left(\frac{\lambda_2^m - 1}{\tau_2 \cdot \eta_{k2}}\right)}{1 - \sigma \cdot \left[1 - \eta_{oi} \cdot \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right)\right] - \frac{1 - \sigma}{\tau_2} \cdot \left[1 + \left(\frac{\lambda_2^m - 1}{\eta_{k2}}\right)\right]} \cdot \eta_{yo.k} \quad (2.36)$$

bu yerda: η_{k1} va η_{k2} – birinchi va ikkinchi kompressorlarning ichki f.i.k.lari; λ_1 va λ_2 – birinchi va ikkinchi kompressorlarda bosimning ko'tarilish darajasi; $\lambda = \lambda_1 \cdot \lambda_2$

– qurilmada bosimning ko'tarilish darajasi; $\tau_1 = T_1/T_3$ – yonish kamerasidan chiqayotgan gazlarning absolyut haroratini (T_1) birinchi kompressorga so'rilayotgan havoning absolyut haroratiga (T_3) nisbati; $\tau_2 = T_1/T'_3$ – yonish kamerasidan chiqayotgan gazlarning absolyut haroratini (T_1) ikkinchi kompressorga so'rilayotgan havoning absolyut haroratiga (T_3) nisbati.

2.16 – masala. Agar kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 4$, kompressorga so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 20$ °C , yonish kamerasidan chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 700$ °C, turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,88$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,85$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,97$ va adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ ga teng bo'lsa GTQning ichki f.i.k.ini aniqlang.

Javob: $\eta_i^{GTQ} = 0,175$.


2.17 – masala. Agar kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 3,9$, kompressorga so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 22$ °C , yonish kamerasidan chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 717$ °C , turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,89$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,86$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,98$, mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,88$ va adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ ga teng bo'lsa GTQning effektiv f.i.k.ini aniqlang.

Javob: $\eta_e^{GTQ} = 0,167$.

2.18 – masala. Agar regeneratsiya darajasi $\sigma = 0,7$, kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 3,16$, kompressorga so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 27$ °C , yonish kamerasidan chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 707$ °C , turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,87$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,85$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,97$ va adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ ga teng bo'lsa issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQning ichki f.i.k.ini aniqlang.

Javob: $\eta_i^{GTQ} = 0,31$.

2.19 – masala. Agar kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 5$, kompressorga so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 20 \text{ }^\circ\text{C}$, yonish kamerasidan chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 702 \text{ }^\circ\text{C}$, regeneratordagi havoning harorati $t''_h = 220 \text{ }^\circ\text{C}$, regeneratordan keyingi havoning harorati $t'_h = 337 \text{ }^\circ\text{C}$, regeneratordagi gazning harorati $t'_g = 387 \text{ }^\circ\text{C}$, turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,88$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,85$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,98$, mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,88$ va adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ ga teng bo'lsa, yoqilg'ini o'zgarmas bosim ostida yoquvchi issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQning (2.2 – rasm) effektiv f.i.k.ini aniqlang.



2.2 – rasm.

Yechish: GTQning regeneratsiya darajasini (2.34) formuladan aniqlaymiz:

$$\sigma = \frac{(t'_h - t''_h)}{(t'_g - t''_h)} = \frac{(337 - 220)}{(387 - 220)} = 0,7.$$

Issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQlarning ichki f.i.k.ini $m = (k - 1)/k = (1,4 - 1)/1,4 = 0,286$ ga teng bo'lganda (2.33) formuladan aniqlaymiz:


$$\eta_i^{GTQ} = \frac{\eta_{oi} \cdot \tau \cdot \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) - \left(\frac{\lambda^m - 1}{\eta_k}\right)}{\tau - \left\{ (1 - \sigma) \cdot \left[1 + \left(\frac{\lambda^m - 1}{\eta_k}\right)\right] + \sigma \cdot \tau \cdot \left[1 - \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) \cdot \eta_{oi}\right] \right\}} \cdot \eta_{yo.k} =$$

$$= \frac{0,88 \cdot \frac{975}{293} \cdot \left(1 - \frac{1}{5^{0,286}}\right) - \left(\frac{5^{0,286} - 1}{0,85}\right)}{\frac{975}{293} - \left\{ (1 - 0,7) \cdot \left[1 + \left(\frac{5^{0,286} - 1}{0,85}\right)\right] + 0,7 \cdot \frac{975}{293} \cdot \left[1 - \left(1 - \frac{1}{5^{0,286}}\right) \cdot 0,88\right] \right\}} \cdot 0,98 = 0,325.$$

Issiqliqi regeneratsiyalanadigan GTQlarning effektiv f.i.k.ini (2.35) formuladan aniqlanadi:

$$\eta_e^{GTQ} = \eta_i^{GTQ} \cdot \eta_m^{GTQ} = 0,325 \cdot 0,88 = 0,286 .$$

2.20 – masala. Agar past bosimli kompressorga soʻrilayotgan havoning harorati $t_3 = 17 \text{ }^\circ\text{C}$, sovitgichdan 2 keyingi havoning harorati $t'_3 = 20 \text{ }^\circ\text{C}$, yonish kamerasidan 5 chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 800 \text{ }^\circ\text{C}$, past bosimli 1 va yuqori bosimli 3 kompressorlarda bosimning koʻtarilish darajasi $\lambda_1 = \lambda_2 = 3,16$, regenerator 4 oldidagi havoning harorati $t''_h = 134 \text{ }^\circ\text{C}$, regeneratoridan keyingi havoning harorati $t'_h = 239 \text{ }^\circ\text{C}$, regenerator oldidagi gazning harorati $t'_g = 284 \text{ }^\circ\text{C}$, turbinaning 6 ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,87$, past va yuqori bosimli kompressorlarning ichki f.i.k.lari $\eta_{k1} = \eta_{k2} = 0,86$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,97$, mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,89$, adiabata koʻrsatkichi $k = 1,4$, yoqilgʻi sarfi $B = 0,5 \text{ kg/s}$ va yoqilgʻining quyi yonish issiqliqi $Q_q^i = 42000 \text{ kJ/kg}$ ga teng boʻlsa, havoni ikki pogʻonali siquvchi va issiqliqi regeneratsiyalanadigan GTQning (2.3 – rasm) effektiv f.i.k.ini, effektiv va ishchi quvvatlarini aniqlang.



2.3 – rasm.

Yechish: GTQning regeneratsiya darajasini (2.34) formuladan aniqlaymiz:

$$\sigma = \frac{(t_h' - t_h'')}{(t_g' - t_h'')} = \frac{(239 - 134)}{(284 - 134)} = 0,7.$$

GTQda bosimning ko'tarilish darajasi:

$$\lambda = \lambda_1 \cdot \lambda_2 = 3,16 \cdot 3,16 = 10.$$

Havoni ikki pog'onali siqish va regeneratsiyalash tizimiga ega GTQning ichki f.i.k.ini $m = (k - 1)/k = (1,4 - 1)/1,4 = 0,286$ ga teng bo'lganda (2.36) formuladan aniqlaymiz:

$$\eta_i^{GTQ} = \frac{\left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right) \cdot \eta_{oi} - \left(\frac{\lambda_1^m - 1}{\tau_1 \cdot \eta_{k1}}\right) - \left(\frac{\lambda_2^m - 1}{\tau_2 \cdot \eta_{k2}}\right)}{1 - \sigma \cdot \left[1 - \eta_{oi} \cdot \left(1 - \frac{1}{\lambda^m}\right)\right] - \frac{1 - \sigma}{\tau_2} \cdot \left[1 + \left(\frac{\lambda_2^m - 1}{\eta_{k2}}\right)\right]} \cdot \eta_{yo.k} =$$

$$= \frac{\left(1 - \frac{1}{10^{0,286}}\right) \cdot 0,87 - \left(\frac{3,16^{0,286} - 1}{\left(\frac{1073}{290}\right) \cdot 0,86}\right) - \left(\frac{3,16^{0,286} - 1}{\left(\frac{1073}{293}\right) \cdot 0,86}\right)}{1 - 0,7 \cdot \left[1 - 0,87 \cdot \left(1 - \frac{1}{10^{0,286}}\right)\right] - \frac{1 - 0,7}{\left(\frac{1073}{293}\right)} \cdot \left[1 + \left(\frac{3,16^{0,286} - 1}{0,86}\right)\right]} \cdot 0,97 = 0,348.$$

GTQning effektiv f.i.k.ini (2.35) formuladan aniqlanadi:

$$\eta_e^{GTQ} = \eta_i^{GTQ} \cdot \eta_m^{GTQ} = 0,348 \cdot 0,89 = 0,31.$$

GTQning effektiv quvvatini esa (2.32) formuladan topiladi:

$$N_e^{GTQ} = B \cdot Q_q^i \cdot \eta_e^{GTQ} = 0,5 \cdot 42000 \cdot 0,31 = 6510 \quad kVt.$$

GTQning ichki quvvatini (2.29) formuladan topiladi:

$$N_i^{GTQ} = \frac{N_e^{GTQ}}{\eta_m^{GTQ}} = \frac{6510}{0,89} = 7315 \quad kVt.$$

2.21 – masala. Agar turbinada ko'zda tutilgan issiqlik tushishi $H_0 = 230$ kJ/kg, gaz sarfi $G_g = 120$ kg/s, havo sarfi $G_h = 120$ kg/s, turbinaning nisbiy effektiv f.i.k.i $\eta_{n.e} = 0,75$, qurilmaning mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,88$ va kompressor uzatmasining effektiv quvvati $N_{e.k.} = 8700$ kVt ga teng bo'lsa, GTQning effektiv quvvatini va havoning solishtirma sarfini aniqlang.

$$\text{Javob: } N_e^{GTQ} = 12000 \text{ kVt}; d_i^{GTQ} = 32 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}.$$

2.22 – masala. Agar kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 4$, kompressorga so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 20$ °C, yonish kamerasidan chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 700$ °C, turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,88$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,85$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,97$, mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,89$, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ va yoqilg'ining quyi yonish issiqligi $Q_q^i = 42000$ kJ/kg ga teng bo'lsa, GTQ orqali yoqilg'ining solishtirma effektiv sarfi aniqlansin.

$$\text{Javob: } b_e^{GTQ} = 0,552 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}.$$

2.23 – masala. Agar kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 3,16$, kompressorga so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 26$ °C, yonish kamerasidan chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 704$ °C, regeneratordagi havoning harorati $t''_h = 164$ °C, regeneratordan keyingi havoning harorati $t'_h = 374$ °C, regeneratordagi gazning harorati $t'_g = 464$ °C, turbinaning ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,87$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,85$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,97$, mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,89$, adiabata ko'rsatkichi $k = 1,4$ va yoqilg'ining quyi

yonish issiqligi $Q_q^i = 41600 \text{ kJ / kg}$ ga teng bo'lsa, issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQning solishtirma issiqlik sarfini va qurilma orqali yoqilg'ining solishtirma effektiv sarfini aniqlang.

$$\text{Javob: } q_i^{GTQ} = 11,6 \cdot 10^3 \frac{\text{kJ}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}; \quad b_e^{GTQ} = 0,313 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}.$$

2.24 – masala. Agar havo sarfi $G_h = 110 \text{ kg/s}$, kompressorda bosimning ko'tarilish darajasi $\lambda = 3,16$, kompressorga 1 so'rilayotgan havoning harorati $t_3 = 26 \text{ }^\circ\text{C}$, regenerator 2 oldidagi havoning harorati $t''_h = 210 \text{ }^\circ\text{C}$, regenerator dan keyingi havoning harorati $t'_h = 327 \text{ }^\circ\text{C}$, yonish kamerasidan 3 chiqishdagi gazlarning harorati $t_1 = 704 \text{ }^\circ\text{C}$, regenerator oldidagi gazning harorati $t'_g = 377 \text{ }^\circ\text{C}$, turbinaning 4 ichki nisbiy f.i.k.i $\eta_{n.i} = 0,87$, kompressorning ichki f.i.k.i $\eta_k = 0,85$, yonish kamerasining f.i.k.i $\eta_{yo.k} = 0,97$, mexanik f.i.k.i $\eta_m^{GTQ} = 0,89$, adiabatada ko'rsatkichi $k = 1,4$, yoqilg'i sarfi $B = 0,48 \text{ kg/s}$ va yoqilg'ining quyi yonish issiqligi $Q_q^i = 41800 \text{ kJ / kg}$ ga teng bo'lsa, yoqilg'ini o'zgarmas bosim ostida yoquvchi va issiqligi regeneratsiyalanadigan GTQ orqali yoqilg'ining solishtirma effektiv sarfini va havoning solishtirma sarfini aniqlang.

$$\text{Javob: } b_e^{GTQ} = 0,324 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}; \quad d_i^{GTQ} = 63,7 \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{soat}}.$$

III-BOB. ICHKI YONUV DVIKATELLARI.

3.1. IYODLARI VA UNING KO'RSATKICHLARINI HISOBLASH.

Ichki yonuv dvigatellari deb- yoqilg'ining issiqlik energiyasini mexanik energiya aylantirib beruvchi qurilma.

Hisob ishi uchun ko'rsatkichlar tanlanganda silindrning o'lchami, dvigatelning aylanishlar soni aralashmani hosil qilish dagi taktlar yoqilg'ini qabul qilish shamollatish darajasi (shamollatish qo'llanilsa) hisobga olinadi.

3.1-masala: To'rt taktli statsionar turdagi quvvati $N_e = 294 \text{ kVt} = 400 \text{ л.с}$; $n = 1000 \text{ ay/min}$: silindrlar soni $i=6$; aralashma hosil qilish oqimli; shamollatish yo'q; dizel yoqilg'isi (S=86%; N=13%; O=1%). Yonishdagi issiqlik ajralishi $Q_u^p = 42000 \text{ kJ/kg}$.

Dvigateldagi havo va yoqilg'i sarfini, effektiv va indikatorli foydali ish koeffitsientini hamda dvigatel o'lchamini aniqlash.

Tez yurar dvigatel hisob ishi turi uchun quyidagi qiymatlarni tanlaymiz:

$$\varepsilon = 14,5; \quad a = 1,8; \quad p_0 = 1,013 \cdot 10^5 \text{ H/m}^2; \quad T_0 = 288 \text{ K}.$$

Talab etiladigan nazariy havo miqdori:

$$L_0 = (1/0,21)(C/12 + H/4 - O/32) = (1/0,21)(0,86/12 + 0,13/4 - 0,01/32) = 0,495 \text{ kmol/kg};$$

$$\alpha L_0 = 1,8 \cdot 0,495 = 0,891 \text{ kmol/kg};$$

$$L_0^1 = 28,95 L_0 = 28,95 \cdot 0,495 = 14,32 \text{ kJ/kg}$$

Quyidagicha topamiz:

Agarda silindrlar soni "z" bo'lsa, bunda

$$\varepsilon = \left(\frac{p_{z+1}}{p_1} \right)^z \quad (6.20)$$

Oddiy harakatli kompressorning nazariy unumdorligi

$$Q = FSn \quad (6.21)$$

Oddiy harakatli kompressorning haqiqiy unumdorligi

$$Q = FSn\eta_v \quad (6.22)$$

Ikkilamchi harakatli kompressorning haqiqiy unumdorligi

$$Q = (2F - f)Sn\eta_v \quad (6.23)$$

bunda F- porshen yuzasi, m^2 ; f- porshen shtokining yuzasi, m^2 ; S- porshen qadamining uzunligi, m; n- bir daqiqada ikkilamchi harakatlarning soni; η_v -kompressor uzatishining koeffitsienti.

Porshenning o'rtacha tezligi

$$c = \frac{Sn}{30} \quad (6.24)$$

Politropik siqilish jarayonida kompressorni harakatga keltirish uchun quvvat sarfi:

$$N = \left[\left(\frac{n}{n-1} \right) p_1 V_1 \left\{ (p_2/p_1)^{\frac{n-1}{n}} \right\} \right] / 1000 \eta_{mex} \quad (6.25)$$

Elektrodvigatelning quvvati:

$$N_{dv} = \frac{kN_k}{\eta_{uz}} \quad (6.26)$$

bunda $k=1,1\div 1,2$ - quvvatning zahira koeffitsienti; η_{uz} - uzatishning f.i.k.

Oddiy harakatli kompressorning indikatorli quvvati indikator diagramma bo'yicha aniqlanadi

$$N_i \frac{p_i F S n}{(1000 \cdot 60)} \quad (6.27)$$

bunda F - porshen yuzasi, m^2 ; S - porshen qadami, m ; n - bir daqiqada ikkilamchi harakatlar soni; p_i - o'rtacha indikatorli bosim, N/m^2 .

$$p_i = \frac{\Omega}{lm} \quad (6.28)$$

bunda Ω - indikator diagrammaning yuzasi, mm^2 ; l - indikator diagrammaning uzunligi, mm ; m - prujina miqiyosi, $mm \cdot m^2/N$.

Kompressor ist'emol etadigan quvvat

$$N_k = \frac{N_i}{\eta_{mex}} \quad (6.29)$$

6.1- masala. Ko'p pog'onali kompressor orqali $160 \cdot 10^5 N/m^2$ bosimli havoni uzatilganda, pog'ona orasidagi bosimlar taqsimlanilishi aniqlansin.

Yechish.

Boshlangich bosimi $p_1=1 \cdot 10^5 N/m^2$, eng qulayli pog'onalar soni $z = 4$ bo'lgani tufayli

$$\varepsilon = \sqrt[z]{\frac{p_{z+1}}{p_1}}$$

$$\varepsilon = \left(\frac{160 \cdot 10^5}{1 \cdot 10^5} \right)^4 = 3,56$$

$$p_2 = p_1 \cdot \varepsilon$$

Demak, pog'ona orasidagi bosimlar quyidagicha taqsimlanadi

1 pog'ona – $p_1=1 \cdot 10^5 N/m^2$; $p_2=3,56 \cdot 10^5 N/m^2$;

11 pog'ona – $p_2=3,56 \cdot 10^5 N/m^2$; $p_3=12,6 \cdot 10^5 N/m^2$;

111 pog'ona – $p_3=12,6 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $p_4=45 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$;

1V pog'ona – $p_4=45 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $p_5=160 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$;

6.2-masala. Ko'p pog'onali kompressor orqali $140 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$ bosimli havoni uzatilganda, pog'ona orasidagi bosimlar taqsimlanilishi aniqlansin.

6.3-masala. Ko'p pog'onali kompressor orqali $180 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$ bosimli havoni uzatilganda, pog'ona orasidagi bosimlar taqsimlanilishi aniqlansin.

6.4-masala. Ikkilamchi harakatli porshenli kompressorning unumdorligi aniqlansin. Bunda $D=500 \text{ mm}$; $S=800 \text{ mm}$; $d=125 \text{ mm}$; $n=90 \text{ ayl./min.}$; $p_1=0,8 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $p_2=1,6 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $v_{ur.}=0,05$ ga teng.

Yechish:

Porshen yuzasi

$$F = \frac{\pi D^2}{4} = \frac{3,14 \cdot 0,5^2}{4} = 0,196 \text{ m}^2;$$

Shtok kesimining yuzasi

$$f = \frac{3,14 \cdot 0,125^2}{4} = 0,012 \text{ m}^2$$

Hajmiy f.i.k.

$$\eta_0 = 1 - 0,05 \left(\left(\frac{1,6}{0,8} \right)^{\frac{1}{1,35}} - 1 \right) \approx 0,91$$

bunda $\eta_v=0,91 - 0,04=0,87$.

Demak ,kompressorning unumdorligi

$$Q = (2F - f)Sn\eta_v = (2 \cdot 0,196 - 0,012)0,8 \cdot 90 \cdot 0,87 = 25 \frac{\text{m}^3}{\text{min}}.$$

6.5-masala. Ikkilamchi harakatli porshenli kompressorning unumdorligi aniqlansin. Bunda $D=400 \text{ mm}$; $S=600 \text{ mm}$; $d=120 \text{ mm}$; $n=90 \text{ ayl./min.}$; $p_1=0,7 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $p_2=1,4 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $v_{ur.}=0,04$ ga teng

Javob: $Q = 12 \text{ m}^3/\text{min}$.

6.6- masala. Ikkilamchi harakatli porshenli kompressorning unumdorligi aniqlansin. Bunda $D=500 \text{ mm}$; $S=800 \text{ mm}$; $d=125 \text{ mm}$; $n=90 \text{ ayl./min.}$; $p_1=1,0 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $p_2=1,8 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$; $v_{ur.}=0,07$ ga teng

Javob: $Q = 23 \text{ m}^3/\text{min}$.

6.7- masala. Loyihalanadigan kompressor qurilmasidan $p_2= 1,6 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$ $V_1=45 \text{ m}^3/\text{min.}$; $p_1=0,8 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$, politropa ko'rsatkichi $n=1,35$ parametrli gazni chiqarishiga, kompressor ishlatilishiga quvvat sarfi aniqlansin, $\eta_{mex.}=0,9$.

Yechish.

Kompressor ishlatilishiga quvvat sarfi quyidagicha aniqlanadi,

$$N_v = \frac{\frac{1,35}{1,35 - 1} 0,8 \cdot 10^5 \cdot 45 \left[(1,6/0,8)^{\frac{1,35-1}{1,35}} - 1 \right]}{60 \cdot 1000 \cdot 0,9} \approx 50 \text{ kVt}$$

6.8 -masala. Loyihalanadigan kompressor qurilmasidan $p_2= 1,8 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$ $V_1=65 \text{ m}^3/\text{min.}$; $p_1=0,8 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$, politropa ko'rsatkichi $n=1,30$ parametrli gazni chiqarishiga, kompressor ishlatilishiga quvvat sarfi aniqlansin, $\eta_{mex.}=0,85$

6.9-masala. Havoda ishlaydigan porshenli kopressor kislorodni siqilishida qo'llaniladi. Kompressorning hajmiy unumdorligi, bosim oshirish darajasi o'zgarmagan holda elektrodvigatel quvvatining o'zgarishi aniqlansin.

Javob. Quvvat o'zgarmaydi.

6.10- masala. Unumdorligi $Q=0,33 \text{ m}^3/\text{s}$, havoni $1 \cdot 10^5$ dan $8 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$ gacha siquvchi porshenli kompressorni elektryuritkichning quvvati (yuklamani oshirish zahirasi 15%) aniqlansin. Kompressorning to'liq izotermik f.i.k. $\eta_{iz.}=0,65$.

Javob. $N_{dv.}=120 \text{ kVt}$


6.3. Kompessorning indikator diagramma.

Porshenli kompressorlarning ishi indikator diagramma yordamida aniqlanadi, ushbu diagrammada porshenli mashinaning silindridagi bosimi p ni uning o'zgaruvchan hajmi V_{sil} ga bog'liqligi ifodalanadi.

Chap chetki holatiga mos keluvchi D nuqta (6.4-rasmga qarang) olamiz, ma'lumki, haqiqiy kompressor qurilmasida hech qachon porshen silindr qopqog'iga zich bormaydi. Chap chetki holatda silindr qopqog'i va porshen orasidagi bo'shliq o'lik bo'shliq deb ataladi, uning hajmi V_o' . O'lik bo'shliqning hajmi silindr ishchi (foydali) hajmining V_{foyl} ulushlarida ifodalanadi:

$$V_o' = \gamma V_{foyl} \quad (6.30)$$

bu yerda $\gamma = V_o' / V_{foyl}$ - o'lik bo'shliqning nisbiy hajmi.



6.7-rasm. Indikator diagramma.

O'lik bo'shliqda joylashgan gaz p_2 bosimgacha siqiladi. Porshen chap chetgi holatdan o'ngga harakatlenganda o'lik bo'shliqda joylashgan gazning kengayishi boshlanadi (DA jarayon). Bosim p_A qiymatgacha kamayadi va so'rish liniyasidagi p_1 bosimdan ancha kichik bo'ladi. A nuqtada mos keluvchi porshenning holatida bosimlar farqi $p-p_A$ ta'siri ostida so'rish klapani ochiladi

va gaz kompressorga kiritiladi. So'rish (AB) porshen o'ng chetki holatga yetgunga qadar davom etadi (B nuqta).

So'rilgan gazning hajmi:

$$V_{so'r} = \gamma_{to'l} V_{foyl} \quad (6.31)$$


bu yerda $\gamma_{to'l} = V_{so'r} / V_{foyl}$ - kompressor qurilmasining hajmiy to'lish koeffisienti (hajmiy koeffisient).

Porshen o'ng chetki holatdan chapga harakatlenganda so'rish klapani yopiladi va gazni bosim liniyasidagi bosimdan bir necha marta yuqori bosimgacha siqilishi boshlanadi, bunda chiqarish klapani ochiladi (C nuqtada).

6.4. KO'P POG'ONALI PORSHENLI KOMPRESSORLAR.

Ikki pog'onali gorizontaal kompressorlar bir silindrli porsheni pog'onali qilib tayyorlanadi (6.8, a -rasm). Dastlab gaz silindrda porshenning chap tomonida siqiladi, keyin sovitgich S orqali silindrdagi porshenning o'ng tomoniga o'tadi, u yerda kerakli bosimgacha siqiladi.

(6.8, b - rasm). Bundan tashqari silindrlarni V-simon, SH-simon shakllarda joylashtirish mumkin. 6.8, v – rasmda to'g'ri burchakli kompressor qurilmasi ko'rsatilgan. 6.8-rasmning hammasida rim raqamlari bilan kompressor qurilmasining pog'onasi ko'rsatilgan.



6.8-rasm. Ko'p pog'onali porshenli kompressorlar:
a – porshen pog'onasi bo'yicha; b – qarama - qarshi; v – to'g'ri burchakli.

6.5. ROTORLI KOMPRESSORLAR.

Plastinali rotatsion kompressorlar. Kompressorning (m^3/s) nazariy uzatish qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$(6.32)$$


bu yerda e —eksentrisitet, m ; l — rotorning uzunligi, m ; D —korpusning ichki diametri, m ; z —plastinalar soni; δ — plastina qalinligi, m ; n — valni aylanish chastotasi, ayl/s.

Kompressorning haqiqiy uzatish quvvati (m^3/s) quyidagi formuladan topiladi.

(6.33)

η_v —kompressorning uzatish quvvati.

Rotorli kompressorning (6.9 - rasm) vali, reduktorsiz, harakatga keltiruvchi yuritkich vali bilan bevosita ulanib yengil va ixcham uskuna hisoblanadi.




6.9 – rasm. Rotorli kompressorning konstruktiv sxemasi

1-nasos tanasi; 2-rotor; 3-plastinalar; 4-so'ruvchi quvur; 5-haydovchi quvur

Salmoqli rotor 2 aylanganda, enli pazlarda erkin harakatlanuvchi plastinalar 3 orqali parraklar oralig'iga gaz tortib olinadi va tortuvchi quvurdan 4 bosimli quvuriga 5, so'ngra quvur yo'llariga haydab chiqariladi.

Rotorli kompressorlar hajmiy kompressorlar sinfiga kiritiladi. Rotorli kompressorlar plastinali, suyuqlik-halqali, rotor-porshenli, vintli, shesternyali bo'lishi mumkin.




6.10-rasm. Plastinali kompressor.

6.10-rasmda rotorli plastinali kompressor ko'rsatilgan. Silindrik korpusda 5 valni ifodalovchi eksentrik o'rnatilgan rotor 7 aylanadi. Rotorda pazlar (yoriqlar)

mavjud bo'lib, ularga ishchi plastinalar 2 quyilgan bo'lib radial yo'nalishda erkin aralashadi. Rotor markazdan qochma kuch ta'siri ostida aylanganda plastinalar siljiydi va ularning uchlari korpusga qisiladi, bunda korpus va rotor orasidagi yarim oy shaklidagi bo'shliqda yopiq kameralar 1 hosil bo'ladi. Ushbu kameralarning hajmi rotorning aylanish yo'nalishida a dan b gacha kengayadi, bunda gazni so'rish sodir bo'ladi. Rotorning yana aylanishida ushbu kameraning hajmi b dan v gacha kamayadi, bunda gazni siqish sodir bo'ladi. Kameraning eng kichik hajmi b bo'lib, u orqali gaz bosim bilan haydash patrubkasi 7 ga kiradi.

6.6. MARKAZDAN QOCHMA KOMPRESSOR



6.11-rasm. Markazdan qochma kompressorning konstruktiv sxemasi

Markazdan qochma kompressor (6.11-rasm) harakati, markazdan qochma nasosga o'xshab harakat qiladi. Bunday kompressor vali yuritkich (elektryuritkich, bug' turbinali) vali bilan bevosita yoki kompressor valini aylanish chastotasini oshiruvchi, mexanik uzatishi orqali ulanib, kompressor o'lchamlarini, massasini va qiymatini kamaytiradi.

Markazdan qochma kompressor. Kompressorning adiabtik ko'rsatkichi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$\eta_{ad} = \frac{\left(\lambda^{\frac{(k-1)}{k}} - 1\right)}{\left(\lambda^{\frac{(k-1)}{k}\eta_{pol}} - 1\right)} \quad (6.34)$$

bu yerda η_{pol} – sovutiladigan va sovutilmaydigan kompressorning oqib o'tuvchi qismining mukammalligini ifodalovchi politropik F.I.K.

Kompressorning samarali uzatish quvvati (kVt).

$$N_e = M(i_2 - i_1)/(\eta_{ad}\eta_m) \quad (6.35)$$

bu yerda $(i_2 - i_1)$ — mos ravishda gazning kompressorning adiabatik siqishi oxiridagi va birinchi pog'ona g'ildiragining kurakchalariga kirishdagi entalpiyasi. kJ/kg ; M— kompressorning massaviy uzatishi kg/s.

6.11- masala. Bir pog'onali porshenli kompressor $\lambda = 10$ bosim ortish darajasi va zararli maydonda qoluvchi gazning ko'rsatkichi $m = 1,3$ politropik kengayishi bilan ishlayapti. Agar zararli maydonning nisbiy hajmi $\sigma = 0,04$ so'rilayotgan gaz bosimining kamayishini ifodalovchi koeffitsient $\eta_p = 0,975$, gazning silindr devorlari bilan to'qnashib qizishi natijasida harorat oshishini ifodalovchi koeffitsient $\eta_t = 0,96$ va gazning zich bo'lmagan joylardan sizib chiqishini ifodalovchi koeffitsient $\eta_v = 0,98$ bo'lsa, kompressorning uzatish koeffitsienti aniqlansin.

Javob: $\eta_v = 0,74$.

6.12- masala. Bir pog'onali porshenli kompressor $\lambda = 3,5$ bosim ortish darajasi va zararli maydonda qoluvchi gazning $m = 1,1$ ko'rsatkichli politropik kengayishi bilan ishlayapti. Agar zararli maydonning nisbiy hajmi $\sigma = 0,045$, so'rilayotgan gazning parametrlari $p_0 = 1 \cdot 10^5$ Pa va $t_0 = 25$ °C, siqish boshidag parametrlar $p_1 = 0,98 \cdot 10^5$ Pa va $t_1 = 36$ °C so'rilayotgan havoning sarfi $G_{so'ir} = 0,12$ kg/s va tirqishdan chiquvchi havo sarfi $G_{tir} = 0,0023$ kg/s bo'lsa, kompressorning hajmiy F.I.K. va kompressorning uzatish koeffitsienti aniqlansin.

6.13- masala. Bir pog'onali porshenli kompressor $\lambda = 7$ bosim ortish darajasi va zararli maydonda qoluvchi gazning ko'rsatkichi $m = 1,3$ politropik kengayishi bilan ishlayapti. Agar silindrning diametri $D = 0,2$ m, porshenning harakatlanish yo'li $S = 0,18$ m, valning aylanish chastotasi $n = 900$ ayl/daq, zararli maydonning nisbiy hajmi $\sigma = 0,05$, so'rilayotgan gaz bosimining kamayishini ifodalovchi koeffitsient $\eta_p = 0,92$ bo'lsa, kompressorning haqiqiy uzatishi aniqlansin.

Javob: $V = 0,064 \text{ m}^3/\text{s}$

6.14- masala. Bir pog'onali bir silindri porshenli kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ dan $p_2 = 3,5 \cdot 10^5$ gacha siqadi. Agar silindir diametri $D = 0,2$ m porshenning harakatlanish yo'li $S = 0,15$ m, valning aylanish chastotasi $n = 16$ ayl/sek, zararli maydonning nisbiy hajmi $\sigma = 0,045$, zararli maydonda qoluvchi gaz kengayishining politropik ko'rsatkichi $m = 1,1$ va so'rilishi davomida gaz bosimining kamayishini ifodalovchi koeffitsient $\eta_p = 0,95$ bo'lsa, kompressorning haqiqiy uzatishi aniqlansin.

Yechish: Bosim ortishi darajasi quyidagi formuladan aniqlanadi (6.2):

$$\lambda = \frac{p_2}{p_1} = \frac{3,5 \cdot 10^5}{1 \cdot 10^5} = 3,5$$

Kompressorning hajmiy F.I.K. (6.1) formula bo'yicha

$$\eta_{ayl} = 1 - \sigma (\lambda^{1/m} - 1) = 1 - 0,045 (3,5^{1/1,1} - 1) = 0,905$$

Kompressorning uzatish koeffitsienti (6.5) formuladan aniqlanadi.

$$\eta_v = \eta_{ayl} \eta_p = 0,905 \cdot 0,95 = 0,86$$

Kompressorning nazariy uzatishi — (6.4) formuladan:

$$V_{naz} = (\pi D^2 / 4) S n = (3,14 \cdot 0,2^2 / 4) 0,15 \cdot 16 = 0,075 \text{ m}^3/\text{s}$$

Kompressorning haqiqiy uzatish koeffitsienti (6.3) formuladan:

$$V = V_{naz} \eta_v = 0,075 \cdot 0,86 = 0,0645 \text{ m}^3/\text{s}$$

6.15- masala. Bir pog'onali kompressor $V = 0,05 \text{ m}^3/\text{s}$ havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimda so'rib olib, uni $p_2 = 8 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimgacha siqadi. $m = 1,2$ politropik ko'rsatkichli

izotermik, adiabatik va politropik siqishda kompressorga uzatiladigan nazariy quvvat aniqlansin.

$$\text{Javob: } N_{iz} = 10,4 \text{ kVt}; N_{ad} = 14 \text{ kVt}; N_{pol} = 12,3 \text{ kVt}$$

6.16- masala. Bir pog'onali porsheli kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa bosim va $t_1 = 17^\circ\text{C}$ haroratda so'rib olib, uni va $p_2 = 7 \cdot 10^5$ bosimgacha siqadi. Agar kompressorning massaviy uzatishi $M = 0,12$ kg/s va politropik ko'rsatkichi $m = 1,3$ bo'lsa, izotermik, adiabatik va politropik siqishda kompressor uzatishining nazariy quvvati aniqlansin.

Yechish: bosim ortishi darajasini (6.2) formula orqali aniqlaymiz:

$$\lambda = \frac{p_2}{p_1} = \frac{7 \cdot 10^5}{1 \cdot 10^5} = 7.$$

So'rilish davomida kompressorning haqiqiy uzatishi — (6.9) formuladan:

$$V = \frac{MRT_1}{p_1} = 0,12 \cdot 287 \cdot \frac{290}{(1 \cdot 10^5)} = 0,1 \text{ m}^3/\text{s}$$

Izotermik siqishda kompressor uzatishining nazariy quvvati — (6.10) formuladan:

$$N_{iz} = p_1 V \ln \frac{p_2}{p_1} = 1 \cdot 10^5 \cdot 0,1 \ln \frac{7}{10^3} = 1 \cdot 10^5 \cdot 0,1 \cdot 2,3 \cdot \lg \frac{7}{10^3} = 19,4 \text{ kVt}$$

Adiabatik siqishda kompressor uzatishining nazariy quvvati — (6.12) formuladan aniqlanadi:

$$N_{ad} = \left[\frac{k}{k-1} \right] \left(\frac{p_1 V}{10^3} \right) \left(\lambda^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right) = \left[\frac{1,4}{1,4-1} \right] \left(1 \cdot 10^5 \cdot \frac{0,1}{10^3} \right) \left(7^{\left(\frac{1,3-1}{1,3} \right)} - 1 \right) = 24,2 \text{ kVt}$$

Politropik siqilishda kompressor uzatishining nazariy quvvati (6.12) formuladan:

$$N_{pol} = \left[\frac{m}{m-1} \right] \cdot \left(\frac{p_1 V}{10^3} \right) \cdot \left(\lambda^{\frac{m-1}{m}} - 1 \right) = \left[\frac{1,3}{1,3-1} \right] \cdot \left(1 \cdot 10^5 \cdot \frac{0,1}{10^3} \right) \left(7^{\left(\frac{1,3-1}{1,3} \right)} - 1 \right) = 24,2 \text{ kVt.}$$

6.17- masala. Massaviy uzatishi $M=0,18$ kg/s bo'lgan bir pog'onali porshenli kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa bosim va $t_1 = 20^\circ\text{C}$ haroratda so'rib olib, uni $p_2 = 6 \cdot 10^5$ Pa bosimgacha siqadi. Agar kompressordagi izotermik havo siqishini adiabatik siqishga almashtirilsa, kompressor uzatishining nazariy quvvati qanchaga ortishi aniqlansin.

Javob: $\Delta N = N_{ad} - N_{iz} = 35,3 - 27 = 8,3 \text{ kVt}$.

6.18- masala. Massaviy uzatishi $M = 0,21 \text{ kg/s}$ bo'lgan bir pog'onali porshenli kompressor havoni $p_2 = 8 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimgacha siqadi. Agar so'rish parametrlari $p_1 = 1 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ va $t_1 = 20 \text{ }^\circ\text{C}$ va kompressorning izotermik samarali f.i.k $\eta_{e.i.z} = 0,68$ bo'lsa, kompressor uzatishining samarali quvvati aniqlansin.

Javob: $N_{ef} = 54,1 \text{ kVt}$

6.19- masala. Bir silindrlil bir pog'onali porshenli kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimdan $p_2 = 8 \cdot 10^5$ bosimgacha siqadi. Agar kompressor silindrining diametri $D = 0,3 \text{ m}$, porshenning harakat yo'li $S = 0,3 \text{ m}$, valning aylanish chastotasi $n = 12$ ayl/sek, zararli maydonning nisbiy hajmi $\sigma = 0,05$, zararli maydonda qoluvchi gaz kengayishining politropik ko'rsatgichi $m = 1,3$, so'rilish davomida gaz bosimining kamayishini ifodalovchi koeffitsient $\eta_{ken} = 0,94$ va kompressorning samarali adiabatik f.i.k $\eta_{s.ad} = 0,75$ bo'lsa, kompressor uzatmasining samarali quvvati va 10% zahirali elektr dvigatelining ortiqcha yuklanish uchun zarur bo'lgan quvvat aniqlansin.

Yechish: bosim ortish darajasi (6.2) formula orqali aniqlanadi

$$\lambda = \frac{p_2}{p_1} = 7 \cdot \frac{10^5}{1 \cdot 10^5} = 7.$$

Kompressorning hajmiy f.i.k — (6.1) formuladan orqali anqlanadi

$$\eta_{haj} = 1 - \sigma \left(\lambda^{\frac{1}{m}} - 1 \right) = 1 - 0,05 \left(7^{\frac{1}{1,3}} - 1 \right) = 0,827$$

Kompressorning uzatish koeffisienti (6.5) formuladan anqlanadi

$$\eta_V = \eta_{ajl} \cdot \eta_{ken} = 0,827 \cdot 0,94 = 0,777.$$

Kompressorning nazariy uzatishi (6.4) formuladan anqlanadi

$$V_n = \left(\frac{\pi D^2}{4} \right) S n = \left(3,14 \cdot \frac{0,3^2}{4} \right) 0,3 \cdot 12 = 0,254 \text{ m}^3/\text{s}$$

Kompressorning haqiqiy uzatishi (6.3) formuladan aniqlanadi.

$$V = V_n \eta_V = 0,254 \cdot 0,777 = 0,197 \text{ m}^3/\text{s}$$

Adiabatik siqishda kompressor uzatmasining nazariy quvvatini (6.11) formuladan anqlaymiz

$$N_{ad} = \left[\frac{k}{k-1} \right] \left(\frac{P_1 V}{10^3} \right) \left(\lambda^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right) = \left[\frac{1.4}{1.4-1} \right] \left(10^5 \cdot \frac{0.197}{10^3} \right) \left(7^{\frac{1.4-1}{1.4}} - 1 \right) = 51 \text{ kVt}$$

Kompressor uzatmasining samarali quvvatini (6.14) formuladan anqlaymiz

$$N_{ef} = N_{ad} / \eta_{e.ad} = 51 / 0,75 = 68 \text{ kVt}$$

Elektro dvigatelning 10% yuklamasi bilan kerakli quvvati.

$$N_{ed} = 1,1 \cdot 68 = 74,8 \text{ kVt}$$

6.20- masala. 2 silndrli bir pog'onali porshenli kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa dan $p_2 = 6 \cdot 10^5$ Pa gacha siqadi. Agar slindrning diametri $D = 0,2$ m, porshenning yurish yo'li $S = 0,22$ m, valning aylanish chastotasi $n = 440$ ayl/daq, kompressorning uzatish ko'effitsienti $\eta_V = 0,82$ va kompressoning samarali izotemik f.i.k $\eta_{iz} = 0,72$ bo'lsa kompressor uzatishining samarali quvvati anqlansin.

Javob: $N_e = 20,3 \text{ kVt}$

6.21- masala. Ikki porshenli ikki pog'onali porshenli kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa dan $p_2 = 6 \cdot 10^5$ Pa gacha siqadi. Agar slindrning diametri $D = 0,3$ m, porshenning harakat yo'li $S = 0,2$ m, valning aylanish chastotasi $n = 14$ ayl/sek, zararli maydonning nisbiy hajmi $\sigma = 0,05$, zararli maydonda qoluvchi gazning politropik kengayishi ko'rsatkichi $m = 1,25$, pog'onalar orasidagi bosim pasayishini ifodalovchi ko'effisient $\Psi = 1,1$, so'rish davomida gaz bosimining pasayishini ifodalovchi ko'effitsient $\eta_p = 0,94$

Yechish:

Har bir pog'onada bosim ortish darajasi (6.18) formula orqali aniqlanadi

$$\lambda = \psi \sqrt[2]{p_2/p_1} = 1,1 \sqrt{13 \cdot 10^5 / (1 \cdot 10^5)} = 3,9$$

Hajmiy f.i.k formula

$$\eta_{haj} = 1 - \sigma \left(\lambda^{\frac{1}{m}} - 1 \right) = 1 - 0,05 \left(3,9^{\frac{1}{1,25}} - 1 \right) = 0,901$$

Uzatish koeffisienti — (6.5) formuladan

$$\eta_V = \eta_{haj}\eta_{ish} = 0,901 \cdot 0,94 = 0,847$$

Kompressor pog'onasining nazariy uzatishi (6.4) formuladan

$$V_T = (\pi D^2 / 4) S n = (3,14 \cdot 0,3^2 / 4) 0,2 \cdot 14 = 0,198 \text{ m}^3/\text{s}$$

Kompressorning haqiqiy uzatishi (6.3) formuladan

$$V = 2V_T\eta_V = 2 \cdot 0,198 \cdot 0,847 = 0,335 \text{ m}^3/\text{s}$$

6.22- masala. Havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa bosimdan $p_2 = 8 \cdot 10^5$ Pa bosimgacha adiabatik siqayotgan porshenli kompressor sarflanayotgan quvvat bir pog'onali siqishdan ikki pog'onali siqishga o'tkazilganda necha foizga kamayishi aniqlansin.

Javob: 14,7 % ga.

6.23- masala. $V = 0,2 \text{ m}^3/\text{s}$ uzatmali ikki pog'onali kompressor havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa dan $p_2 = 30 \cdot 10^5$ Pa gacha siqadi. Agar kompressorning samarali adiabatik f.i.k. $\eta_{e.ad} = 0,69$ va pog'onalar orasidagi bosimning kamayishini ifodalovchi koeffitsient $\psi = 1,1$ bo'lsa, kompressor uzatmasining samarali quvvati aniqlansin.

Javob: $N_e = 136 \text{ kVt}$.

6.24- masala. $M = 0,238 \text{ kg/s}$ massaviy uzatmali uch pog'onali kompressor havoni $p_2 = 112,5 \cdot 10^5$ Pa dan siqadi. Agar so'rilayotgan havoning parametrlari $p_1 = 0,9 \cdot 10^5$ Pa va $t_1 = 17$ °C, pog'onalar orasidagi bosimning yo'qotilishini ifodalovchi koeffitsient $\psi = 1,11$, kompressorning mexanik f.i.k. $\eta_m = 0,94$ va kompressorning izotermik f.i.k. $\eta_{iz} = 0,7$ bo'lsa, kompressor uzatmasining samarali quvvati aniqlansin.

Javob: $N_e = 156 \text{ kVt}$.

6.25- masala. Ikki pog'onali kompressor silindrlarining diametri $D_1 = 0,35$ va $D_2 = 0,2$, porshenning harakatlanish yo'li $S = 0,2$ m. Agar valning aylanish chastotasi $n = 12$ ayl/sek, birinchi pog'ona uchun o'rtacha indikatorli bosim

$p_{i1} = 1,2 \cdot 10^5$ Pa va ikkinchi pog'ona uchun o'rtacha indikatorli bosim $p_{i2} = 3,4 \cdot 10^5$ Pa bo'lsa, kompressorning indikatorlik quvvati aniqlansin.

Javob: $N_i = 53,3$ kVt.

6.26- masala. Uch pog'onali kompressor silindrlarining diametri $D_1 = 0,2$ va $D_2 = 0,15$, porshening harakatlanish yo'li $S=0,15$ m. Agar valning aylanish chastotasi $n=840$ ayl/daq, kompressorning mexanik f.i.k. $\eta_m = 0,87$, birinchi pog'ona uchun o'rtacha indikatorli bosim $p_{i1}=1,7 \cdot 10^5$ Pa va ikkinchi pog'ona uchun o'rtacha indikatorli bosim $p_{i2} = 3,5 \cdot 10^5$ Pa bo'lsa, kompressorning samarali quvvati aniqlansin.

Yechish: Birinchi va ikkinchi siqish pog'onalar silindrlarining indikatorli quvvati N_{i1} va N_{i2} (6.16) formuladan aniqlanadi

$$N_{i1} = \frac{p_{i1} V_{h1} n}{10^3} = \frac{p_{i1} \pi D_1^2 S n}{(10^3 \cdot 4)} = 1,7 \cdot 10^5 \cdot 3,14 \cdot 0,2^2 \cdot 0,15 \cdot \frac{1,4}{(1000 \cdot 4)} = 11,2 \text{ kVt}$$

$$N_{i2} = \frac{p_{i2} V_{h2} n}{10^3} = \frac{p_{i2} \pi D_2^2 S n}{(10^3 \cdot 4)} = 1,5 \cdot 10^5 \cdot 3,14 \cdot 0,15^2 \cdot 0,15 \cdot \frac{14}{(1000 \cdot 4)} = 13 \text{ kVt}$$

Kompressorning indikatorli quvvati

$$N_i = N_{i1} + N_{i2} = 2 \cdot 11,2 + 13 = 35,4 \text{ kVt.}$$

Kompressorning samarali quvvatini (6.17) formuladan topamiz

$$N_e = \frac{N_i}{\eta_m} = \frac{35,4}{0,87} = 40,7 \text{ kVt.}$$

6.27-masala. Ikki silindrli ikki pog'onali kompressor silindrlarining diametri $D_1 = 0,3$ va $D_2 = 0,18$, porshening harakatlanish yo'li $S=0,15$ m. Agar valning aylanish chastotasi $n = 13$ ayl/sek, birinchi pog'ona silindrining indikatorlik quvvati $N_{i1}=25$ kVt va ikkinchi pog'onaniki $N_{i2} = 26$ kVt bo'lsa, kompressor pog'onalaridagi o'rtacha indikatorlik bosim aniqlansin.

Javob: $p_{i1} = 1,82 \cdot 10^5$ Pa va $p_{i2} = 5,24 \cdot 10^5$ Pa

6.28-masala. Ikki silindrlı ikki pog'onali kompressor silindrlarining diametri $D_1 = 0,198$ va $D_2 = 0,155$, porshenlarning harakatlanish yo'li $S=0,145$ m. Agar valning aylanish chastotasi $n=900$ ayl/daq, samarali quvvat $N_e = 28,4$ kVt, pog'ona uchun o'rtacha indikatorli bosim $p_{i1}=1,7 \cdot 10^5$ Pa va ikkinchi pog'ona uchun o'rtacha indikatorli bosim $p_{i2} = 3,3 \cdot 10^5$ Pa bo'lsa, mexanik f.i.k. aniqlansin.

Javob: $\eta_m = 0,88$

6.29-masala. Kompressor havoni $p_1=1 \cdot 10^5$ Pa bosim va $t_1 = 20$ °C haroratda so'rib olib, uni va $p_2=10 \cdot 10^5$ bosimgacha siqadi. Agar kompressorning massaviy uzatishi $M = 0,2$ kg/s va kompressor uzatmasining samarali quvvati $N_e = 57,6$ kVt bo'lsa, kompressor samarali izotermik f.i.k. aniqlansin.

Javob: $\eta_{e.iz}=0.67$

6.30- masala. Bir pog'onali plastinali rotatsion kompressor korpusining ichki diametri $D = 0,25$ m, rotorning diametri $d = 22$ m, rotorlar uzunligi $l = 0,45$ m, plastinalar soni $z = 15$, plastina qalinligi $\sigma = 0,002$ m, eksentrisitet $e = 0,15$ m, valning aylanma tezligi $u = 14,5$ m/s va kompressorning uzatish koeffitsienti $\eta_V = 0,75$ teng bo'lsa, kompressor uzatmasining nazariy va haqiqiy koeffitsienti anqlansin.

Javob: $V_T=0,214$ m³/s; $V=0,16$ m³/s

6.31- masala. Ikki pog'onali rotatsion plastinali kompressor $V=1,67$ m³/s havoni $p_1 = 1 \cdot 10^5$ Pa dan $p_2 = 9 \cdot 10^5$ Pa gacha siqadi. Agar havoning to'liq oraliq sovutilishida ikkala pog'onada bosim ortish darajasi bir xil bo'lsa, kompressor uzatmasining samarali quvvati aniqlansin. Kompressorning samarali izotermik f.i.k. $\eta_{e.iz} = 0,7$.

Javob: $N_e = 522$ kVt

6.32- masala. $M = 10$ kg/s massaviy uzatmali bir pog'onali markazdan qochma kompressor freon bug'ni $p_1=1,6 \cdot 10^5$ Pa bosimdan $p_2=8,26 \cdot 10^5$ Pa gacha siqadi.

Agar pog'onalar g'ildiraklarining ishchi parraklariga kirshda bug'ning entalpiyasi $i_1 = 570$ kJ/kg, kompressorda adiabatik siqilishoxirida bug'ning entalpiyasi $i_2 = 600$ kJ/kg, freonning adiabatik ko'rsatkichi $k = 1,14$, kompressorning politropik f.i.k $= 0,78$ va kompressorning mexanik f.i.k. bo'lsa, kompressor uzatmasining samarali quvvati anqlansin.

Yechish: Bosim ortish darajasi (6.2) formuladan aniqlaymiz

$$= p_2/p_1 = 8,26 \cdot 10^5 / (1,6 \cdot 10^5) = 5,16.$$


Kompressorning adiabatik f.i.k (6.21) formuladan aniqlaymiz

Kompressor uzatmasining samarali quvvatini (6.21) formuladan aniqlaymiz


$$N_e = M(i_2 - i_1) / (\quad) = 10(600 - 570) / 0,75 \cdot 0,95 = 421 \text{ kVt}$$

6.7. IDEAL KOMPRESSORLARNING HISOBI

6.12-rasmdagi P-V diagrammada ideal kompressorda sodir bo'ladigan jarayonlar tasvirlangan. 4-1 chiziq gazni so'rish jarayonini tasvirlaydi, 1-2 egri chizig'i siqish jarayoni va 2-3 chizig'i haydash jarayonini ifodalaydi. 1-2-3-4 diagramma nazariy indikator diagramma deb ataladi.



6.12-rasm.



6.13-rasm.

Kompressorning nazariy ishi l_0 indikator diagrammaning maydonidan aniqlanadi va siqish jarayoniga bog'liq bo'ladi (6.8-rasm). 1-2 egri chizig'i izotermik siqish jarayonini tasvirlaydi, 1-2'' egri chizig'i adiabatik siqish va 1-2' egri chizig'i politropik siqishni ifodalaydi.

Izotermik siqishda kompressorning nazariy ishi izotermik siqish ishiga teng bo'ladi:

$$l_0 = p_1 v_1 \ln \frac{p_2}{p_1} = RT \ln \frac{p_2}{p_1} \quad (6.36)$$

Agar so'rilgan havoning massasi M kg, hajmi esa V_1 m³ bo'lsa, u holda:

$$L_0 = p_1 V_1 \ln \frac{p_2}{p_1} \quad (6.37)$$

1 m³ siqilgan havoga nisbatan ish:

$$l'_0 = p_1 \ln \frac{p_2}{p_1} \quad (6.38)$$

1 m³ siqilgan havo olish uchun ish:

$$l''_0 = p_2 \ln \frac{p_2}{p_1} \quad (6.39)$$

Izotermik siqishda olib ketilishi zarur bo'lgan issiqlik miqdori:

$$q = l_0 \text{ ёки } Q = L_0$$

Adiabatik siqishda kompressorning nazariy ishi adiabatik siqish ishidan k marta katta bo'ladi:

$$l_0 = \frac{k}{k-1} p_1 v_1 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right] \quad (6.40)$$

Agar so'rilgan havoning massasi M kg, hajmi esa V_1 m³ bo'lsa, u holda:

$$L_0 = \frac{k}{k-1} p_1 V_1 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right] \quad (6.41)$$


1 m³ siqilgan havoga nisbatan ish:

$$l'_0 = \frac{k}{k-1} p_1 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right] \quad (6.42)$$

1 m³ siqilgan havo olish uchun ish:

$$l''_0 = \frac{k}{k-1} p_2 \left[1 - \left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right] \quad (6.43)$$

Siqish oxirida gazning harorati adiabatik jarayonning parametrlari nisbatidan aniqlanadi.



6.14-rasm

Adiabatik siqishda kompressorning ishi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$l_0 = i_2 - i_1 \quad (6.44)$$

bu yerda i_1 va i_2 – havoning boshlang'ich va oxirgi entalpiyasi.

Bu formula adiabatik siqishda i-S diagramma yordamida ideal kompressor ishini hisoblash uchun qulay.

Ushbu holda boshlang'ich holatni xarakterlovchi 1 nuqtadan (6.11-rasm) izobara p_2 bo'yicha 2 nuqta bilan kesishuvchi vertikal chiziq o'tkaziladi. 1 va 2 nuqtalarning ordinatalari i_1 va i_2 entalpiyalarning qiymatini beradi va 1-2 qirqim ularning farqini beradi.

Politrop siqilishda kompressorning nazariy ishi politrop siqish ishidan m marta katta bo'ladi:

$$l_0 = \frac{m}{m-1} p_1 v_1 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{m-1}{m}} - 1 \right] \quad (6.45)$$

Agar so'rilgan havoning massasi M kg, hajmi esa V_1 m³ bo'lsa, u holda:

$$L_0 = \frac{m}{m-1} p_1 V_1 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{m-1}{m}} - 1 \right] \quad (6.46)$$

1 m³ so'rilgan havoni siqishga sarflangan ish:

$$l'_0 = \frac{m}{m-1} p_1 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{m-1}{m}} - 1 \right] \quad (6.47)$$

1 m³ siqilgan havo olish uchun ish:

$$l''_0 = \frac{m}{m-1} p_2 \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{m-1}{m}} - 1 \right] \quad (6.48)$$

Politropik siqish natijasida ajratilgan issiqlik miqdorini oldingi mavzulardagi formulalardan foydalanib aniqlanadi.

Kompressorning ishini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan barcha formulalar ishning absalyut kattaligini beradi.

Kompressor uchun dvigatelning nazariy quvvati.

$$N = \frac{L_0}{3600 \cdot 1000} \quad (6.49)$$

$$N = \frac{v l''_0}{3600 \cdot 1000} \quad (6.50)$$

$$N = \frac{v l_0''}{3600 \cdot 1000} \quad (6.51)$$

(6.36)-(6.51) formulalardagi P , V , l_0 , L_0 , l_0' , L_0'' qiymatlari mos ravishda quyidagi birliklarda berilgan; p_1 va p_2 - Pa; V (siqilayotgan yoki so'rib olinayotgan havoning hajmi) - m^3 /soat; l_0' l_0'' va L_0' L_0'' - J/m^3 va $N \cdot kVt$.

Haqiqiy indikatorli diagramma nazariy diagrammadan asosan haqiqiy kompressorda zararli maydon borligi, kirituvchi va siqib chiqaruvchi klaplarda bosim yo'qotilishi va gaz bilan silindr devorlari o'rtasidagi issiqlik almashinuvi borligi bilan farq qiladi.

Indikatorli diagrammada zararli maydon bo'lganda qo'shimcha jarayon silindrning zararli maydonidagi siqilish oxirida qolgan siqilgan gazning kengayish jarayoni qo'shiladi.

Zararli maydon hajmining porshen bilan tasvirlanadigan hajmga nisbati, ya'ni $a = V_c/V_k$ kattalik zararli maydonning nisbiy kattaligi deb ataladi.

Zararli maydon borligi natijasida kompressorning ishlash qobilyati pasayadi.

$$\lambda_v = \frac{V_1 - V_4}{V_h} \quad (6.52)$$

Silindrning ishchi hajmidan foydalanish to'lalik darajasini ifodalovchi (6.52) kattalikni kompressorning hajmli F.I.Ki deb ataladi.

Kompressorning hajmli F.I.Kini shuningdek zararli maydon nisbiy kattaligi va siqib chiqarish va so'rib olish bosimlari nisbati bilan ifodalash mumkin:

$$\lambda_v = 1 - a \left[\left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{1}{m}} - 1 \right] \quad (6.53)$$


Bu yerda m - zararli maydonda qolgan gazning kengayishining politropik ko'rsatkichi.

Ideal kompressorning nazariy ishi minimal bo'ladi. Real kompressorning haqiqiy ishini izotermik yoki adiabatik F.I.K va mexanik F.I.K yordamida aniqlanadi.


$$\eta_{iz} = \frac{l_{iz}}{l_k}; \quad \eta_{ad} = \frac{l_{ad}}{l_k};$$

Bu yerda η_{ad} va η_{iz} - kompressorning izotermik va adiabatik siqilishdagi nazariy ishi, η_{ad} - esa kompressorning haqiqiy ishi. Bu koeffitsientlar haqiqiy jarayonning ideal jarayon bilan taqqoslangandagi mukammallik darajasi.

Mexanik F.I.K. da kompressordagi mexanik yo'qotilishlar hisobga olinadi.



6.15-rasm



6.16-rasm

M kg/soat gazni siqish uchun compressor dvigateli sarflaydigan haqiqiy quvvat


$$\text{---} \quad (6.54)$$

Yakuniy bosim ortishi bilan bir pog'onada kompressorning hajmli F.I.K.i kamayadi. (6.11-rasm) va kompressorning samaradorligi kamayadi. Zararli maydon hajmini ifodalovchi siqish egriligi chegara chizig'ini kesganida, havoning silindrga so'rib olinishi to'xtatiladi va kompressorning samaradorligi va hajmli F.I.K.i nolga teng bo'ladi.


6.12 va 6.13 rasmlarda 2 va 3 pog'onali kompressorda siqish jarayoni ko'rsatilgan. 1-2, 3-4, va 5-6 chiziqlar kompressorning har bir silindridagi adiabatik jarayonni ifodalaydi, 2-3 va 4-5 chiziqlar esa maxsus muzlatkichlarda havoni izobarik sovutilishi ifodalaydi.

Ko'p pog'onali yoki ko'p silindrli kompressorlarda havoni (gazni) siqish jarayoni har bir silindrda havo siqilganidan keyin barcha silindrda ketma-ket ravishda amalga oshiriladi. Odatda, bu jarayonda havo (gaz) muzlatkichdan keyin ham oldingi pog'onaga kirgandagi haroratni kirgandagi haroratni saqlashga intiladi. Shunday qilib, uch pog'onali kompressor uchun (6.17rasm)

Agar har bir pog'onadagi bosim barcha pog'ona uchun bir xil deb qabul qilinsa , bu holda ko'p pog'onali siqish eng samarali bo'ladi.



6.17-rasm



6.18-rasm

Bu holda uch pog'onali kompressor uchun

— — —

bundan

—
—,

yoki umuman

—
—

(6.55)

Bu yerda — har bir pog'onadagi bosimlar nisbati;

n- kompressorning pog'onalar nisbati;

— oxirgi pog'onadan chiqayotgan havo bosimi ;


— birinchi pog'onaga kiradigan havo bosimi;

(6.45) formula bo'yicha havo bosimi taqsimlanishi shunga olib keladiki, har bir pog'onadan chiqishdagi havo bosimi o'zaro teng, ya'ni :


,

Shuningdek barcha pog'onalardagi ishlar teng. Shuning uchun ko'p pog'onali kompressorning ishini aniqlash uchun, uning bitta pog'onasining ishini aniqlab olish kifoya.

6.19 va 6.20-rasmlarda T-S diagrammada uch pog'onali kompressordagi gazning adiabetic va politropik siqilish grafiklari keltirilgan.



6.19-rasm



6.20-rasm

1-2, 3-4 va 5-6 chiziqlar alohida silindrlardagi siqish jarayonlari, 2-3 va 4-5 birinchi va ikkinchi muzlatgichlarda doimiy bosimda gazning sovish jarayonini tasvirlaydi. 1-2-2'-1', 3-4-4'-3' va 5-6-6'-5' yuzalar (6.18 rasm) kompressorning alohida silindrlarida politropik siqishda havodan tortib olinadigan va silindr devorlarini sovutadigan suvga beriladigan issiqlik miqdorini tasvirlaydi. 2-2'-3'-3 va 4-4'-5'-5 yuzalar birinchi va ikkinchi muzlatgichlardagi gazdan izobarik sovushda olinadigan issiqlik miqdori.

6.8. Kompressor qurilmasining siklini hisoblash bo'yicha namuna.

6.33-masala. Aylanma jarayondagi gazga 250 kJ issiqlik o'tkazilgan. Termik F.I.K. 0,46 ga teng. Bir siklda olinadigan ishni toping.

Javob: $L_0=115$ kJ.

6.34-masala. Aylanma jarayon borishi natijasida 80 kJ ga teng ish olindi, sovutgichga esa 50 kJ issiqlik berildi. Siklning termik foydali ish koeffitsientini aniqlang.

Javob : $\eta_t=0,615$.

6.35-masala. 1 kg havo $t_1=627$ °C va $t_2=27$ °C haroratlar oralig'ida Karno siklini bajaryapti, bunda eng yo'qori bosim 6 MPa, eng quyi bosim esa 0,1 MPa. Siklning

xarakterli nuqtalardagi havoning parametrlari, ish, siklning termik foydali ish koeffitsienti va uzatilgan va olib ketilgan issiqlik miqdori aniqlansin.

Yechish:

1-nuqta.

$$P_1=6 \text{ MPa}; T_1=900 \text{ K.}$$

Gazning solishtirma hajmini tavsiflovchi tenglamadan topamiz

$$v_1 = \frac{RT_1}{p_1} = \frac{287 \cdot 900}{6 \cdot 10^6} = 0,043 \text{ m}^3/\text{kg}$$

2-nuqta.

$$T_2=900 \text{ K}$$

Adiabatik tenglamadan (2-3 chiziq)

$$\frac{P_2}{P_3} = \left(\frac{T_2}{T_3}\right)^{\frac{k}{k-1}} = 3^{\frac{1,4}{0,4}} = 46,8;$$

$$P_2 = 0,1 \cdot 46,8 = 4,68 \text{ MPa}$$

izotermik tenglamadan (1-2 chiziq)

$$p_1 v_1 = p_2 v_2$$

Bundan

$$V_2 = \frac{P_1 V_1}{P_2} = \frac{6 \cdot 0,43}{4,68} = 0,055 \text{ m}^3/\text{kg}$$

3-nuqta.

$$P_3=0,1 \text{ MPa}; T_3=300 \text{ K.}$$

$$V_3 = \frac{RT_3}{p_3} = \frac{287 \cdot 300}{0,1 \cdot 10^6} = 0,861 \text{ m}^3/\text{kg}$$

4-nuqta. $T_4=300 \text{ K.}$

Adiabatik (4-1 chiziq) tenglamadan

$$\frac{P_1}{P_4} = \left(\frac{T_1}{T_4}\right)^{\frac{k}{k-1}} = 4,68;$$

$$p_4 = \frac{p_1}{4,68} = 0,128 \text{ MPa}$$

Izotermik tenglamasidan (3-4 chiziq) hosil bo'ladiki

$$P_3V_3 = P_4V_4$$

$$v_4 = \frac{p_3 v_3}{p_4} = \frac{0,1 \cdot 0,861}{0,128} = 0,671 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Siklning termik F.I.K.i

$$\eta_t = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = \frac{900 - 300}{900} = 0,667.$$

Uzatilgan issiqlik miqdori

$$q_1 = RT_1 \ln \frac{v_2}{v_1} = 2,303 \cdot 0,287 \cdot 900 \lg \frac{0,055}{0,043} = 63,6 \text{ kJ/kg}$$

Olib ketilgan issiqlik miqdori

$$q_2 = RT_3 \ln \frac{v_3}{v_4} = 2,303 \cdot 0,287 \cdot 300 \lg \frac{0,861}{0,671} = 21,5 \text{ kJ/kg}$$

Siklning ishi

$$l_0 = q_1 - q_2 = 69,6 - 21,5 = 42,1 \text{ kJ/kg}$$

$$\eta_t = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = \frac{l_0}{q_1} = \frac{42,1}{63,6} = 0,662.$$

6.36-masala. 1 kg havo $t_1=327 \text{ }^\circ\text{C}$ va $t_2=27 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratlar oralig'ida Karno siklini bajaradi, bunda eng yuqori bosim 2 MPa, eng quyi bosim esa 0,12 MPa. Siklning xarakterli nuqtalardagi havoning holat parametrlari, bajargan ishi, siklning termik foydali ish koeffitsienti va uzatilgan va olib ketilgan issiqlik miqdori aniqlansin.

Javob: $v_1 = 0,086 \frac{\text{m}^3}{\text{kg}}$; $v_2 = 0,127 \frac{\text{m}^3}{\text{kg}}$; $v_3 = 0,717 \frac{\text{m}^3}{\text{kg}}$; $v_4 = 0,486 \frac{\text{m}^3}{\text{kg}}$;

$p_2 = 1,36 \text{ MPa}$; $p_4 = 0,18 \text{ MPa}$; $\eta_t = 0,5$; $l_0 = 33,7 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}$; $q_1 = 67,4 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}$;

$q_2 = 33,7 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}$;

6.37-masala. 1 kg havo $t_1=250 \text{ }^\circ\text{C}$ va $t_2=30 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratlar oralig'ida Karno siklini bajaradi, bunda eng yuqori bosim $P_1= 1 \text{ MPa}$, eng quyi bosim esa $P_3=0,12 \text{ MPa}$.

Siklning xarakterli nuqtalardagi havoning holat parametrlari, bajargan ishi, siklning termik foydali ish koeffitsienti va uzatilgan va olib ketilgan issiqlik miqdori aniqlansin.

Javob: $v_1 = 0,15 \frac{m^3}{kg}$; $v_2 = 0,185 \frac{m^3}{kg}$; $v_3 = 0,725 \frac{m^3}{kg}$; $v_4 = 0,59 \frac{m^3}{kg}$;
 $p_2 = 0,81 MPa$; $p_4 = 0,15 MPa$; $\eta_t = 0,42$; $l_0 = 18,1 \frac{kJ}{kg}$; $q_1 = 31,1 \frac{kJ}{kg}$;
 $q_2 = 18 \frac{kJ}{kg}$;

6.38-masala. $v=const$ uzatilgan issiqlik bilan yonuvchi ichki yonuv dvigatelining ideal porshenli sikli uchun $P_1=0,1 MPa$, $t_1=20 ^\circ C$, $\varepsilon=3,6$, $\lambda=3,33$ va $k=1,4$ bo'lganda xarakterli nuqtalardagi parametrlar, olingan ish, termik foydali ish koeffitsienti va uzatilgan va olib ketilgan issiqlik miqdori aniqlansin. Ishchi jism havo. Issiqlik sig'imi o'zgarmas.

Yechish: Hisobni 1 kg havo uchun olamiz.

1-nuqta.

$$P_1 = 0,1 MPa; t_1 = 20 ^\circ C.$$

Gazning solishtirma hajmi holat tenglamasidan aniqlaymiz

$$v_1 = \frac{RT_1}{p_1} = \frac{287 \cdot 293}{0,1 \cdot 10^6} = 0,84 m^3/kg$$

2-nuqta.

Siqish darajasi

$$\varepsilon = \frac{v_1}{v_2} = 3,6,$$

bo'lishi uchun

$$v_2 = \frac{v_1}{\varepsilon} = \frac{0,84}{3,6} = 0,233 \frac{m^3}{kg}.$$

Adiabatik siqish oxiridagi harorat formuladan aniqlanadi

$$T_2 = T_1 \left(\frac{v_1}{v_2} \right)^{k-1} = 293 \cdot 3,6^{0,4} = 489 K;$$

$$t_2 = 216 ^\circ C$$

Adiabatik siqish oxiridagi bosim

$$p_2 = \frac{RT_3}{v_2} = \frac{287 \cdot 489}{0,233 \cdot 10^6} = 0,6 \text{ MPa.}$$

3-nuqta.

Solishtirma hajm $v_3 = v_2 = 0,233 \text{ m}^3/\text{kg}$

Izoxorik jarayondagi parametrlar nisbatidan (2-3 chiziq) hosil bo'ladiki

$$\frac{p_3}{p_2} = \frac{T_3}{T_2} = \lambda = 3,33.$$

Bundan

$$p_3 = p_2 \lambda = 0,6 \cdot 3,33 = 2 \text{ MPa};$$

$$T_3 = T_2 \lambda = 489 \cdot 3,33 = 1628 \text{ K}; \quad t_3 = 1355 \text{ }^\circ\text{C}$$

4-nuqta.

Solishtirma hajm

$$v_4 = v_1 = 0,84 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Adiabatik kengayish oxiridagi harorat

$$T_4 = T_3 \left(\frac{v_3}{v_4}\right)^{k-1} = T_3 = T_3 \left(\frac{v_3}{v_1}\right)^{k-1} = 1628 \frac{1}{3,6^{0,4}} = 976 \text{ K};$$

Adiabatik kengayish oxiridagi bosimni izoxorik jarayondagi parametrlar nisbatidan aniqlaymiz (4-1 chiziq):

$$p_4 = p_1 \frac{T_4}{T_1} = 0,1 \frac{976}{293} = 0,33 \text{ MPa.}$$

Uzatilgan issiqlik miqdori

$$q_1 = c_v(T_3 - T_2) = \frac{20,93}{28,96} (1628 - 489) = 825 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}};$$

$$q_2 = c_v(T_4 - T_1) = \frac{20,93}{28,96} (976 - 293) = 495 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}};$$

Sikllarning termik f.i.k.i quyidagi formula bo'yicha topamiz,

$$\eta_t = \frac{825 - 495}{825} = \frac{330}{825} = 0,4 = 40\%$$

$$\text{yoki} \quad \eta_t = 1 - \frac{1}{\varepsilon^{k-1}} = 1 - \frac{1}{3,6^{0,4}} = 0,4 = 40\%$$

Sikllarning ishi

$$l_0 = q_1 - q_2 = 330 \frac{kJ}{kg}$$

6.39-masala. Uzatilgan issiqlik ichki yonuv dvigatelining porshen sikllari uchun $v=const$ bo'lsa $P_1=0,1$ MPa, $t_1=100$ °C, $\varepsilon=6$, $\lambda=1,6$ va $k=1,4$ berilgan bo'lsa sikl uchun xarakterli nuqtalardagi parametrlar, olingan ish, termik foydali ish koefitsienti va uzatilgan va olib ketilgan issiqlik miqdori aniqlansin. Ishchi jism havo. Issiqlik sig'imi o'zgarmas.

Javob: $v_1 = 1,07 \frac{m^3}{kg}$; $v_2 = 0,178 \frac{m^3}{kg}$; $T_2 = 761$ K; $T_3 = 1217$ K; $T_4 = 597$ K;

$p_3 = 1,96$ MPa; $p_4 = 0,156$ MPa; $\eta_t = 0,51$; $l_0 = 167,7 \frac{kJ}{kg}$; $q_1 = 329,7 \frac{kJ}{kg}$;


$q_2 = 162 \frac{kJ}{kg}$;

6.40-masala. Porshenli ichki yonuv dvigateliga $v=const$ issiqlik uzatilgan va siklida siqish darajasi $\varepsilon=5$, bosim ortish darajasi $\lambda=1,5$. Sikllarning termik foydali ish koefitsienti, shuningdek siklining xuddi shu haroratlar chegarasida sodir bo'layotgan Karno siklining termik f.i.k.i aniqlansin. Ishchi jism havo. Issiqlik sig'imi o'zgarmas deb qabul qilinsin.

Javob: $\eta_t = 0,476$; $\eta_{t_k} = 0,651$.

6.41-masala. Porshenli ichki yonuv dvigateliga $v=const$ issiqlik uzatilgan va $k=1,37$ bo'lganda ε ning qiymati 2 dan 10 gacha bo'lsa, termik foydali ish koefitsientining siqish darajasiga nisbati grafigi qurilsin.

6.42-masala. 1kg havo 6.18-rasmda tasvirlanganidek sikllar bo'yicha ish bajaryapti. Havoning boshlang'ich bosimi $p_1=0,1$ MPa, boshlang'ich harorati va $t_1=27$ °C, siqish darajasi $\varepsilon=5$. Izoxorik siqish vaqtida uzatiladigan issiqlik miqdori 1300 kJ/kg ga



6-21-rasm

teng. Havoning xarakterli nuqtalardagi parametrlari va siklning foydali ishi aniqlansin. Issiqlik sig'imi o'zgarmas deb qabul qilinsin.

Yechish

1-nuqta.

$P_1 = 0,1 \text{MPa}; T_1 = 300 \text{ K}$

Holat tenglamasidan aniqlaymiz.

2-nuqta.

Siqish darajasi

—

bo'lishi uchun

P_2 ni quyidagi ifoda orqali topamiz

3-nuqta.

3-nuqtadagi harorat quyidagi ifoda orqali topamiz

bundan

—

, deb qabul qilib

_____ ni topamiz .

bundan

$$T_3 = \frac{1300}{0,723} + 510 = 2308 \text{ K};$$

$$\frac{p_3}{p_2} = \frac{T_3}{T_2}$$

$$p_3 = p_2 \frac{T_3}{T_2} = 0,85 \frac{2308}{510} = 3,85 \text{ MPa. kelib chiqadi.}$$

4-nuqta.

Solishtirma hajm

$$v_4 = v_1 = 0,86 \text{ m}^3/\text{kg}$$

$$\frac{T_4}{T_3} = \left(\frac{v_3}{v_4}\right)^{m-1} = \left(\frac{v_2}{v_1}\right)^{m-1};$$

$$T_4 = T_3 \frac{1}{\varepsilon^{m-1}} = \frac{1}{5^{0,33}} = 1350 \text{ K};$$

$$\frac{p_4}{p_1} = \frac{T_4}{T_1}; \quad p_4 = p_1 \frac{T_4}{T_1} = 0,1 \frac{1350}{300} = 0,45 \text{ MPa} \quad \text{kelib chiqadi.}$$

Siklning ishi kengayish ishi va siqish ishi orasidagi nisbat sifatida qaralishi mumkin.

Kengayish ishi

$$\begin{aligned} l_1 &= \frac{1}{m-1} (p_3 v_3 - p_4 v_4) = \frac{1}{0,33} (3,85 \cdot 10^6 \cdot 0,172 - 0,45 \cdot 10^6 \cdot 0,86) \\ &= \frac{0,1 \cdot 10^6}{0,33} (0,662 - 0,387) = 833000 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}. \end{aligned}$$

Siqish ishi (absolyut qiymat)

$$\begin{aligned} l_2 &= \frac{1}{m-1} (p_3 v_3 - p_1 v_1) = \frac{1}{0,33} (0,85 \cdot 10^6 \cdot 0,172 - 0,1 \cdot 10^6 \cdot 0,86) \\ &= \frac{0,1 \cdot 10^6}{0,33} (0,146 - 0,086) = 182000 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}. \end{aligned}$$

Siklning ishi

$$l_0 = l_1 - l_2 = 833 - 182 = 651 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}.$$

6.43-masala. $v=const$ issiqlik uzatilgan sikl buyicha ishlayotgan porshenli dvigatelda havoning boshlang'ich holati: $p_1=0,785$ MPa va $t_1=17$ °C. Siqish darajasi $\epsilon=4,6$, uzatilgan issiqlik miqdori $100,5$ kJ/kg. Agar silindrning diametri $d=0,24$ m, porshenning yo'li $S=0,34$ m, aylanish soni $n=21$ rad/sek (200 ayl/min) har ikki aylanishda bitta sikl bajarilganda yuritgichning termik foydali ishi koeffitsientini va uning quvvatini aniqlang.


Javob:

6.44-masala. Izobarik issiqlik uzatilgan dvigatel silindriga berilayotgan yoqilg'ining yonish harorati 800 °C ga teng.

Agar havoning boshlang'ich harorati $t_1=77$ °C bo'lsa, siqish darajasi ϵ ning zarur minimal qiymati aniqlansin. Siqish adiabatik deb hisoblansin $k=1,4$.

Javob: $\epsilon=16,4$

6.45-masala. Agar $p_1=0,1$ MPa, $t_1=20$ °C, $\epsilon=12,7$, $k=1,4$ berilgan bo'lsa $p=const$



6.22-rasm.

issiqlik uzatilgan sikl uchun xarakterli nuqtalardagi parametrlarni, foydali ish, termik f.i.k., uzatilgan va olib ketilgan issiqlik miqdori topilsin (rasm) Ishchi jism havo. Issiqlik sig'imi o'zgarmas deb hisoblansin.

Yechish:

$$P_1 = 0,1 \text{ MPa}; T_1 = 20 \text{ } ^\circ\text{C}.$$

Gazning solishtirma hajmi holat tenglamasidan aniqlaymiz

2-nuqta.

Siqish darajasi

$$\varepsilon = \frac{v_1}{v_2} = 12,7;$$

bo'lishi uchun

$$v_2 = \frac{v_1}{\varepsilon} = \frac{0,84}{5} = 0,0661 \frac{m^3}{kg}.$$

Adiabatik siqish oxiridagi harorat

$$T_2 = T_1 \left(\frac{v_1}{v_2} \right)^{k-1} = 293 \cdot 12,7^{0,4} = 293 \cdot 2,76 = 809 \text{ K};$$

$$t_2 = 536 \text{ }^\circ\text{C}$$

Adiabatik siqish oxiridagi bosim

$$p_2 = \frac{RT_2}{v_2} = \frac{287 \cdot 809}{0,0661 \cdot 10^6} = 3,51 \text{ MPa}.$$

3-nuqta.

Izobarik jarayondagi parametrlari nisbatidan

$$\frac{T_3}{T_2} = \frac{v_3}{v_2} = \rho = 2$$

bundan

$$v_3 = v_2 \rho = 0,0661 \cdot 2 = 0,1322 \text{ m}^3/\text{kg}$$

$$T_3 = T_2 \rho = 809 \cdot 2 = 1618 \text{ K}; \quad t_3 = 1345 \text{ }^\circ\text{C}$$

$$p_3 = p_2 = 3,51 \text{ MPa}$$

4-nuqta.

Solishtirma hajm

$$v_4 = v_1 = 0,84 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Adiabatik kengayish oxiridagi bosim

$$\frac{p_3}{p_4} = \left(\frac{v_4}{v_3} \right)^k = \left(\frac{v_1}{v_3} \right)^k = \left(\frac{0,84}{0,1322} \right)^{1,4} = 13,3;$$

$$p_4 = \frac{3,51}{13,3} = 0,264 \text{ MPa}$$

Adiabatik siqish oxiridagi haroratni izoxorik jarayon (4-1 chiziq) parametrlari nisbatidan aniqlaymiz;

$$T_4 = T_1 \frac{p_4}{p_1} = 293 \frac{0,264}{0,1} = 773 \text{ K};$$

$$t_4 = 500 \text{ }^\circ\text{C}$$

Uzatilgan issiqlik miqdori

$$q_1 = q_{2-3} = c_p(t_3 - t_2) = \frac{29,3}{28,96} (1345 - 536) = 818 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}$$

Olib ketilgan issiqlik miqdori (absolyut qiymat)

